

**POLETHNIC FEATURES OF THE
MODERN ENGLISH LANGUAGE,
PROBLEMS OF CHOOSING A
TEACHING STANDARD AND
A TEACHING NORM**

ster
ed
assessing
transform
UNESCO
whether
elsewhere
practices
policies
Africa
environment
standards
learning
perspective
purpose
global
tools
CPS
transformation
used
encouraged
competency
education
current
evaluate
utilise
teachers

**G
B
P
S**

DOI:- <https://doi.org/10.37547/gbps-12>

ISBN:- 978-1-957653-16-7

PUBLISHED DATE:- 05 APRIL 2023

2023

**Tadjibayeva Adila
Ergashevna**

Tadjibayeva Adila Ergashevna

**ZAMONAVIY INGLIZ TILINING POLIETNIK
XUSUSIYATLARI, O‘QITISH STANDARTLARI
VA O‘QITISH NORMASINI TANLASH
MUAMMOLARI**

monografiya

2023 yil

Adila Ergashevna Tadjibayeva

ZAMONAVIY INGLIZ TILINING POLIETNIK XUSUSIYATLARI, O‘QITISH STANDARTLARI VA O‘QITISH NORMASINI TANLASH MUAMMOLARI

(m o n o g r a f i y a)

UDK: 811. 111. 1

BBK 81. 2

Tadjibayeva A. E. «Zamonaviy ingliz tilining polietnik xususiyatlari, o‘qitish standartlari va o‘qitish normasini tanlash muammolari» **(monografiya)**. Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2023, 130 b.

Taqrizchilar:

- Obidova G. Q. -** Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali Xorijiy tillar kafedrası mudiri, falsafa fanlar doktori(PhD)
- Kadirova M. R. -** Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori DSc dotsent
- Ganiyeva D.A. -** Farg‘ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori (DSc)

Monografiya al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali Ilmiy Kengashiga tasdiqlash uchun “Xorijiy tillar kafedrası ig‘ilishi, Kompyuter injiniringi fakulteti Kengashi tomonidan muhokama qilindi.

Monografiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali ilmiy Kengash tomonidan nashrga ma’qullangan. 2023-yil 1-aprel, 8-sonli bayonnoma

ISBN: 978-1-957653-16-7

Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/gbps-12>

Tadjibayeva Adila Ergashevna

POLETHNIC FEATURES OF THE MODERN ENGLISH LANGUAGE, PROBLEMS OF CHOOSING A TEACHING STANDARD AND A TEACHING NORM

(monograph)

UDC: 811. 111. 1

A. E. Tadjibayeva. Polyethnic features of the modern English language, problems of choosing a teaching standard and a teaching norm (monograph). Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2023, 130 p.

Reviewers:

G. Obidova - Doctor of Philosophy, docent of the Department of "Foreign languages" of the Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after al-Khwarizmi.;

M. R. Kadirova - Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovations of Fergana Public Health Medical Institute, DSc

D. Ganiyeva - Doctor of philology science, DSc of the Fergana state university

The monograph was discussed at a meeting of the Department of "Foreign languages", by the Council of the Faculty of Computer engineering for approval by the Academic Council of the Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

The monograph was approved for publication by the Academic Council at the Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi. Protocol No. 8, dated April 1, 2023.

ISBN: 978-1-957653-16-7

Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/gbps-12>

MUNDARIJA

KIRISH	6
I - BOB. INGLIZ TILINI DUNYO MIQYOSIDAGI INGLIZ TILIDA GAPLASHUVCHI MINTAQALAR BO‘YICHA UMUMIY TASNIFI VA INGLIZ TILI XALQARO TIL SIFATIDA	11
1. 1. Ingliz tili xalqaro til sifatida. Ingliz tilining adabiy variantlari va ularning turlari.....	11
1. 2. Hozirgi zamon tilshunosligida adabiy ingliz tilini hududlararo farqlari va alohida xususiyatlari	19
1. 3. Adabiy ingliz tilining hududiy variantlari tarixi va o‘zaro bog‘liqliklar	22
1. 3. 1. Qadimiy ingliz tili	23
1. 3. 2. O‘rta Asrlar ingliz tilisi.....	24
II BOB. ADABIY INGLIZ TILINING MAHALLIY KO‘RINISHLARI VA ULARNING TILDAGI AHAMIYATI.....	29
2. 1. Adabiy ingliz tilida shevalar, lahja, jargonlar va ularning ishlatilish o‘rinlari va ahamiyati	29
2. 2. Adabiy ingliz tilini o‘qitishda so‘zlarning semantik, leksik, morfologik va grammatik xossalari	38
2. 3. Mahalliy variantlarning til rivojiga ta’siri va o‘qitishdagi o‘rni.....	46
III - BOB. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA POLIETNIK TILLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	51
3. 1. Zamonaviy polietnik tillar va ularning o‘ziga xos jihatlari	51
3. 2. Ingliz tilining polietnik til sifatida shakllanishi va taraqqiy etish omillari	56
IV - BOB. INGLIZ TILIDA SO‘ZLASHUVCHI MAMLAKATLAR VA ULARDAGI INGLIZ TILI MILLIY VARIANTLARI	66
4. 1. Britaniya ingliz tili variantining tarqalish hududlari	66
4. 1. 1. Uels ingliz tili varianti	68
4. 1. 2. Shimoliy Irlandiya ingliz tili varianti.....	69
4. 1. 3. Shotlandiya ingliz tili varianti.....	71
4. 2. Ingliz tilining qit’alararo hududiy variantlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	72
4. 2. 1. Ingliz tilining Amerika qit’asida tarqalgan variantlari	72

4. 3. Ingliz tilining Yevroosiyo hududida tarqalgan variantlari.....	85
4. 3. 1. Janubiy Osiyo ingliz tili variantlari	85
4. 4. Ingliz tilining Avstraliya va Okeaniyada tarqalgan variantlari.....	92
4. 4. 1. Avstraliya milliy varianti	92
4. 4. 2. Yangi Zelandiya milliy varianti	101
4. 5. Ingliz tilining Janubiy Afrika varianti Janubiy Afrika ingliz tili varianti.....	103
V - BOB. INGLIZ ADABIY TILINI O‘QITISH STANDARTI VA O‘QITISH NORMASINI TANLASH MUAMMOLARI.....	106
5. 1. Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlardagi ingliz tilining standart variantlari.....	106
5. 2. Ingliz adabiy tili va uni o‘qitish me’yorining o‘ziga xos xususiyatlari	108
5. 3. Ingliz tili me’yoriy talaffuz standartlarini o‘qitish mezonlari	115
UMUMIY XULOSALAR.....	121
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	124

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohada islohotlarning amalga oshirilishi kelajagi buyuk davlatimizning yoshlarini xar tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatli bo'lgan barkamol avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan xar tomonlama tarbiyalashni, ularda bilim, keng dunyoqarash va e'tiqodga ega bo'lishni talab etadi.

Respublikamiz Prezidenti muhtaram Sh. M. Mirziyoyevning qaror va farmonlari hamda nutqlaridan kelib chiqadigan asosiy vazifalar, asosan, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari oldiga ta'lim va tarbiyani yuqori darajaga ko'tarilishini, millat ma'naviyatini va bilimdonligining rivojini xalq ta'limining insoniy-gumanitar xususiyatlari to'liq ta'minlanishini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni jalb qilish asosida uning tubdan yangilanishini xamda ilm -u fan tarraqiyotini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalarining kuchayib borayotganligi o'zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 2017-2021 yillar davomida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «Investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish» masalalarining ustuvor strategik yo'nalish sifatida belgilab qo'yilishi tillarni o'rganish borasida ham keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borish, ularga doir metodik qo'llanmalar yaratishni talab darajasida tuza oladigan, xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qila oladigan mutaxassislar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son «Chet tillarini o'rganish tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi 124-son «Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori hamda boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Darhaqiqat, Respublikamiz yoshlarini bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli beqiyos. Ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalar jahon ta'limi andozalari talablariga javob berishini ta'minlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda lingvistik muammolarni hal etish ham, shubhasiz, katta ahamiyatga egadir.

Har bir til xalqlarning ma'naviy boyliklarini chuqurroq egallab olish uchun, millatlar va xalqlarning hayoti, tarixi, madaniyati, psixologiyasini chuqur tushunib olish uchun xorijiy tillarni bilish alohida ahamiyatga ega. Jahon millatlari o'rtasidagi do'stlikni, hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishda boshqa xorijiy tillarni bilish ham katta ahamiyat kasb etishi hammamizga ayon.

Ma'lumki, o'tmishda yashab ijod etgan ota-bobolarimiz bir necha chet tillarini, jumladan arab, fors, ibroniy, sanskrit, lotin, yunon va boshqa tillarni bilishga intilishgan va shu tillarda nodir asarlar yozib qoldirishgan. Masalan, buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy arab, fors va ibroniy tillarini mukammal bilgan va uch tilda - turkiy, arab va fors tillarida samarali ijod qilgan. Bunday buyuk iste'dodni Abu Ali Ibn Sino, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy va boshqa buyuk vatandoshlarimiz ijodida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Tarixdan bizga ma'lumki, buyuk iste'dod sohibi bo'lgan bobokalonlarimiz o'z ilmiy asarlari va ijod namunalari bilan dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shganlar. Qadim-qadimdan yurtimiz shaharlari ilm-ma'rifat o'chog'i sifatida dunyoga dong taratganligi hech kimga sir emas.

Bizga ma'lumki, ingliz tili dunyodagi eng ko'p gaplashiladigan ikkinchi tillardan biri hisoblanadi. Kun sayin bu tilni o'rganuvchilar soni ortib bormoqda.

Dunyoning deyarli har burchagida ingliz tilida gapiradiganlar va bu tilni tushunadiganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ingliz tili shuningdek birinchi raqamli axborot almashinuvi tili hisoblanadi. Shunday ekan bu jadal sur'atlarda odimlayotgan taraqqiyot davrida davlatimiz boshqa davlatlar qatorida bo'lishi uchun yosh avlodga ingliz tilini o'rgatish juda dolzarb ahamiyatga ega. Bu holatni tushungan xalqimizda so'ngi paytlarda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj tug'ilmoqda. Buning uchun mamlakatimiz ta'lim tizimida yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, bolalarga bog'cha va maktabning birinchi sinflaridanoq ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida ingliz tili darslari standart ingliz tili, ya'ni Buyuk Britaniyada qabul qilingan talaffuz standartlari asosida olib boriladi. Bu o'quvchilarga sof ingliz tilini, ya'ni uning turli mahalliy sheva va dialektlarini qorishtirmagan holda o'rganishlarini ta'minlaydi.

Ingliz tilining dunyoning juda ko'p hududlarida keng tarqalganligi va turli mintaqalarda turli xalq va millatlar tomonidan so'zlashilganligi uning bir necha milliy variant, sheva va dialektlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, hozirgi zamonda ingliz tili dunyoning yetakchi polietnik tillaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, bu tilda so'zlashuvchi turli millat vakillari tomonidan qo'llaniladigan ingliz tilining milliy variantlari bir-biridan tilning bir necha sathlarida o'zaro farqlanadi. Ushbu monografiyada ingliz tilining dunyo bo'ylab tarqalgan milliy variantlari, ularning o'ziga xos jihatlari o'rganildi.

Ilm fan taraqqiyoti rivojlanayotgan bir davrda tillarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatiga alohida urg'u berish lozim. Shu asnoda ingliz tilining dunyo mintaqalaridagi roli juda katta. Butun dunyoning to'rtidan bir qismi ushbu tilda so'zlashib, shu tildan muomala vositasi sifatida foydalanadi. Ingliz tili ming yillik til bo'lib, hozirda dunyoda eng ko'p gaplashiladigan va foydalaniladigan til hisoblanadi. Bu tilning bu darajada keng tarqalishida inson va jamiyat harakati, talabi va ehtyoji sabab bo'lgan.

Shuning uchun ham ushbu tilning ommalashib ketganligi tabiiy. Til o'rganishga talab ortib borar ekan, tildan foydalanuvchilar soni ham oshib boradi. Biror til qanchalik ko'p tarqalsa, uning hududlar va mintaqalararo farqlanib rivojlanishi, hamda variantlarga bo'linishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida bir tilning turli ko'rinish va ishlatilish qoidalarga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslar ingliz tilini 3 ko'rinishga bo'lib farqlashishadi, bular ingliz tilining standart ko'rinishi, ingliz tilining adabiy variantlari va mahalliy dialektlar. Shuningdek, tilshunoslar adabiy ingliz tilini o'rganish va o'rgatish jarayonida mintaqaviy til farqlari yuzasidan turlicha muammolar kelib chiqqanligini va kelib chiqishi mumkinligini ta'kidlab, bu sohada ko'p izlanishlar amalga oshirdilar. Lekin, variantlar o'rtasidagi farqlar, o'xshashliklar saqlanib qolib tilning o'sha hudud foydalanuvchilari uchun xos bo'lib qolaveradi. Tilshunoslar ingliz tilini adabiy variantlarini o'qitish jarayonida qaysi normalarga asoslanish kerak ekanliklari bo'yicha bir xulosaga kelishgani yo'q. Lekin, til tarixi, yillar davomidagi butun dunyo tilshunoslar xulosa va taxlillaridan shu aniqki, til o'rganish va o'rgatishda uning har jihatdan o'rganib chiqish muhim. Ammo hozirgi kunda ingliz tilini 2-til sifatida o'rganayotganlar uning adabiy variantlari va turlari, standart, nostandart ko'rinishlaridan ham xabardormi? Lingvistik nuqtai nazardan, bu xususiyatlar o'rgatiladimi? Yoki o'rgatilganda ham qay holatda tushuntirilishi kerak? Ushbu monografiyaning asosiy mazmun mohiyati ingliz tilini chuqur taxliliy muhokamasiga bag'ishlangan bo'lib, ingliz tilining adabiy variantlari va turlari, mahalliy xususiyatlari, qonun qoidalarini tashkil etadi.

Til o'rganuvchi, ayniqsa til o'rgatuvchi ingliz tilining adabiy variant xususiyatlarini yaxshi bilishi va amalda misollar bilan taxlil qila olishi kerak. Shunday ekan, til muhokamasiga bag'ishlangan ushbu taxliliy mavzu qiziq va muhim ahamiyat kasb etishi aniq.

Ingliz tili butun dunyo miqyosida so'zlashiladigan global til maqomiga ega bo'lish bilan birga uning turli millat va elatlar orasida shakllangan o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari mavjud. Ularning u yoki bu aspektlari tadqiq

qilinishiga qaramay ba'zi muhim tomonlari hanuz to'la ochib berilgani yo'q. Uning eng muhim tomonlarini biz lingvokulturologik, lingvokognitiv, lingvostilistik, kommunikativ-pragmatik, sosiolingvistik jihatlarida ko'rishimiz mumkin. Sosiolingvistik nuqtai nazaridan qaralganda ingliz tilining polietnik jihatlar va unga xos bo'lgan metatushunchalar, metaatamalar, shuningdek uning metatili muammolarini hal etish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

Adabiy ingliz tilining hududlararo varianti mavzusi ustida ko'plab olimlar izlanishlar olib borgan. Ulardan A. A. Abduazizov, A. A. Garnseva, T. A. Rastorguyeva, I. P. Ivanova, L. P. Chaxoyan, O. V. Aleksandrova, A. D. Shveyser, I. V. Arnold, T. M. Belyayeva, I. A. Potapova, M. M. Makovskiy, G. B. Antrushina; Ingliz tilshunoslaridan Beks, Toni, Richard J. Vatts, Bleyk, Burridge, Bernd Kortmann, Krovley, Kristal, Durkin, Laura, JS Vells, Hickey, Raymond, Peter Trudgill, Kollins kabilarni sanab o'tish mumkin. Amerikalik olimlardan Harder, S. Jayn, Tomas Sheridan, Wrap, Jeremiy, Hadson, Binder, Devid, Volfram, Valt lar ham ushbu mavzu ustida ish olib borgan tadqiqotchilardan hisoblanishadi.

Hozirgi zamonda turli mintaqalarda qo'llanilayotgan ingliz tiliga xos bo'lgan empirik materiallar asosida uning polietnik xususiyatlarini aniqlash va qiyosiy jihatdan tadqiq qilish, izlanishlar natijasidan kelib chiqib til o'qitish metodikasini rivojlantirish uchun tegishli uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish oldimizga qo'yilgan maqsadlarimizdan biridir.

I - BOB. INGLIZ TILINI DUNYO MIQYOSIDAGI INGLIZ TILIDA GAPLASHUVCHI MINTAQALAR BO'YICHA UMUMIY TASNIFI VA INGLIZ TILI XALQARO TIL SIFATIDA

1. 1. Ingliz tili xalqaro til sifatida. Ingliz tilining adabiy variantlari va ularning turlari

Til insonlarning o'y fikrlari, talab va istaklari, maqsadlarini ifoda etuvchi asosiy vositadir. Til o'zining anashu xususiyati bilan insonlarni o'zaro aloqa qilishiga imkon yaratadi. Insoniyat yaralibdiki, muloqot uchun yo'l izlagan va turli davriy yevrilishlar ta'sirida til shakllangan. Bugungi kunda 6909 dan ortiq til mavjudligi aniqlangan.

Jamiyatni tilsiz tasavvur qilish qiyin. Til jamiyat rivoji bilan birgalikda rivojlanadi. Tillar turlicha bo'lganidek, unda so'zlashuvchilar ham turlicha bo'ladi. Masalan, dunyoda 3586 ta eng kichik tillar mavjudki, unda dunyo aholisining atigi 0. 2 foizi so'zlashadi, 2935 ta o'rtacha kattalikdagi tillar mavjud bo'lib unda dunyoning 20. 4 foiz aholisi gaplashadi, dunyoning 83 ta eng katta tillar mavjudki, unda sayyoramizning 79. 4 foiz aholisi foydalanadilar¹. Biz o'rganayotgan ingliz tili esa shu eng ko'p foydalanuvchilarga ega tildir. Ingliz tilining hududiy tarqalishi ham keng va turlichadir. U dunyo tili - xalqaro kengashlarida, simpoziumlarida ishlatiluvchi, Birlashgan Millatlar Tashkilotida rasmiy til sifatida tan olingan til hisoblanadi. Bugun dunyoda 40 dan ortiq mamlakatlarda bu til davlat (alohida davlat farmoyishi asosida davlat tili maqomi berilgan, shu davlatning barcha sohalarida qo'llaniladigan til") tili, rasmiy ("davlat hududida rasmiy tan olingan, barcha sohalarida qo'llaniladigan")² ish yuritish va muloqot tilidir. Ulardan birinchisi Buyuk Britaniya bo'lib, ingliz tilining yaralgan vatanidir. Ingliz tili dunyoning har bir hududida o'z so'zlovchilariga egadir.

Mana masalan, Afrikada 17 ta - Botsvana, Gambiya, Gana, Janubiy Afrika Respublikasi, Zambiya, Zimbabve, Kamerun, Keniya, Lesoto, Liberiya,

1 Kryss Katsiavrides. The Origin and History of the English language.

2 Абдуазизов А.Тилшунослик назариясига кириш. Т.: Шарк, 2010.

Malavi, Nigeriya Ruanda, Svazilend, Serro leone, Tanzaniya, Uganda kabi mamlakatlar; Amerika qit'asida 8 ta - AQSH, Beliz, Virgin orollari, Gayana, Kayman orollari, Puyerto Riko, Terks va Kaykos orollari, Kanada, Osiyo qit'asida 6 ta - Bangladesh, Brunej, Gongkong, Pokiston, Singapur, Hindiston; Yevropa qit'asida 4 ta - Angliya, Buyuk Britaniya, Gibraltar, Irlandiya; Tinch okeani davlatlari 10 ta - Vanuatu, Guam, Kiribati, Marshall orollari, Mikroneziya, Nauru, Papua, Yangi Gvineya, Solomon orollari, Tonga, Tuvalu, Fidji, Yangi Zelandiya, Hind okeanida 2 ta - davlat Mavrikiy, Seyshell orollari; Atlantikada 2 ta - Bermud orollari, Folklend orollari; Vest Indianing 3 ta davlati Antigua va Barbuda, Bagam orollari, Monserrat; Karib dengizida 8 ta davlat - Barbados, Grenada, Dominikana, Senvinsent va Grenadin, Senkits va Nevis, Sent Luyis, Trinidad va Tobago, Yamayka kabi davlatlarda ingliz tili davlat tili sifatida qo'llaniladi. Bu kabi qator turli mintaqa mamlakat xalqlari orasiga yoyilgan ingliz tilining milliy va hududiy variant, sheva, lahjalarga ega bo'lishi shubhasizdir. Shuning uchun ham ushbu ingliz tilining variantlari va ular o'rtasidagi farqlar, o'xshashliklar, betakror xususiyatlar juda qiziq va albatta muhokamali.

Ingliz tilining asosiy variantlari. Ingliz tilining 3 turdagi farqlari: standart ingliz tili, hududiy variantlar va mahalliy dialektlarga bo'lib o'rganiladi. Standart ingliz tili shu tilning adabiy ko'rinishi bo'lib ingliz tilida gaplashadigan barcha davlatlar va dunyo miqyosida tan olingan va qabul qilingan ko'rinishidir. Standart ingliz tilini badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari, publististika, jurnalistika, ta'lim va jamiyatning boshqa sohalari na'munalarida ko'rish mumkin.

Ingliz tilining hududiy variantlari esa, ushbu til normalarini hududlararo tanlab olingan va keng ishlatiladigan ko'rinishi hisoblanadi. Bular joyning aholi qatlami madaniyati, tarqalishiga qarab turlanishi mumkin. Masalan, Birlashgan Qirollik hududida ingliz tilining Britancha, Shotlandcha, Irlandcha ko'rinishlari mavjud bo'lsa, Britaniya orollaridan tashqari hududlarda Amerikanacha ingliz tili, Kanada ingliz tilisi, Yangi Zelandiya ingliz tilisi, Janubiy Afrika, Avstraliya

va Xindiston ingliz tillari mavjud ³. Bular bir tilning bir nechta ko'rinishlari bo'lib muloqot uchun xizmat qiladi. Ularning tuzilish xususiyatlari ayniqsa morfologik, sintaktik, so'z qurilishi va fonetik tarkibi bir xil. Britaniya ingliz tilisi standart ingliz tiliga asos bo'lgan bo'lib, talaffuz qoidalari butun dunyo ta'limi va me'yorlari uchun asos qilib qabul qilingan. Mahalliy dialektlar esa asosan og'zaki nutq uchun xos bo'lib, ularni adabiy til me'yorlariga aloqador emas va faqatgina ma'lum hudud va kishilar muloqotini boyituvchi til ko'rinishi hisoblanadi.

Britaniya orollari tashqarisidagi ingliz tili variantlari. Amerikancha ingliz tili. Hech kimga sir emaski, oxirgi 100 yillikda Amerika fan, texnika, sanoat, ta'lim kabi turli sohalarda juda katta rivojlanishlar qildi va albatta bu rivojlanish uning tili ya'ni ingliz tilining ham dominantlik qilishiga va dunyo bo'ylab keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Aslida kelib chiqishi Britaniya hududi bo'lgan ayrim so'zlar rivojlanish ta'sirida yasalishga va ayniqsa fonetik o'zgarishlarga ega bo'ldi va aholi qatlamlari tomonidan o'zgargan holati ma'qullanib ishlatila boshlandi. Bu bir tomondan tilni lug'at boyligiga ta'sir qilsa, ikkinchi tomondan so'zlarni ishlatishda ikkilanishlarni keltirib chiqaradi.

Kanada ingliz tilisi. Kanada ingliz tilisidagi so'zlarning yozilishi Britaniya ingliz tilisi va Amerika ingliz tilisining o'rtasidagi ko'rinishi bo'lib, ammo og'zaki shakli Amerika ingliz tilisiga juda yaqin. Shuningdek, Kanadada fransuz va ingliz tili rasmiy til bo'lganligi tufayli, Fransuz tilining ta'siri ham so'zlar yasalishi va ayniqsa fonetik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Kanada ingliz tilisida shunday so'zlar borki, adabiy ingliz tilining boshqa variantlarida sira uchramaydi. Masalan; *Parkade-parking garage*, yoki *chesterfield-sofa*, *coach*. Xatto, ayrim so'zlarda ma'no farqliklarini ko'rish mumkin. Masalan, *to table document-to* present it (Kanada ingliz tilisida), *to withdraw* (Amerikancha ingliz tilisida) Bugungu kunda Kanada 10 ta provinsiya va 2 ta hududdan iborat federativ davlat. Aholisi aralash: asosiy (1/2) qismini ingliz -Britaniya va

3 Беляева Т.М., Потапова И.А. Английский язык за пределами Англии. М.: 1961.

Amerikalik ko'chmanchilarning avlodlari tashkil qilsa, fransuz va kanadaliklar aholining 3/1 qismini tashkil qiladi. ⁴

Avstraliya ingliz tilisi. Avstraliya mintaqasida og'zaki nutqda ishlatiladigan ingliz tili Avstraliya ingliz tilisi deyiladi. Rivojlanish tas'irida mamlakat hududiga turli mahsulotlar bilan birgalikda so'zlar ham kirib kelgan bo'lib, Avstraliya aholisi tildagi so'zlarni o'zlariga moslashtirgan. Bular asosan ingliz tilidagi zamonaviy so'zlar iste'molida, ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Hudud jihatidan alohida bo'lganligi tufayli tashqi ta'sirlardan ko'ra o'zidagi so'zlarning tarixiy yasalishi ta'sirini uchratish mumkin. Yaqinlik jihatidan Britaniya ingliz tilisiga yaqin, ammo Amerikancha so'zlarni o'zlashtirilganligi ham misollarda namoyon bo'ladi. Yangi Zelandiya ingliz tilisi avstraliya ingliz tilisi bilan deyarli bir xil. Avstraliya ingliz tilisi bir nechta faqat avstraliya uchun xos bo'lgan terminlar bilan ishlatiladi. Misol uchun *outback* so'zi- chekka hudud ma'nosida, bush-mahalliy o'rmonli hudud, *walkabout*-uzoq masofali sayohat.

Aborogenlar mahalliy tili elementlari ham Avstraliya tiliga kirib kelgan. Bular asosan mahalliy hayvonot va o'simlik dunyosiga oid bo'lgan so'zlar. Masalan: *dingo*, *kangaroo*, *boomerang* (hayvon nomlari). Shu bilan birga joy nomlariga nisbatan ham ishlatiladi ⁵.

Avstraliya ingliz tilisining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, so'z ohirida -o yoki ie qo'shimchalari juda ko'p uchraydi;

Masalan: *arvo-afternoon* / *Servo-service*/ *Bikkie-biscuit*

Yangi Zelandiya ingliz tilisi. Yangi Zelandiya ingliz tilisi deyilganda Yangi Zelandiyaning og'zaki tili uchun xos bo'lgan mahalliy aholi tomonidan ishlatiladigan ingliz tili tushuniladi. Yangi Zelandiya ingliz tilisi talaffuzi jihatidan Avstraliya ingliz tilisiga juda yaqin. Yangi Zelandiyaning juda ko'p so'zlari mahalliy Maori xalqi so'zlaridan olingan bo'lib, mahalliy hayvonlar, tabiat o'simliklari, qushlar nomlari ishlatilishida so'zlar hilma-xilligini uchratish mumkin.

4 Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М.:1973. 236 с.

5 Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М.:1973. 246 с.

Masalan; *kiwi* — *qush nomi*

Shellfish - *baliq turi nomi*

Kauri - *mahhaliy daraxt nomi*

Nafaqat oddiy soʻzlar, balki idiomalarda ham Yangi Zelandiya ingliz tilisining oʻziga xosligini uchratish mumkin. Masalan: *Sticky beak* - kishilarning shaxsiy muammolariga qiziquvchan odamlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan soʻz boʻlib, koʻpincha yomon odat va xarakter sifatida izohlanadi.

Janubiy Afrika ingliz tilisi. Ushbu til Janubiy Afrikaning asosan Namibiya va Zimbabve hududlari uchun xos boʻlib, mahalliy oq tanli aholing 40 foizi, qora tanli aholining juda kamchiligi bu tilda soʻzlashadilar. Talaffuzi asosan Britaniya va Avstraliya ingliz tilisining qorishmasi. Ammo Afrika ingliz tilisida Avstraliya ingliz tilisida ham, Britaniya ingliz tilisida ham uchramaydiga soʻzlar bor boʻlib, masalan; *bra, bru*- oʻgʻil bola doʻst, *sat-(dead)*- oʻlik maʼnolarida ishlatilib, bu soʻzlarni ingliz tilining boshqa variantlarida uchratmaymiz. Janubiy Afrika ingliz tilisining ayrim soʻzlari dunyo ingliz tilisiga kirib borgan. ⁶

7

Misol uchun: *Apartheid* - irqchilik-soʻzi, yoki *trek* -uzoq masofaga sayohat

Hindiston ingliz tilisi. Hindistonda keng miqyosda ishlatiluvchi bu til oʻziga xos. Hindiston maktablarida asosan britanacha ingliz tilisida taʼlim berilib, Britaniya 1947-yilda bu oʻlkani tark etgandan beri Britanacha til taʼsiri mavjud. Britaniya ingliz tilisining tarixiy koʻrinishlari ingliz tilining Hindiston variantlarida hali ham saqlanib qolgan.

Masalan: rasmiy xatlarda, *please do the needful* yordamingizni ayamang, yoki *your obedient servant*- sizning beminnat xizmatchingiz kabi birikmalar uchraydi. ⁸

Ammo, Hindiston ingliz tilisini ingliz tili soʻz boyligiga hissasi ham katta. Ayrim soʻzlar xatto Oksford Ingliz tili lugʻatiga ham kiritilgan.

6 Bumdge, Kate and Bemd Kortmann. Varieties of English: vol 3, The Pacific and Australasia. 2008.

7 Mesthrie, Rajend. Varieties of English: vol4, Africa, South and Southeast. 2008.

8 Hot English magazines, 127-version. Samples of variety of English.

Masalan: *bungalov, jungle, pyjamas, mango, jute* ⁹;

Hindistonning rasmiy hukumat tili Britanча ingliz tili sifatida qo‘llaniladi. Britanча ingliz tili garchi rasmiy til sifatida qo‘llanilsa ham, ammo faqat Hindiston ingliz tilisidagina mavjud bo‘lgan so‘zlar ham mavjud.

Masalan: *crore-ten million -o ‘n million*;

Scheduled tribe- xukumat tomonidan imtiyozlar beriladigan qoloq qabila;

Birlashgan Qirollik hududidagi Ingliz tili variantalari.

Birlashgan Qirollik asosan 2 turdagi ingliz tiliga mansub bo‘lib, bular Irlandча va Shotlandча ingliz tilidir.

Shotlandiya ingliz tilisi. Shotlandiya hududidagi aholi tomonidan ishlatiladigan ingliz tili bo‘lib, uning asosiy xususiyati uning milliyligi va xalqona termin, uslubiy jihatlariga boyligidadir.

Tarixiylik nuqtai nazaridan shotlandiya ingliz tilisi uch asrlik davriy rivojlanishni aks ettiradi. Shotlandiya ingliz tilisida qishloq va shahar aholisining ishlatayotgan ingliz tilisidagi farqlar ham seziladi. Shotlandiya ingliz tilisiga asosan uch unsur ta’sir etgan bo‘lib, birinchidan, irlandiya va shotlandiya ingliz tilisi o‘rtasida kuchli foydalanishga bo‘lgan bosim, ikkinchidan, ushbu hududlarning yuqori va quyi pasttekisliklarda yashovchi aholining tili o‘rtasidagi nomutanosiblik, uchinchidan, diniy har xilliklar, ya’ni katolik va protestantlikni tilga bo‘lgan ta’siridir.

Shotlandiya ingliz tilisi bilan Britanча ingliz tilisidagi alohida xususiyatlarni ta’kidlab o‘tish lozim. Ular asosan leksik til xususiyatlarida farqlidir.

Masalan: Britaniya ingliz tilisida *minor* - 18 yoshdan kichik bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llanilsa, Shotlandiyada *pupils*- 12-14 yoshgacha bo‘lgan bolalarga, va faqat 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar uchun *minor* termini ishlatiladi. Shotlandiya ingliz tilisiga fransuz, norvegiya, gel tillarining ham ta’siri juda katta. Masalam: *sporran-gel* tilidan shotland tiliga kirib kelgan so‘z bo‘lib, jundan tikilgan mahsus *osma sumka* yoki haltacha, erkaklarning

9 Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М.:1973. 246 с.

milliy liboslarining oldida osilib turadi va shotland milliy libosining bir qismi sifatida qo‘laniladi. Yana shunday so‘zlar ham borki, shakli bir xil, ammo ma’nosi britanacha va shotlandcha ingliz tilida har xildir.

Masalan: *gate* so‘zi britanacha ingliz tilida darvoza ammo, shotlandcha ingliz tilida *road* -yo‘l ma’nosida ishlatiladi. Ayrim shotlandcha ingliz tili so‘zlari butun mintaqada ham keng qo‘llaniladi.¹⁰

Masalan: *dinnae-don’t* ma’nosida, *bairn* – child, *billy* – chum; wee-small -kichkina ma’nosida, *kirk-church* cherkov, *bonny* – handsome, *lassie-girl* –qiz; *glamour* - charm¹¹ ma’nosida ishlatiladi.

Irlandcha ingliz tili. Irlandiya ingliz tilisi asosan Irlandiyada ishlatiladigan ingliz tilidir. Shuningdek bu ingliz tili *Anglo Irish* ya’ni inglizcha irlandcha deb ham ataladi. Ingliz tilining bu varianti eng qadimiy ingliz tili deb ham tan olingan bo‘lib, ingliz tilining asl kelib chiqishiga borib taqaladi. Irlandcha ingliz tilining siyosiy lingvistik foydalanishiga ko‘ra Shimoliy va Janubiy qismlarga bo‘linadi. Irlandcha ingliz tilining asosiy lug‘at tarkibi quyidagi xususiyatlarga ko‘ra asoslanadi:¹²

1) Britanacha ingliz tili kabi bir xil qurilishga ega bo‘lgan ayrim so‘zlarning ma’nolari har xil.

Masalan: *bold-naughty* -quloqsiz, *backward-shy* -uyatchang.

2) Aholining yoshi kattalari ishlatadigan ayrim so‘zlarni (tarixiylik va an’anaviylik jihatidan) mavjudligi.

Masalan; *biddable-obidient* -bo‘ysunuvchan

3) Faqat irlandiya uchun hos bo‘lgan so‘zlarning mavjudligi.

Masalan; *begorrah-by God* - Yaratgandan

4) Shotlandcha ingliz tilidagi ayrim so‘zlarni Irlandcha ingliz tilida ham borligi, masalan: *greet-cry*, *weep* –yig‘lamoq, *brae-hill*, *steep slope* -qir, adir;

10 Vocabulary in Use (upper-intermediate): Varieties of English.

11 Беляева Т.М., Потапова И.А. Английский язык за пределами Англии. М.: 1961. 6-24 с.


12 Hickey Raymond. A source book for Irish English. Amsterdam: 2002. -28p.

Bulardan tashqari irlandcha ingliz tilini o'ziga xos grammatik, leksik va fonetik xususiyatlari bor.

Masalan: *do be/does be* - knostrukturasining ishlatilishiga e'tibor bersak;
- *They do be talking on the phone.* (They are talking on the phone) ya'ni ular telefon orqali gaplashishyapti)

Yoki you (-sen, siz) ikkinchi shaxs birlik olmoshini ye tarzida, arxaik so'z sifatida hali ham irlandcha ingliz tilida mavjudligi bu variantning ham o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi.

Ushbu chizma adabiy ingliz tilining variantlari haqidagi umumiy xulosa uchun qisqa tushuntirilish bo'la oladi.



1. 2. Hozirgi zamon tilshunosligida adabiy ingliz tilini hududlararo farqlari va alohida xususiyatlari

Adabiy ingliz tilining farqlari haqida gapirilganda, avvalo eng asosiysi Britanacha va Amerikanacha ingliz tili haqida soʻz yuritiladi. Chunki ingliz tilining asosiy farqli jihatlari ushbu ikki tilda namoyon boʻladi. Ammo, dastlab hududiy variantlarning leksik farqlari haqida umumiy maʼlumot berib oʻtish zarur. Bugungi kunimizda Britisizm, Amerikanizm, Avstraliyanizm, Kanadanizm kabi hududiy xususiyatlarga boʻlingan shakllar va atamalarni uchratamiz. Ingliz tilidagi hududiy farqlarni tilshunos va filologlar bir tushuncha uchun turli atamalar turli variantlarda turlicha uchrashi bilan izohlashadi. Masalan: *government-administration* -bu ikki soʻzning sinonimik juftlik sifatida bir maʼnoning ikki koʻrinishi sifatida qabul qilingan. Ammo, biri amerikanacha ingliz tilida, ikkinchisi britanacha ingliz tilida keng tarqalgan soʻz ekanligini unutmaslik kerak. Bu kabi juftliklar koʻplab topiladi;¹⁵

Masalan: *post-mail* -xat

Timetable-schedule – jadval

Notice-bulletin -bulliten

Ushbu juftliklarda qoʻllanilayotgan soʻzlarning birinchi Britanacha ingliz tilida eng koʻp qoʻllanuvchi, ikkinchisi esa Amerikanacha ingliz tilida ommalashgan. Shunday soʻzlar ham borki Britanacha ingliz tilida mavjud xolos. Shuning uchun ham Amerikanacha ingliz tilida oʻsha variant ishlatiladi.

Masalan; *fortnight* -ikki hafta

Pillar-box -tik turuvchi pochta qutisi

Lekin Amerikanacha ingliz tilida mavjud boʻlib, britanacha ingliz tilida esa yoʻq boʻlgan soʻzlar ham bor.

Masalan; *mailboy*- xat tashuvchi bola

Campus-lager, yoki universitet, oʻquv muassasasi hududidagi maydon

Avstraliyanizm- bu variantda ham shunday soʻzlar borki, u qolgan variantlarda mavjud boʻlmaganligi uchun ham Avstraliyanacha variantdagi kabi ishlatiladi.

Masalan:

Outback - cho'lashgan, giyoh o'smaydigan, kimsasiz joy

Backblocks - orqa hudud;

Demak, ingliz tilining turli hududlarda rivojlangan va qo'llanilayotgan variantlar o'zaro bir birini to'ldirar ekan. Bu kabi taxlillar uchun ingliz tilining ikki asosiy hududiy varianti britanacha ingliz tili va amerikanacha ingliz tilini olgan ma'qul. Chunki bu ikki variant standart ingliz tilining asl o'zagi va manbai hisoblanadi.

Amerikanacha va Britanacha ingliz tili farqlarini zamonlarni ishlatilishida, so'zlar talaffuzida, yozilishida, predloglarni qo'llashda, shartli belgilarda, tinish belgilarini ishlatishda va yana bir necha holatlarda ko'rish mumkin. Ushbu farqlarni misollar va taxlillar bilan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: ¹⁶

a) so'zlarni ishlatishdagi farqlar.

Masalan; *athlete*- Amerikanacha ingliz tilida atletikachi sportchi ma'nosida kelsa, Britanacha ingliz tilida dala mashg'ulotlarida qatnashuvchi kishi sifatida ishlatiladi.

b) so'zlarni yozilishidagi farqlar:

Bunga juda ko'p misollar mavjud bo'lib ikki ko'rinish ham til o'rganuvchilar tomonidan bir xil holatda ishlatilishi mumkin, ammo lingvistik nuqtai nazardan esa xato hisoblanmaydi.

Amerikanacha	Britanacha
Color -rang	Colour
Fulfill -to'ldirmoq	Fulfil
Center -markaz	Centre
Analyze -taxlil	Analyse
Aging -	Ageing
Dialog -dialog	Dialogue
anesthesia, -	Anaesthesia

BE va AYe ning leksik farqlari haqida gapirilganda quyidagilar juda muhim

1) Ikki variantning birida bo‘lib, ikkinchisida mavjud bo‘lmagan so‘zlar ham bor. *Masalan: drive-in - AYe da mashina bilan kirish mumkin bo‘lgan restaran yoki kinoxona.* Ushbu so‘zning BE da munosib ekvivalenti bor emas.

2) Turli so‘zlar bir ma’no uchun ishlatilishi ham mumkin.¹³

Masalan; sweet (BrE)-Candy (AE)- shirinlik, konfet flat—apartmen - kvartira lorry-truck (yuk mashinasi) tin-opener-can opener (ochqich) va hokazo.

3) Ikki variantda ham ishlatilib, ammo bir variantda ko‘proq ishlatiladigan so‘zlar;

Masalan: post-mail -ikki variant uchun ham tushunarli, ammo, AYe uchun ko‘proq mail xos

4) Bir xil ammo turlicha semantik tuzilishga ega bo‘lgan so‘zlar

Masalan: homely- BrE da uyini yaxshi ko‘radigan, oilaparvar kishi tushunilsa, AE da ko‘rinishi hunuk kishi uchun ishlatiladi

5) Qisqartmalarda ham farqlar anchagina. Bular ko‘proq AYe da uchratilib, qolgan variantlarda ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: dorm-dormitoy –yotoqxona

mo - moment

Cert-certainly –albatta

b. f. - boy - friend

6) Qo‘shimchalardagi farqlar:

-our (British) va -or (American). Masalan: colour – color;

-re (British) va -er (American). Masalan: centre – center;

-ce (British) va -se (American). Masalan: defence –defense;

Greklardan kirgan qo‘shimchalr:

-ise (British) va -ize (American). Masalan; centralise - centralize

-yse (British) va -yze (American). Masalan: analyse - analyze

13 Vocabulary in Use (upper - intermediate) British/American English.

-ogue (British) va -og (American). Masalan: dialogue - dialog

Simplification of *ae* va *oe* in American English. Masalan: gynaecology - gynecology

7) Fe'llarni ishlatishdagi farqlar:

Masalan- o'tgan zamon uchun *learn* -o'rganmoq fe'lini BgB da *learned*-AE da esa *learnt* shaklida, yoki *dreamed-dreamt* -tush ko'rmoq/orzu qilmoq kabi misollarda ham uchratish mumkin.

8) Predloglarni ishlatishdagi farqlar:

Masalan: *in a team* - komandada BrE uchun xos bo'lsa, *on a team* AE uchun xosdir, yoki *at the weekend (BrE)-on the weekend (AE)*

9) Imlo qoidalari uchun ham farqli misollar keltirish mumkin.

Masalan: : BrE da Mr, Johnson vergul bilan ishlatilsa, AYe da esa vergulsiz ishlatiladi;

Masalan; Mr Johnson. (Amerikancha variant)

10) Vaqtni aytish:

Vaqt aytishda ham BrE va AYe o'rtasida farqlar mavjud. BrE- *quarter past ten* deyilsa, AYe da *Quarter after ten* deyiladi. Xatto AYe da soat 6. 00 yozilsa, Br E da 6: 00 yozish odatdir.

1. 3. Adabiy ingliz tilining hududiy variantlari tarixi va o'zaro bog'liqliklar

Adabiy ingliz tilining variantlari tarixi haqida muhokama qilishdan oldin ingliz tilining o'zini til tarixiga e'tibor qaratish zarur. Ma'lumki, ingliz tili Hind-Yevropa tillar oilasining G'arbiy German tillar guruhiga mansub bo'lib, uning tarixi asosan 3 davrga bo'lib o'rganiladi. Bular Qadimiy ingliz tili (450-1100 AD), O'rta asrlar ingliz tilisi (1100-1500 yillar oralig'i) va Zamonaviy ingliz tili (1500 yildan boshlanib hozirgacha bo'lgan). Asrlar davomida ingliz tilini til rivojiga boshqa tillarning ta'siri juda yuqori bo'lgan.

1. 3. 1. Qadimiy ingliz tili

V asrda German qabilalari (Anglo sakslar) Britaniya orollariga shimoliy g'arbiy Germaniyaning turli qismlaridan kelib joylashdilar. Bu qabilalar jangovor qabilalardan bo'lib, keyinchalik ma'lum guruhi Fransiyaning *Brittany coast* orollariga ko'chib ketganlar, va ularning avlodlari haliyam kelt tilida so'zlashadilar. Yillar davomida sakslar, anglo qabilalari turli dialektlari va shevaga xos so'zlarini aralashtirib ishlatdilar va ularning mavjud bo'lgan tili hozirda qadimiy ingliz tili deb nomlanuvchi tilga aylandi. English (ingliz) so'zi aslida *Englisc* -ya'ni Anglo so'zidan kelib chiqqan bo'lib bu nom ularning yashash joylari nomi bilan izohlanadi.

Hozirda biz bilgan ingliz tili dastlab Lotin va Kelt tilining aralashmasi bo'lib, Rimliklar Britaniyaga juda ko'p yangi so'zlarni olib kirgan. So'zlar asosan harbiy soldatlar, xizmatchilar orqali kirib kelgan ¹⁴.

Masalan: *win (wine), candel (candle), belt (belt), weall (wall)*.

lekin joy, daryo nomlarining asosiylari qadimiy Kelt tilidan olingan.

Masalan: *Kent, York, Dover, Cumberland, Thames, Avon, Trent, Severn*

Xristianlik orqali yanada ko'proq diniy so'zlar ham kirib kela boshlagan.

Masalan; *church, bishop, baptism, monk, eucharist and presbyter*

Bu so'zlar lotin tiliga qadimgi grek tilidan kirib kelgan.

Normandlar istilosi bilan (Vikinglar deb ham ataladi) esa ko'plab norvekcha so'zlar kirib kelgan, bular asosan Angliyaning shimoliy qismida namoyon bo'ladi ¹⁵.

Masalan: *sky, egg, cake, skin, leg, window (windeye), husband, fellow, skill, anger, flat, odd, ugly, get, give, take, raise, call, die, they, their, them*.

Qadimiy ingliz tilining turli yozma manbalari mavjud bo'lib, bulardan eng mashhuri "*BEOWOLF*" dir. Bu eng qadimiy inglizcha epik qahramonlik she'r bo'lib, uni yozgan kishining ismi ma'lum emas. Ammo tilshunoslar fikricha bu asar bundan 1000 yillar avval yozilgan.

¹⁴ "Language Timeline", The British Library Board

¹⁵ "The Origin and History of the English Language", Kryss Katsiavriades

1. 3. 2. O'rta Asrlar ingliz tilisi

Ushbu davrni Angliyada fransuzlar istilosi davri deb ham yuritilib, istislochilar o'zi bilan birga fransuzcha so'zlashuvchi hokimlarni olib kirdi va fransuz tili davlat ahamiyatidagi asosiy, rasmiy til sifatida ishlatildi. Ingliz tili esa aholining past tabaqasi, oddiy xalq ishlatadigan tilga aylandi. 300 yil davomida ingliz tili juda o'zgardi, chunki u oddiy xalq tomonidan faqat og'zaki nutqda foydalanilib, yozma ingliz tili deyarli ishlatilmagan edi. Shuning uchun ham eski ingliz tili qo'llanila boshlandi. Uni ustiga turli fransuzcha so'zlar kirib kelib, bu tilni boyitdi ¹⁶

Masalan:

Crown, castle, court, parliament, army, mansion, gown, beauty, banquet, Art, poet, romance, duke, servant, peasant, traitor va *governor*.

Chorvachilik, dehqonchilik bilan oddiy aholi shug'ullanganligi uchun hayvon nomlari inglizcha (*cow, sheep, swine, deer*) ammo oshpazlar o'z vakillaridan bo'lganligi uchun go'sht nomlari fransuzcha nom bilan atalgan, masalan: (*beef, veal, mutton, pork, bacon, venison*) ¹⁷.

O'rta asrlar ingliz tilisi uchun eng maqbul misol bu Chauserning "The Canterbury Tales", Kanterberiy ertaklari bo'lib, bu ertaklar asosan 30 kishidan iborat bo'lgan ziyoratchilar guruhini Angliyaga safari haqidadir. Asar orqali XIV asr hayoti haqida juda ko'p ma'lumotlarni olsa bo'ladi ¹⁸

Zamonaviy Ingliz tili (1500 yildan hozirgi davrgacha bo'lgan ingliz tili).

Zamonaviy ingliz tilining paydo bo'lishi va rivojlanishi 1476-yilda William Kakston tomonidan birinchi bo'lib Westminster cherkoviga nashr qiluvchi uskunani o'rnatganligi bilan bog'lanadi. Aslida, 1450-yilda Jonan Gutenberg nashr qiluvchi uskunani yaratgan bo'lib, u Germaniyalik edi. Ammo Kakston birinchi bo'lib nashriyotni Angliyada tashkil qildi. Bibliya va shunga o'xshash qimmatli asarlar shu yerda chop qilindi. Chop qilish uskunasi yaratilishi bir turdagi kitoblarni ko'pchilikka yetib borishini ta'minladi. Natijada

¹⁶ "Language Timeline", The British Library Board

¹⁷ "The Origin and History of the English Language", Kryss Katsiavriades.

¹⁸ Расторгуева Т.А. История английского языка. – М.: 1983. – 341с.

kitoblar arzonroq bo'la boshladi, tabiiyki hamma o'qib o'rganishga qiziqib ketdi. Nashriyotni tashkil topishi ingliz tilida standartlik tushunchasini paydo qildi.

Mashhur ingliz yozuvchisi Vilyam Shekspir (1592-1616) zamonaviy ingliz tilida na'munalar yozgan dastlabki ijodkordir. Zamonaviy ingliz tilining ham o'z navbatida 3 qismga: Renissans davri ingliz tilisi, Inqilobiy davri ingliz tilisi va Britaniya koloniyalari davri ingliz tilisiga bo'lindi. Renissans davri eng ko'p grek va lotin tili so'zlarini ingliz iliga kirib kelishi bilan izohlansa, ayrim adabiyotlar bu davr Shekspir davri adabiyoti yoki Elizabetta erasi davri deb yuritiladi. XVIII asrlarda esa Inqilobiy ingliz tili davri lug'at boyligida yangi so'zlarni paydo qila boshladi, bular bevosita yangi kashf qilinayotgan texnika vositalari bilan bog'liq edi.

Masalan: (*trains, engine, pulleys, combustion, electricity, telephone, telegraph, camera*) va boshqalar ¹⁹.

Britaniya Imperiya sifatida XVIII asrdan XX asrgacha butun dunyo bo'ylab keng yoyildi va o'z navbatida hozirgi AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, va Osiyo, Afrika hududlarigacha yetib bordi. Imperiya xalqlari shu hududlarda keng tomir yozib, joylasha boshladi. Natijada yana yangi o'sha hududlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlar kirib ingliz tilini yana boyitdi. Ammo ingliz tilining grammatikasini asosini Anglo sakslar shakllantirgan bo'lsa, til grammatikasi german tillari kabi qolaverdi (he, she, it).

Hozirda jami 5 qit'ada so'zlashiluvchi ingliz tilining hayotiylik davomiyligi 4 asrdan oshadi. Koloniyalarning ta'siri haqida bir necha tarixiy misollar va faktlar keltirib o'tildi. Til rivoji bilan uning Grammatik, leksik, fonetik o'zgarishlarga uchraganligi ham aytib o'tildi ammo bu rivojlanishlar bu tildagi murakkab Grammatik til qoidalarini cheklab, yangi foydalanuvchilar o'zlariga osonroq shaklda tilni o'zlashtirganliklari ingliz tilini turli jihatlarining o'zgarishida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda tilning 4 asosiy guruhga ham bo'lib o'rganiladi. Bu guruhlar tilning geografik mintaqalararo o'zgarishi va

19 Иванова И.П., Чахоян Л.П. История английского языка. – М. 1976

turlanishi bilan bog‘liqdir. Hatto XII-XIX asrlar oralig‘i ingliz tilining tarqalish periodi deb atalib qirolicha Viktoria nomi bilan ham ingliz tilining til sifatidagi holati bog‘liqdir. Hatto xalq orasida *suyosh Britaniya imperiyasiga nur sochishdan hech qachon to‘xtamaydi* deya bu imperaya davomiyligi abadiy deb ishonishgan. Geografik nuqtai nazardan, hozirgi zamonaviy dunyomizda 4 asosiy qismga ajratiladi. Bular;

Britaniya orollari	Amerika
Anglya	AQSH
Uyels	Kanada
Irlandiya	Karib orollari
Afrika	Osiyo va tinch okeani
G‘arbiy Afrika	Janubiy va Janubiy
Sharqiy Afrika	Avstraliya va Yangi
Janubiy Afrika	Tinch okeani orollari

Ushbu jadvaldagi 4 guruhning eng asosiysi Britaniya va Amerika ingliz tilisi bo‘lib, boshqa variantlarning asosiga xizmat qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi va bu hududlar ichida eng ilg‘ori hisoblanadi.

Britaniyada ishlatiluvchi ingliz tilida butun dunyo uchun maqbul va oson bo‘lgan qabul qilingan talaffuz qoidalari bor bo‘lib, bu qoidalar tasnifida mashhur lingvist Daniyel Jonesning xizmatlari kattadir. U aytadi: *Qaysi jamiyat ingliz tilini o‘z jamiyati uchun qabul qilar ekan, standart talaffuz qoidalarini qabul qilishga majbur*”²⁰ shuningdek BBC ingliz tilisi, Oxford ingliz tilisi, Qirolicha ingliz tilisi kabi terminlar lingvistlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ular bu ingliz tililarni nomaqbul deb hisoblaganlar va standart ingliz tili uchun yagona til shakli va qonun qoidalari kerak deb hisoblaganlar. Va bu fikr hozir ham o‘z kuchida.

Amerika ingliz tilisida eng keng tarqalgani Umumiy ingliz tili va Xalqona ingliz tili ya’ni muomala ingliz tilisi bor. Amerikaning janubiy g‘arbiy qismlarida qadimdagi Karib dengiz hududlaridagi qulchilik ta’sirida bu

20 Crystal David. The Cambridge Encyclopedia of the English language. Cambridge University Press, 2003.

hududning ingliz tilisi markaziy va shimoliy Amerika til xususiyatlaridan farq qiladi.²¹

Ingliz tilining Amerika yerlariga kirib kelishining asosiy sababi koloniyalar tufayli bo'lib, bu XVII asr boshlariga taqaladi. Nafaqat Amerika balki butun dunyoga bu tilning tarqalishi Buyuk Britaniya imperiyasini o'sha davrlardagi kuchi va rivojlanishi tufaylidir. Britaniya koloniyalari XVI asrlardan boshlangan bo'lib XVIII va XX asrga qadar davom etdi. Tarixdan ma'lumki, , XVI asr so'ngida ingliz tilida 5-6 million kishi so'zlashar, ularning deyarli barchasi Britaniya orollari aholisini tashkil qilar edi. Britaniya dunyoning deyarli bir chorak qismiga egalik qilar va uning hududi Kanadadan Avstraliyagacha, Hindistondan Kariyb dengizi qirg'oqlarigacha, Misr, Shimoliy Afrikadan tortib Singapuracha borib taqalardi.

Garchi ingliz tili dastlab Shekspir davriga kelib o'z hududi Uels, Irlandiya, Shotlandiyada keng tarqalgan bo'lsada, 200 yildan so'ng 1780 yilda Jon Adams ishonch bilan ingliz tili Lotin va eski Fransuz tilidan keyingi butun dunyoga mashhur til sifatida tanilishini ta'kidlagan edi. 1852 yilda nemis tilshunosi Ekob Grimm ingliz tilini "*dunyo tili*" deb butun dunyoga jar soldi. O'sha davrlarda tilni koloniyalar ta'sirida keng tarqalishi madaniyat, san'at va savdo munosabatlarini ham keng yoyilishiga asos bo'lgan edi. Bu asosan Afrika va Osiyo davlatlarida sezildi. Lekin nafaqat ingliz tilini butun dunyoga ijobiy ta'siri balki boshqa til va millatlarning ham bu tilga ta'siri, ayniqsa til lug'at boyligini kengayishiga sabab bo'ldi²² Masalan, ingliz tiliga Hindchadan *bungalow-shampoo*, *candy*, *pyjamas*, Avstraliya qit'asidan esa *kangaroo*, *boomerang*, *budgerigar* kabi so'zlar ingliz tiliga kirib keldi va yangi termin sifatida bu tilni boyitdi. Natijada Yangi Ingliz tili atamasi keng ommalashib, turli qit'alardagi yangicha ingliz tilining variantlari qo'llanila boshlandi. Ammo shuni ham ta'kidlash kerakki, ingliz tilidagi ayrim so'zlarni yo'qolib

21 Trask. Dictionary of English Grammar. Penguin, 2000

22 Mugglestone, Lynda. The Oxford History of English. Oxford University Press. 2006

iste'moldan chiqib borib, boshqa qit'alarda saqlanib qolganligini kuzatish mumkin. Bu bir tomondan yaxshi, ikkinchi tomondan yomon ham edi.

Masalan²³: Shauser *taxmin qilmoq* - guess so'zini *think*- o'ylamoq ma'nosida ishlatgan ekanligini uchratish mumkin. Shunday misollardan bir nechta ko'rish mumkin. Masalan hozirda ham *fall* o'rniga *autumn* - kuz fasli ma'nosida, *homely*- *ugly* -hunuk, ko'rimsiz ma'nosida, *to loan-to lend*- qarz bermoq ma'nosida ishlatilishini uchratish mumkin. Tarixiylik ta'siri ushbu misollarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday misollardan bir nechta keltirish mumkin. Misol uchun: *corn* -don-dun ma'nosida hozirgi ingliz tilida juda keng qo'llaniladi. Ammo tarixdachi? Dastlab dukkakli o'simliklar uchun *grain* atamasi ishlatilgan bo'lib, u so'z bilan hamma dukkaklilar tushunilgan, bugungu kunda esa *corn*- *grain* so'zini o'rniga ishlatiladi va 100 foiz shu so'z ma'nosini beradi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning adabiy ingliz tilining hududiy variantlari tarixi, farqlari va alohida xususiyatlari bo'yicha yondashuvlarini umumlashtirib, shu sohaga oid tadqiqotlarga tayangan xolda, ingliz tilining hududiy variantlari ingliz tilida gaplashuvchi mintaqalarda o'ziga xos va mos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy rivojlanishlar xalqaro aloqalar, biznes, madaniy almashinuvlar ham bu tilning ta'siriga juda katta xissa qo'shgan. Britaniya lug'atlarida amerikanacha terminlar uchray boshladi, vaqtlar o'tishi bilan bu xolat odatiy til iste'molini keltirib chiqardi. Turli amerika filmlarini ko'rganimizda britancha ta'sirni, yoki Angliya filmlarida amerikanacha ingliz tilisini ufurib turishini sezamiz. Britancha so'zlarni Amerikada o'zining foydalanuvchilariga moslangan holatda ishlatilishi bu tilni variant holiga kelishiga ham sabab bo'ldi. Masalan ²⁴, Britaniyada *luggage* deb ishlatiluvchi atama-ya'ni yuk ma'nosida Amerikaga *baggage* bo'lib kirib keldi. Ma'no esa bir xil. Yoki britancha *smog* Amerika ingliz tilisiga tumanni anglatuvchi *fog* ma'nosida kirib keldi.

23 Антрушина Г.Б., Афанасьева О.В., Морозова Н.Н. Лексикология английского языка. -М.:1985
24 Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М.:1973.

II BOB. ADABIY INGLIZ TILINING MAHALLIY KO'RINISHLARI VA ULARNING TILDAGI AHAMIYATI

2. 1. Adabiy ingliz tilida shevalar, lahja, jargonlar va ularning ishlatilish o'rinlari va ahamiyati

Ingliz tilining rivoji va tarqalishi haqida so'z borar ekan, mashhur ingliz tilshunosi professor David Kristalning bu tilga bergan ta'rifi joizdir. U o'z fikrlarida aytadi: *"Ingliz tili global tilga aylandi. Chunki u o'zining munosib joyini munosib paytda topgan tildir"*. XXI asr boshida dunyo tilshunoslarining umumiy xulosalari ham bu fikrlarning yaqqol dalilidir. Eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra dunyoning 4 dan bir qismi mana shu ingliz tilda so'zlashar ekan. British Council likning ma'lumotlariga qaraganda butun dunyoning 375 million aholisi ingliz tilini birinchi til sifatida, 750 million kishi esa xorijiy til sifatida o'rganar ekan. Shuningdek 1. 5 milliard kishi allaqachon ingliz tilida mukammal so'zlashib, o'zlashtirgan hisoblanadi. Ingliz tilini mahalliy til bilan eng ko'p qorishtirib ishlatuvchi hudud bu Hindiston bo'lib, uning tarixiylik jihatdan ko'p davrdan beri ingliz tilining bu hududlarda hukmronligi bilan izohlanadi.²⁵

Ushbu bobda ingliz tilini umumiy mahalliy ko'rinishlari ya'ni bu tilda shevaga xos so'zlar, lahja, jargon so'zlarni ishlatilishi, ingliz tilining rasmiy va norasmiy ko'rinishlari, akademik ingliz tili, adabiy ingliz tili haqida so'z boradi. Shuningdek ingliz tilini o'qitishdagi normalar va qiyinchiliklar muhokama qilinadi.

Ingliz tili Nemis, xitoy, ispan tillari kabi plyurasentrik ya'ni ko'p variantli til hisoblanganligi uchun, uning hududiy turlari Amerika, Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada kabi mintaqalarni o'z ichiga olib, har bir hududning o'ziga xos shevaga xos so'zlari, rasmiy norasmiy shakllari, lahchalari mavjud. Tilshunos David Kristalning aytishicha, til bo'yicha ekspertman deb hisoblagan

Subcontinent Raises Its Voice, Crystal, David; Guardian Weekly: Friday November 19, 2004.

tilshunos ham ingliz tilida ishlatilayotgan g'alati ko'plik hodisasiga duch kelishi tabiiy. Masalan: *Englishes, persons* kabilar.

Ingliz tilini til sifatida o'rganar ekanmiz, unda mavjud bo'lgan shevaga xos so'zlar, lahchalar xilma xilligiga guvoh bo'lamiz. Shevaga xos so'zlar aynan ma'lum bir hudud yoki mintaqa kishilarigagina tushunarli va tanish bo'lgan so'zlar bo'lib, ular til rivoji va lug'at boyligining oshishida bevosita xizmat qiladi. Shuningdek, shevaga xos so'zlar adabiy til qoidalaridan yiroq faqatgina so'zlashuv uslubida ishlatilib, tilning adabiy normalariga bo'ysunmaydi. Ular standart ingliz tilidan grammatik, talaffuz, va lug'at tarkibi bilan farqlanadi. Aslida shevaga xos so'zlar asosiy 3 qismga: hududiy shevaga xos so'zlar, klassik ya'ni faqat aholining yuqori yoshdagi eski avlod vakillari ishlatuvchi shevaga oid so'zlar va adabiyotda ham ma'no nozikliklari uchun ishlatiluvchi shevaga doir so'zlarga bo'linadi.²⁶ Hech shubha yo'qki, standart ingliz tilida asosiy ijtimoiy o'rinni egallovchi bu shevaga xos so'zlar ya'ni dialektlardir. Standart ingliz tili ham dialektlardan shakllangan bo'lib bu ta'lim, fan va rasmiy idoraviy uslub namunalarida namoyon bo'ladi. Bular nostandart dialektlar va standart dialektlarga ham bo'lib o'rganiladi.

Masalan; *Woman who taught us* - ushbu gap standart dialekt ya'ni qonun qoidalar asosida yozilgan ko'rinishi bo'lsa;

Bular esa nostandart ingliz tilining dialekt ko'rinishlari:

The woman what taught us;

The woman as_ taught us,

The woman at taught us,

The woman which taught us

Ushbu gaplardan turli grammatik shakllar bilan yozilgan gapning ma'nolari bitta aslida, lekin qonun qoidalari har xil xolos.

Dialektlardan tashqari ingliz tilidagi turli aksent ko'rinishlari ham mavjuddir. Bu ham tilning turli variantlarida turlicha. Aksent tildagi tallafuz qoidalarini turlichaligi bilan izohlanadi. Dialektda qaysidir ma'noda grammatik

26 Маковский М.М. Английские социальные диалекты. -М.:1982.-71с

qoidalar mavjud bo'lib, mahalliy lug'atni ham shakllantirgan bo'ladi. Lekin standart ingliz tilida ammo o'zining mahalliy aksenti bilan gap gapirish mumkin. Shu jihatdan aksentni bu tildagi tabiiy, to'xtatib bo'lmas, ammo o'zgartirsa rivojlantirsa bo'ladigan jarayondir. Faktlarga ko'ra, Standart ingliz tilida so'zlashuvchi aholining 3 yoki 5 foizigina mahalliy aksentlarsiz gapiradi. Bu esa aksentsiz standart ingliz tili bo'lishi mumkin emas degan fikrga yaqqol dalildir. Aksentsiz standart ingliz tilida gaplashuvchilar aksentlari ingliz tilisini ba'zida BBC ingliz tili aksenti deb ham atashadi. Shuningdek mahalliy va ijtimoiy dialektlar va aksentlarning ham turlari, foydalanish joylari va uslublari bor.

Mashhur tilshunos Trudgill ingliz tilida mavjud bo'lgan dialektlarni ikki qismga; *Traditional dialects* - ya'ni aholining yoshi katta qatlamlari tomonidan ishlatiladigan, va asosan qishloq hududlarda foydalaniladigan dialektlar va *Mainstream dialects* - aholining yoshi kichik ya'ni o'rta yosh vakillari tomonidan, shaharlarda yashovchilar tomonidan ishlatiladigan va standart ingliz tiliga ancha muncha yaqin ko'rinishdagi dialektlarga ajratgan.

Traditional dialects - aslida bu kabi dialektlar juda ko'p bo'lib, kundan kunga kamayib, o'z o'rnini yosh avlod vakillari dialektlariga bo'shatib bermoqda. Ammo ularning asosiy xususiyati shundan iboratki, standart ingliz tilidan juda uzoq, ammo bir biridan juda ham farqli.

Mainstream dialects - asosan yosh avlod, shahar hududlarida yashovchilar tomonidan ishlatilib, bir biriga juda o'xshash va yaqin. Lekin standart ingliz tiliga ham juda yaqin. Masalan:

Hoo, inna going. Her bain't a goin. -Ushbu gap traditional dialect ga misol;

Bular esa: *She's not going/ she isn't going/ she ain't going* – *Mainstream* dialektga misoldir.

Ko'rinib turibdiki, bular standart ingliz tiliga yaqin, deyarli bir xil. Dastlabki ikkitasi standart ingliz tili, uchinchi esa nostandart ingliz tilidir.

Talaffuzda ham turli farqli tomonlarni ko‘rish mumkin. Mamlakatning turli qismidagi ishlatilayotgan dialektlar ham talaffuz qoidalariga ko‘ra turlicha. *Mainstream dialect* - yosh avlod vakillar dialektlarni farqlarini quyidagicha izohlash mumkin.

1) Angliyaning markaziy va shimoliy qismlarda, Uyelsning ayrim qismlarida talaffuzga ko‘ra qofiyalanishni uchratamiz. Masalan; put va but, bular qofiyadosh, foot, could, push so‘zlari talaffuzida bir xil unli tovush jaranglaydi. Ammo shimoliy Irlandiyada esa put va but so‘zlari ^{27 28} qofiyadosh hisoblanmaydi. Chunki ularda eshitilishida turlicha unlilar uchraydi.

2) Janubiy Angliyaning Lankshayr, Shotlandiya va Irlandiyada *r* tovushi car kabi so‘zlarida talaffuz qilinadi. Angliyaning boshqa qismlarida esa ushbu *g* tovushi talaffuz qilinmaydi.

3) Angliyaning va Uyelsning ko‘p qismlarida mahalliy aksent tufayli so‘zlardagi *h* tovushi deyarli talaffuz qilinmaydi. Masalan; *hat, hill, like, house* va boshqalar. Irlandiya, Shotlandiya, Durham va sharqiy Angliyada esa *h* tovushi ancha muncha so‘zda mavjudligi tovushda eshitiladi.

Ammo *Traditional dialect* - klassik dialekt turlarida bor bo‘lgan talaffuz qoidalarining ayrimlari yosh avlod aksent va dialekt qoidalarida uchramaydi ²⁹ ³⁰. Masalan:

1) Angliyaning janubiy g‘arbiy orollarida *f, s, sh* tovushlari *v, z, zh* tarzida talaffuz qilinadi. Masalan, *farmer* so‘zi *varmer* tarzida, *Somerset* esa *Zomerzetant, sheep* esa *zheep* tarzida.

1) Shotlandiyaning quyi qismida, shimoliy Irlandiyada, Kumbriya, Durham, shimoliy Yorkshayrda *long, wrong, song* kabi so‘zlar *lang, rang, sang* deb talaffuz qilinadi.

2) Shotlandiyaning quyi qismlarida va shimoliy Irlandiyada esa *light, right, night* kabi so‘zlar *licht, richt, nicht* kabi talaffuz qilinib, nemis tili

27 Wakelin, Martyn Francis. *Discovering English Dialects*. Oxford: Shire Publications. 2008. p.4

28 Smith, Jeremy. *An Historical Study of English: Function, Form and Change*. London. 1996.

29 Маковский М.М. *Английские социальные диалекты*. -М.:1982.-68с

30 Wells 2006. "Accents of English". P. 595/

tovushlarini eslatadi. Kumbriya, Durham, Yorkshayrda esa neet, leet, reet deb talaffuz qilinadi.

Yuqoridagi misollar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini til sifatida shakllantirgan omillar va rivojlantirgan xususiyatlar juda ko'p. Shu o'rinda savol tug'iladi, nega endi shevaga xos so'zlar, jargonlar ham til o'rganuvchilar tomonidan diqqat e'tibor bilan o'rganiladi? Farqlari til o'rgatuvchi tomonidan tushuntiriladi? Chunki til o'rganuvchi uchun standart ingliz tilining o'zi yetarli emasmi? Bu borada, fikrlar xilma xil. O'zbek tilida ham jargon va shevaga xos bo'lgan so'zlar juda ko'p, va ularni o'rganish ham til tarixini bilishda, eng nozik xususiyatlarini anglashda yordam beradi. Dastlab ingliz tilida Slang - shevaga xos so'zlarni taxlil qilish joiz. Jargonlar asosan norasmiy til ko'rinishi bo'lib, asosan mahalliy so'zlashuv nutqida keng ishlatiluvchi va mana shu hudud kishilariga tushunarli bo'lgan so'zlar, iboralar yig'indilarini tashkil qiladi. Jargonlarni ishlatish nutqni aniqroq, boyoqdorroq, va ma'lum ma'noda qiziqroq bo'lishida yordam beradi. Hatto ba'zan og'zaki nutqdagi jargonlarni ommaviy axborot vositalarida ham uchratish mumkin. O'sha tilning mahalliy til so'zlashuvchisi bo'lmagan kishi uchun jargonlarni shartta ishlatish ba'zan to'g'ri emas. Chunki, ayrim jargonlar ayrim kishilar uchun salbiy ma'nolar kasb etgani uchun, ishlatish ancha noqulayliklar tug'diradi. Masalan, *policeman* - polisiya xodimi uchun og'zaki nutqda *coppers* - so'zi ishlatiladi, bu so'z bu kasb egasi uchun unchalik salbiy ta'rif emas, ammo *pigs* jargonini ishlatish esa juda qo'pol va albatta bu kasb egalarini hafa qilishi turgan gap. Bu kabi misollar bir nechta ³¹ Shuningdek davrlar haqida ham jargonlar bor va ular asosan yoshi kattalar tomonidan yaxshi tushuniladi va ishlatiladi.

Masalan: *pre-war* -urushdan avvalgi yillar - *top-hole* deb ya'ni dastlabki davr, eng avvalgi yillar ma'nosida ishlatiladi. 1980 yillar esa og'zaki nutqda *wicked* - ya'ni eng so'nggi, zo'r, ajoyib davr ma'nosida ishlatilgan.

Jargonlarni foydalanuvchilar yoshiga ham saralash oson va taxlil qilish ancha qulay. Televideniyada, ommaviy axborot vositalarida, kino filmlarda juda

31 Маковский М.М. Английские социальные диалекты. -М. :1982

ko‘p jargonlar ishlatiladi, ammo ularni yaxshi tushunmay va anglamay turib foydalanish tavsiya etilmaydi. Quyida bir qancha eng ko‘p tarqalgan slang larni ko‘rib chiqsak;

Masalan: Money- pul - *dough, dosh, bread, loot, brass, spoondoolicks*
O‘zbek tilimizda ham pul so‘zi uchun ajoyib jargonlar mavjud; *soqqa, ko‘kidan, mullajiring*.

Police -polisiya xodimi- *pigs (juda qo‘pol), coppers, fuzz, bill* (o‘zbek tilida *archa, ment*)

Stupid - Ahmoq- *wally, prad, jelly, pillock* (o‘zbek tilida- *tentak, dovdir, dubbul*)

Jargonlarni o‘rganish juda qiziq, ayrim holatlarda foydalanuvchilarni o‘zigina tushungani uchun, ayrim jargonlar ataylab sir saqlash, yoki aytmoqchi bo‘lgan narsani yashirish maqsadida ham ishlatadi. Masalan; yuk mashina haydovchilari o‘rtasida quyidagi jargonlar qo‘llaniladi;

Grandma lane-slow lane - sekin yuriladigan tor ko‘cha

Doughnuts-tires -shina g‘ildiraklari

Motion lotion-fuel -yoqulg‘i

Anklebites-children –bolalar ³²

Super cole-beer -piva

Affirmatives-yes -ha **Eyeballs**-headlights -chiroqlar

Five finger discounts-stolen goods -o‘g‘irlangan tovarlar ³³

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, so‘zlar o‘zining asl ma’nosidan boshqacharoq ma’nolarda ishlatilyapti. Ammo muammmoli tomoni shundayki, bu soha egasi bo‘lmasangiz biror taxlil va tushuntirishsiz darrov tushunish juda qiyin.

Jargonlar tildagi alohida xususiyatlar bo‘lib, undan voz kechishning sira imkoni yo‘q. Yaqinda Amerikaning “*Hot English Magazine*” jurnalining 124 sonida ajoyib maqola chop etildi. Maqola “*Should slang be banned?*”

32 English Vocabulary in Use, Upper - Intermediate. Unit 42.

33 Milwaukee. Dialect Survey-Level of a building that is partly or entirely underground. University of Wisconsin. Retrieved 2008-06-17.

“*Jargonlar ta’qiqlanishi kerakmi?*” degan nom ostida chop qilindi. Unga ko‘ra Angliya va Amerikaning juda ko‘p maktablarida o‘quvchilarni standart ingliz tilida foydalanishlarini ta’minlash maqsadida, jargonlarni nazorat qilish va ishlatilishlarini kamaytirish uchun jargonlar ta’qiqlandi. Angliyaning Yuqori Norvudsdagi Harris Akademiyasi maktabida talabalarning *cuz’(because)* *yeah(yes)* *ain’t (isn’t /aren’t)* kabi jargonlarni ishlatish taqiqlandi. Maktab devorlariga ta’qiqlangan so‘zlar ro‘yhati va eslatmalar osildi. Hatto, ota onalarga ham bu qaror haqida tushuntirishlar aks etgan xatlar jo‘natildi. Bundan ota onalar ham, bolalar ham ‘nega?’ degan savol bilan murojaat qilganliklari tabiiy. Chunki o‘qituvchilar kuzatishlari bo‘yicha shu kabi jargonlar bolalar yozma nutqida ham paydo bo‘layotganligi, xatto juda keng qo‘llanilayotgani maktab ma’muriyatini tashvishga solayotganligi aytib o‘tildi. Bolalar shu holda davom etsalar, kelajakda ular standart ingliz tilidan emas balki o‘zlari uchun qulay bo‘lgan jargonlardan foydalanishga, hatto ularni farqlamay ishlatilishiga ham sabab bo‘ladi.

“*Biz ularni til qoidalaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatmas ekanmiz, ular qanday qilib ishga kirish uchun ariza, tushuntirish xati, kafolat xati kabilarni yozishlari mumkin.*” - deydi o‘qituvchilardan biri. Jargonlarning asosiy sababi va manbai- kino, seriallar, shoular, qo‘shiqlar, ijtimoiy tarmoqdagi suhbatlar ekanligi juda tashvishli, ayniqsa ijtimoiy tarmoqda deyarli standart ingliz tilidan foydalanilmaydi, va istalgancha tildan foydalanish kuzatiladi. Xatolar esa hech kim tomonidan tekshirilmaydi, tanqid qilinmaydi.

Shuning uchun ham *what* o‘rniga *wot*, *that* o‘rniga *dat*, *going to* o‘rniga *gonna*, *want to* o‘rniga *wanna*, *with* o‘rniga *w* ishlatilish holatlari uchraydi. Shuningdek maqolada tilshunos ekspertlar tilni nazorat qilishning natijasi samarasiz, chunki til ayniqsa ingliz tili juda o‘zgaruvchandir deb fikr bildirishadi. Chunki til foydalanuvchilari ingliz tilini tez va oson o‘zlashtiradi. Shuning uchun ham u global til bo‘lib shakllangan. Bu tilning shu darajada ommalashib ketganligining sababi ham, uning tez o‘zlashtirilishidadir deb aytadi. Dunyoda tilni nazorat qiluvchi hech qanday tashkilot yo‘qki, jargon,

ko‘cha so‘zlari, dialektlarni tartibga solsa va ishlatishni taqiqlasa. Shunday ekan jargonlarni ishlatish va ishlatmaslik til o‘rganuvchining intellektual qobiliyati va bilimiga bog‘liqdir. Ishlatgan holatda ham ishlatish o‘rni va joyini bilib ishlatlsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki “war” so‘zi slang holatda ishlatilsa sizni tashvishga soladimi yo‘qmi? Yo‘q albatta chunki bu so‘z faqat qarshilik bildirish ma’nosida ishlatilishini bilib turibsiz. Shunday ekan slang - jargonlarni ishlatish unchalik “xayfli” emas.

Ammo, til o‘rgatuvchidan biroz tildan foydalanishdagi qattiqqo‘llik va til qoidalariga amal qilishlikni tushuntirish talab etiladi.

Ushbu maqolada Britaniyada keng qo‘llaniluvchi jargonlarni ma’lum kategoriyalarda berib taxlil qilingan. Mahalliy tilda so‘zlashuvchilar tomonidan tushuniladigan shu kabi so‘zlar boshqa til o‘rganiluvchilar tomonidan ham o‘rganilishi kerak. Shu kabi jargonlar bilan tanishish va hech bo‘lmaganda ishlatilayotgan vaziyatdan kelib chiqqan holatda tushuna olish ham mahoratdir. Chunki biror jargonni noto‘g‘ri ishlatish natijasida kimnidir hafa qilish, nafsoniyatiga tegish va o‘zingiz bilmagan holatda haqoratlash ham mumkin. Maqolada yuqorida dialektlarni ham ikki avlod vakillari tomonidan ishlatilishi aytib o‘tilgan edi. Maqolada ham jargonlarni tushunishning eng yaxshi yo‘li sifatida ko‘proq filmlar tomosha qilish kerak va bu albatta tahlil qilgan holatda bo‘lishi kerak.

Jargonlarni hayotiy misollar bilan tahlil qilish, ularni asl ma’nolarini tushunishda yordam beradi. Ushbu jadvalda bir vaziyatda ishlatiladigan jargonlar, rasmiy, norasmiy shakllari bilan tasniflangan.

Vaziyat	Rasmiy holatda	Neytral, oddiy holatda	Norasmiy holatda
Do‘stingizni doim nimadir esidan chiqadi	She is somewhat absent minded	She is really forgetful	She is the feather brain/She is a scatterbrain

Siz o'tirishdasiz va vaqtni allamahall bo'lganini sezmay qoldingiz.	I was quite unaware of how time had passed	I didn't realize what time it was	Oh, I completely lost the track of time.
Siz ko'rgan film juda yoqdi va do'stingizga aytyapsiz.	It really impressed me	It was increadible	It was out of this world!/It was awesome.
Siz biror qizni qo'lini so'radingiz va buni do'stingizga aytib beryapsiz	I asked her for hand in marriage	I asked her to marry me	I went down on one knee/I popped the question
Kimnidir tinchlantirish uchun	Please make an attempt to enter a state of repose	Calm down!	Chill out! Don't get your pantyhose in a bunch
Do'stingiz sira pul sarflashni yoqtirmaydi	He is reluctant to part with his money.	He is a bit mean.	He is real Scrooge. /He is real miser/mean.
Dam olish kuningiz juda zerikarli o'tdi va hech nima qilmadingiz.	I was unoccupied all weekend.	I had nothing to do all weekend.	I was twiddling my thumbs all weekend.
Kimdir ofisingiz derazasini sindirdi, va siz buni kimto'lashi kerakligini aniqlamoqchisiz.	Who is going to contribute the cost incurred?	Who is going to pay for this?	Who's gonna pick up the tab for this?


Xulosa o'rnida aytish mumkinki, standart ingliz tilimi yoki nostandart ingliz tilimi ikkovi ham ingliz tilining formasidir. Ular foydalanuvchilar tomonidan ishlatiladi va yaratiladi. Shunday ekan, davr o'tishi bilan jargonlar ham ko'p foydalanilganli uchun standart ingliz tilidagi so'zlar qatoridan joy olishi hech gap emas.

2. 2. Adabiy ingliz tilini o'qitishda so'zlarning semantik, leksik, morfologik va grammatik xossalari

Hozirgi kunda ingliz tilida qancha so'z mavjud? Bu savolga aniq raqamlar bilan javob berish mumkinmi? Butun dunyo *GLOBAL LANGUAGE MONITOR* ta'kidlashicha ingliz tilida 2 milliondan ortiq so'z bor. Ammo aslida aynan mana shuncha deb raqam bilan tildagi so'zlar sonini ko'rsatish mumkin emas. Chunki ingliz tilida bir dona so'z predloglar bog'lovchilar, chiziqchalar bilan boshqacha ma'nolarni ham berishini, yangicha so'zlar yasallishini yaxshi bilamiz. Chunki tildagi qaysi belgi yoki birikma yakka so'z sifatida sanallishini va qaysi holatda sanallishini bir so'z bilan aytish qiyin. 1989 - yilda oxirgi marta nashr qilingan, *Oxford English dictionary* ingliz tilining asosiy lug'at boyligi jamlangan lug'at kitobi hisoblanib, 615. 000 tub so'zlarni o'z ichiga oladi va o'z navbatida so'zlar o'zlaridan 300. 000 dan ortiq qo'shimcha ma'nodagi so'zlarni ham jamlaydi. Ushbu lug'at o'z ichiga ilmiy atamalar, shevaga xos so'zlar, jargonlarni ham oladi. Ammo yangi tilga kirib kelgan so'zlar, texnik ilmiy so'zlarning ayrimlari bu lug'atdan joy olmagan. Shunday ekan shu kabi ko'p variantlarga ega bo'lgan tilni taxlil qilish juda qiyin. Chunki Shekspir asarlarini o'zi 16. 000 dan 30. 000 gacha bo'lgan so'zlarni, "Kings James Bible" asarida esa 7000 dan 10. 000 gacha bo'lgan so'zlarni o'z ichiga olgan. Ingliz tili esa butun dunyo bo'ylab tarqalgan xalqaro til bo'lsa, uning so'z miqdori haqida muhokama qilishning o'zi murakkab. Savodli ingliz tilida gaplashuvchi kishi o'rtacha 15. 000 dan 20000 gacha so'z boyligiga ega bo'lsa, bularning atigi 10 foizigina bir haftalik nutqida ishlatishi mumkin ekan. Ingliz tilini 2 - til sifatida o'rgangan va ishlatadigan kishilar esa bilgan so'zlarining 25 foizini doimiy ishlatar qolgan qismlari esa deyarli ishlatilmas ekan.^{34 35}

Ushbu chizma, ingliz tiliga kirib kelgan so'zlarning aniq hisob kitoblar asosida taqsimlanishi asosida yaratilgan bo'lib, unda ingliz tilida mavjud so'zlar kelib chiqishi haqida yaqqol ma'lumotlarni bilsa bo'ladi.

³⁴ Crystal, David 2003. "The Cambridge Encyclopedia of English language". Cambridge University Press.



Leksik jihatdan ingliz tiliga 120 dan ortiq tillardan soʻzlar kirib kelgan. Yuqoridagi chizmadan maʼlumki, zamonaviy ingliz tilida nemis, lotin va fransuz tilining taʼsiri koʻp boʻlib 26-29% foizni tashkil qiladi. Boshqa tillardan kirib kelib, tilda foydalanishga moslashgan soʻzlar masalan; *sport, golf, weekend, hotel, bar, airport* kabilar universal soʻzlar hisoblanadi. Ammo soʻzlar kirib kelar ekan, biroz leksik, semantik, morfologik oʻzgarishlarga ham uchraydi. Masalan; *herkot - ukraincha* boʻlib, ingliz tilidagi *haircut* ning koʻrinishidir, *ajskrym - polyakcha* boʻlib *ice cream* uchun ishlatiladi. Yoki, *jinsi* rus tilidan ingliz tilidagi koʻrinishi *jeans*, yebashryup-champion(ingliz tilida).

Tillardan tillarga koʻchib yuruvchi soʻzlarda oʻxshashliklar shu asnoda uchrab turadi.^{36 37}

Til oʻrganishda hamisha avvalo til tarixi oʻrganiladi va unga koʻra soʻzlarni kelib chiqishi, xossalari taxlil qilinadi va maʼno nozikliklari muhokama qilinadi. Yangi til oʻrganishni boshlagan kishi avvalo tilning eng dastlabki daraja boshlangʻich lugʻat boyligi va grammatik qoidalarini oʻrganadi. XX asrgacha ingliz tiliga Fransuz tilidan kirib kelgan soʻzlar juda koʻp boʻlgan. Ammo fransuzlarning 5 foiz soʻzlari ham anglisizm yaʼni ingliz tilidan kirgan soʻzlardir. Masalan; *rosbif-* (roasts beef) fransuz tilida 350 yillardan beri, *oust(west)* soʻzi esa 700 yillardan beri bor. Ammo fransuz tilida ham *le meeting*,

³⁶ Durkin, Philip. Global English , Oxford English Dictionary, 2007.

³⁷ Coulmas, Florian; Richard J. Watts. Sociolinguistics: The study of speaker's choices. Cambridge University Press, 2006.

le shopping, le babysitter, le self-service kabi ingliz tilidan kirgan ko'plab so'zlar mavjud.

Shuningdek, ingliz tili sinonimik va antonimik, so'zlarga juda boy. Masalan *fine* so'zining 14 ta sifat shaklidagi tarifi, 6 ta ot sifatidagi ma'nosi, 2 ta fe'l shakli, va 2 ta ravish bo'lib kelishi kuzatiladi. *Round* so'zi esa 12 ta holatda sifat bo'lib, 19 ta holatda ot bo'lib, 12 ta ma'noda fe'l bo'lib, 1 ta fe'l bo'lib, 2 ta predlog bo'lib ishlatilishi juda qiziq. Yoki *set* so'zini-58 ta ot ma'nosi, 126 ta fe'l ma'nosi, 10 ta sifat ma'nosi borligi hamisha tilshunoslar va til o'rganuvchilarni hayratga solib kelgan.³⁸

Tilda ishlatiladigan faol so'zlar bilan birgalikda nafaol, bora bora iste'moldan chiqib borayotgan so'zlarni ham uchratish mumkin. Masalan: *inept, ineffable, incorrigible, disgruntled, disheveled, unkempt* - kabi so'zlar dastlab ishlatilgan, ammo keyinchalik noma'lum sabablarga ko'ra iste'moldan chiqib ketgan.³⁹

Tilda odatda vaqt o'tishi bilan ma'no ko'chishlari ham uchraydi. Bular kontronim lar deb atalib, masalan; *sanction* (conflict ya'ni qarshilik - ruxsat olish ma'nosida, ammo hozirda biror narsa qilishdan himoyalaniş yoki oldini olish ma'nosiga ko'chgan).

Talaffuz qoidalariga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz tili tillar orasida alohida talaffuz qoidalariga ega bo'lgan til hisoblanadi. Qadimiy ingliz tili 90 foiz fonemik (ya'ni so'zlar ko'proq yozilishiga yaqinroq talaffuz qilingan bo'lsa) zamonaviy ingliz tili 40 foiz miqdorda aytilishi yozilishiga yaqin. Va bunga ko'ra yuzlab to'g'ri talaffuz qoidalari bu qoidalarga bo'ysunmaydigan bir nechta istisno qoidalar ham mavjud. Talaffuz qoidalari va to'g'ri yozish uslublariga ko'ra ham ingliz tilini British va Amerikan ingliz tili qilib ajraganligi hammaga ma'lum. Masalan; *realize-realize, center-centre*. Shuningdek ingliz tilida 40 -50 ga yaqin turli tovushlar bo'lib, ularni talaffuz qilishni 200 dan ortiq yo'llari bor.

³⁸ Coulmas, Florian; Richard J. Watts. "Sociolinguistics: The study of speaker's choices". Cambridge University Press, 2006

³⁹ Расторгуева Т.А. История английского языка. -М. :1983

Masalan; “sh” tovushuni *-shoe, sugar, passion, ocean, champagne* soʻzlarida, choʻziq “o” tovushini esa *go, show, beau, sew, doe, though, depot* soʻzlarida, choʻziq “ye” tovushini esa *me, seat, seem, ceiling, siege, people, key, machine, phoenix, paediatric* kabi soʻzlarda shu kabi har bir tovush uchun alohida soʻzlar misol tariqasida birma bir oʻrganiladi. ⁴⁰

Til oʻrgatish jarayonida dastlab faqat talaffuz qoidalari chuqur oʻrgatilmaydi, ammo misollar bilan tushuntirishga toʻgʻri keladi.

Oʻrganuvchilar orasida shu kabi koʻplab savollar tugʻiladiki, til talaffuz qoidalari boʻyicha juda koʻp tushuntirishlar berilishiga talab qilinadi. Leksik grammatik tomondan Britanacha va Amerikanacha ingliz tilining farqli jihatlarini ushbu misollarda koʻrish mumkin. Masalan; *to ride a bike, a horse* - Britanacha, ammo amerikanacha variantda *to ride on the train, to ride on a boat* kabi misollarda leksik farqlar koʻrinadi. Stilistik shakllarda ham bir qancha farqlar bor. Masalan; *politician*- britanacha ingliz tilida siyosatga aloqador, siyosatchi maʼnosi tushunilsa, amerikanacha ingliz tilida esa haqoratomus, kishini nafsoniyatiga tegadigan soʻz maʼnosida ishlatiladi. Amerikanacha ingliz tilining morfologik va leksik yana bir farqli xususiyati unda qisqartmalardan juda koʻp foydalanishdadir. Masalan; *moment-mo-(da^u^a) tarzida, cert, circs-circumstances* kabi qisqartirilib ishlatiladi.

Predloglarni ishlatishdagi farqlar: ⁴¹

Masalan:

I start my holiday on Friday. (BE) - I start my vacation Friday. (AE) a quarter to five (BE) - a quarter of five (AE) to chat to smb (BE) - to chat with smb (AE)

Grammatik jihatdan;

Do you have a car - Amerikanacha varianti- yordamchi feʼl *do* yordamida yasalgan gap? *Have you time?* Britanacha ingliz tili varianti boʻlib, grammatik qoidalaridan yiroq holatda, ogʻzaki til koʻrinishida ishlatiladi va tushuniladi.

40 Абдуазизов А.А. Хозирги инглиз тили назарий фонетикаси.- Т. :1986.- 46с

41 Швейцер А.Д. Литературный английский язык в США и

Demak, Britanча ingliz tili hamisha ham mukammal til qonun qoidalari asosida mavjud emas.

Shu o'rinda pidgin ya'ni muomala ingliz tilisi haqida ham eslatib o'tish kerak. Pidgin lar turli tilda gaplashuvchilar tomonidan yaratilgan biror kichik til turkumi bo'lib, bu jarayon suhbat jarayonida kutilmaganda yaratilishi mumkin. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri grammatikasi juda oddiy, sinonimlardan holi, ko'pi bilan 1500 tacha so'z mavjud bo'lgan kichik til. Masalan, xitoylik tadbirkorlik qilish maqsadida ingliz tilidagi eng kerakli bo'lgan so'zlar bilan, oddiy sodda gaplar bilan o'z fikrini bildirishi mumkin. Shu til pidgin deb yuritiladi. Ularda bir dona fe'l butun gapni anglatishi ham mumkin.

Masalan; Deal - kelishdik, roziman, tushundim kabi ma'nolarda ifodalanadi. Aslida *pidgin* xitoychadan olingan so'z bo'lib, tadbirkorlik ma'nosidagi til deb tushuniladi. Shuning uchun ham pidgin ni biznes tili deb ham yuritiladi.

Ingliz tilini hozirgi ko'rinishga kelguniga qadar tarixiy jarayonlarda bajarilgan bir necha islohatlar ham til tarqqiyoti uchun arzirli. Ko'plab yozuvchilar davlat arboblari va hukumat vakillari tilni soddalashtirish va ommalashtirish yo'lidagi ishlari standart ingliz tilini hozirgi ko'rinishga kelishida juda ahamiyatli.

Mashhur yozuvchi Bernard Shou ingliz tili haqida o'z fikrlarini bildirib "Amerika va Britaniya umumiy bir til bilan ikkiga ajralgan alohida davlatlardir" deya izohlaydi. Chunki tildagi variantlardagi farqli jihatlar yozuvchilar ijodida ham bir necha o'zgarishlar va farqlar bo'lishiga ham sababchi bo'lgan. 1760 yillarda esa Benjamin Franklin ingliz tili tovushlar tizmida yangiliklar qilinishi kerakli davr talabi deya muhim *c*, *w*, *y* va *j* harflarini muhim bo'lmagan tovushlar deb baholagan va 6 ta yangi tovushni til alifbosiga qo'shish kerakligini taklif qilgan. (keyinchalik Noah Vebster va Mark Tveyen ham shunga o'xshash fikrlarni aytganlar).

Keyinroq esa Tomas Jefferson va Noah Vebsterlar standart ingliz tili bir kun kelib alohida til bo'lib ajralib chiqishi mumkin degan farazlarni ham aytib

o'tishgan. XIX asrlarda ingliz tilishunosi Genri Svit shu asr so'ngida Angliya, Amerika va Avstraliya bu tilni rivojlantiruvchi variantlarning eng asosiysi bo'lib qoladi va Amerika ingliz tilisi o'z ustunligiga erishadi deya bashorat qilgan edi.

Noah Vebster amerika ingliz tilisidagi talaffuz qoidalarini bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'zining "The American Spelling book" (1788 yil) to'plamida bayon qilgan. 1788 va 1829 yillar orasida 300 dan ortiq nusxada chop etilgan ushbu lug'at mashhur Bibliyadan so'ng eng ko'p sotilgan nusxadagi asar hisoblanadi.

Ushbu asarning bevosita davomi hisoblangan "The Compendious Dictionary of the English language" (1806 yil) va "the American Dictionary of the English language)" (1828 yil) asarlar ham o'zining ommabopligi bilan hammani lol qoldirdi. Vebster lug'atida so'zlardagi, talaffuz qoidalaridagi o'zgarishlar va so'zlardagi ikki til o'rtasidagi farqlar, masalan; theatre-theater, center-centre kabi farqli so'zlar muhokamasi yaxshi izohlar bilan yoritilgan.

Ammo, Vebster Britanica va Amerikanica ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qoidalarini to'g'ri tahlil qilish uchun mas'ul edi. Chunki, agar u tartiblashda xatolikka yo'l qo'ysa, uning kitobidan noto'g'ri ko'rinishda o'rganib olishlari va natijada tildagi xato kamchiliklar kelib chiqishi mumkin edi.⁴²

Masalan:

Traveler-traveller

Jeveller-jeweller

Honor-honour

Aluminum-aluminium

Defence-defense

Shuningdek u tilda shakllanayotgan yangi so'zlar to'grisida ham aytib o'tgan bo'lib, Masalan;

Appreciation Accompaniment

Expenditure Demoralize

42 Noah Webster. "The American Spelling Book" (first published in 1788).

Shuningdek, tilda bor bo'lgan bir necha so'zlar foydalanishda voz kechilayotganligi, ya'ni ularni ishlatish kamayib borayotganligi ham izohlar bilan aytib o'tildi ⁴³

Masalan: *Wimmen Fugiby*

Tuf Fantom

Groop Croud

1847- yillarda aka - uka tilshunoslar Merriumlars Vebster lug'ati uchun chop etish huquqini sotib oldilar va 1847 yilda o'zlarining qayta ko'rib chiqilgan variantlari Merriam Webster dictionary ni ommaga taqdim qildilar. 1906 yili Amerikalik filantropist Endryu Karnegi Vebster bo'yicha biroz yangiliklar qildi. U o'zining katta mablag'ini til rivojiga sarflashga harakat qildi, Uning asosiy maqsadi tilni murakkablikdan biroz soddalashtirish va tildagi bu kabi qiyinchiliklarni yo'q qilish edi. Masalan; *judgement, catalog, program* kabi so'zlar soddalashtirilgan ingliz tilining eng dastlabki ko'rinishlari edi. ⁴⁴

Davlat rahnamolari ham davlat tiliga aylanib bo'lgan standart ingliz tiliga befarq emas edilar, ular ham til rivoji yo'lida bir necha islohotlarni amalga oshirdilar.

Prezident Teodor Ruzvelt bu kabi tildagi soddalashtiruvchi islohatlar va yangiliklarga xayrixohligini bildirib, ommaviy axborot vositalarida ham shu kabi sodda ingliz tilini ishlatilishini ta'minlovchi qarorlar qabul qildi. Soddalashtirilgan ingliz tili nega juda muhim edi? Degan savol tug'iladi. Masalan; tasavvur qilib ko'ring, agar biz hozir Alisher Navoi davri tilida gaplashsak va davlat tili shu asosda bo'lsa? Bu holatni tasavvur qilish juda qiyin. Birinchidan, zamon shiddati tildan foydalanish imkoniyatlarini o'zgartirishi aniq. Ikkinchidan, ish, o'qish, fan texnika tezligi shu darajadagi, bir maromdagi qonun qoidalar, grammatika bilan muomala qilish biroz noqulaylik tug'dirishi, suhbatni cho'zishi, yoki jarayonni sekinlashtirishi mumkin bo'lar

43 Blake,NF. " A History of the English language". Basingstoke. Palgrave, 1996

44 Gorlach, Manfred. " The Linguistic History of English". Macmillan, 1997.

edi. Shu jihatdan tilni davr talabi va rivojiga qarab jamiyat taraqqiyotiga mos holatda yashashi tabiiy, ijtimoiy jarayondir.

Hozirgi kunimizda ingliz tili o'zining rivojlanish tarqqiyotida eng yuqori nuqtalarga chiqib bo'ldi va jamiyatdagi yangiliklar bilan bir xilda yangilanib, boyib bormoqda. Eng so'nggi ma'lumotlarga qaraganda ingliz tilida yiliga 8500 ta so'z kengayadi va bu o'zgarishlar albatta turli jarayonlar ta'sirida amalga oshmoqda. Vaholanki, bu ko'rsatkich XX asr boshlarida yiliga 1000 ta so'zni tashkil qilgan.

Yangi kirib kelayotgan so'zlar ushbu raqamlarni asosiy qismini tashkil qiladi.⁴⁵ Masalan; *asfashionistal, McJob, McMansion, wussy, bling, nerd, pearshaped, unplugged, fracking, truthiness, locavore, parkour, sexting, crowdsourcing, regift, meme, selfie, earworm, meh, diss, suss, emo, twerk, schmeat, chav, ladette, punked, vaping,*

Shuningdek so'zlar otlardan fe'llar, fe'llardan yangi otlar yasaliishidan ham ko'paymoqda.

Masalan; *to parent To mentor To channel To petrol* va hokazo.

Yoki: biznes tilida *a solve* - yechim, *a build* - qurilish, *an ask* -so'rov, talab so'zlarini yasaliishida namoyon bo'lmoqda.

Qo'shma otlar ham ko'plab yasaliishi kuzatilmoqda;

Masalan; *Stagflation, edutainment, flexitarian, Disneyfication, frenemy, confuzzle, gastropub, bromance, hacktivist, chillax, infomercial, share ware, dramedy, gaydar, welllderly*

So'zlarni qisqartma holatda ishlatish ham juda ommalashgan hozirgi davrimizda, internet tarmoqlari, ijtimoiy hayotimizda, og'zaki nutqimizda qisqartmalar juda faol.

YOLO (you only live once), LOL-laugh out of world

Cya-see you later- 2u-to you 4u- for you

45 Durkin, Philip. Global English . Oxford English Dictionary, 2007.

2. 3. Mahalliy variantlarning til rivojiga ta'siri va o'qitishdagi o'rni

XX asr o'rtalarida Angliyada ta'lim erkin va umumiy tusga kirgach, 14 yoshgacha bolalar maktabda ta'lim olishlariga to'g'ri kelar, 1970 yillarda esa ta'lim oluvchilarning yosh chegarasi 15 yoshgacha edi. Asr so'ngiga kelib esa, 18 yoshgacha ta'lim jarayoniga hamma bolalar va o'smirlar jalb qilingan edi. Dunyo bo'ylab ta'lim, savodxonlik darajasi rivojida ingliz tilining ahamiyati haqida juda ko'p taxlillar va asoslangan fikrlarni ko'rib chiqdik. Ingliz tilini standart ko'rinishi davlat tili bo'lgan va bo'lmagan davrlarda o'rgatilishi butun dunyoda rivojlanib borayotgan fan texnika rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. O'zini har sohada bilimdon deb hisoblovchi har bir kaddan biror xorijiy tilni ayniqsa ingliz tilini bilishni talab etilishi bejiz emas. Til o'rganuvchi qaysi millat, qaysi hududdan bo'lishiga qaramay standart ingliz tilini bilishi undagi xususiyatlarni ham hisobga olgan holda foydalanishi davr talabidir. Norasmiy holatlarda o'zimizning til xususiyatlarimiz, shevalar, jargonlar bilan gapirishimiz mumkindir, ammo rasmiy idoralarda, ishda, jamoat joylarida standart ingliz tili, yoki rasmiy tilda so'zlashimiz talab etiladi.

Shu o'rinda til o'rganuvchi va o'rgatuvchi sifatida tildagi o'zgarishlardan, yangiliklardan doimo xabardor bo'lishimiz kerak. Chunki til hech qachon bir qolipda turmaydi, o'zgaradi, boyiydi. Avvalgi davrlarga qaraganda hozirgi zamon til o'zgarishlari ham fan texnikaning shiddat bilan rivojlanishi tufayli tez o'zgaryapti. Garchi standart ingliz tili lug'atlarda namoyon bo'lsa ham ular doimiy nazorat va taxlil qilinishga muhtoj bo'ladi.

Masalan: ⁴⁶ XIX-XX asrlar boshlarida lug'atlarda *horse* - ot-transport vositasi sifatida qo'llaniluvchi so'z sifatida tushuntirilgan bo'lsa, hozirda mashina, tramvay, poyezd kabi so'zlar bilan o'rin almashtirgan. Texnologiya o'zi bilan bir necha yangi so'zlarni ham olib kirmoqda. Masalan: *mouse* - avvallari sichqon, kemiruvchi sifatida tushunilgan bo'lsa hozirda kompyuterning bir bo'lagi sifatida tushuniladi. Standart ingliz tilini Ingliz tilining asosiy grammatikasi asosida ham tushuntiriladi. Ammo grammatikada ham

⁴⁶ Language Timeline", The British Library Board.

o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkinligini dastlabki birlik, ko'plik, predloglar misollarida ko'rib chiqdik.

Bizni yurtimizda ingliz tili ikkinchi til sifatida maktab, kollej, lisey, universitet va institutlarda o'rgatiladi va o'rganiladi. Bu tilni yurtimizga shiddat bilan rivoj topgani ham ingliz tilini xalqaro til sifatida butun dunyoga tarqalgani va ommalashganidadir. Ancha vaqtgacha ikkinchi til sifatida rus tiliga juda katta e'tibor berilar, hujjatlar va rasmiy qog'oz ishlari ham rus tilida bajarilar edi. Bular albatta tarixiylik jihatdan, O'zbekistonda bir vaqtlar rus tilining mavqei baland bo'lganligi bilan baholansa, mustaqillik yillaridan so'zning nafaqat rus tili balki boshqa xorijiy tillarning ham rivojiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish yo'lida chiqarilayotgan qaror va farmonlar bir qancha. Buning yagona sababi, rivojlanib borayotgan fan texnika dunyosida bizning, O'zbekiston yoshlarining o'z o'rnini va fikri bor bo'lishi uchun yaratilayotgan sharoitlardir.

Davlat ta'lim standartlarida xorijiy tillarni o'qitishdagi alohida boblarni mavjudligi, 2012 yil 11 dekabrda chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmon, hamda xorijiy til o'qituvchilari uchun alohida imtiyozlarning yaratilganligi yurtimizda xorijiy tillarni o'qitishdagi e'tibor qanchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi. Mustaqillik yillaridan beri 51.7 ming nafardan ortiq chet tillari o'qituvchilari tayyorlangan bo'lib, ularning asosiy qismini ingliz tili o'qituvchilari tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ingliz tiliga qiziquvchilar juda ham ko'p. Shu bilan birgalikda internet materiallari, til o'rgatish bo'yicha qo'llanmalar ham bisyor. Ammo, ta'lim jarayonida o'quvchilarni tilga to'g'ri yo'naltirish ham muhim. Chunki ingliz tilini asosiy 4 mahorat-gapirish, yozish, o'qish va tinglash asosida rivojlantirilsa, tilni mukammal egallash osonroq bo'ladi. Til o'rgatishning boshlang'ich paytlarida o'quvchilarga ingliz tilining tarixi, kelib chiqishi va o'ziga xos xususiyatlari rivojlanishi aytib o'tilishi joiz. Chunki o'rganuvchi o'rganayotgan tilning asosini bilsin va tushunsin. Ma'lumki, til o'rgatish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, ular lug'at boyligini oshirish, til qoidalari,

nutqni o‘stirish mashqlari, o‘qish va tarjima qilish mahoratlari bilan asta sekin amalga oshiriladi. Ammo o‘quvchida tashqi tomondan internet, ijtimoiy tarmoqlar, yangicha nashrdagi kitoblar orqali turli til bo‘yicha savollar tug‘ilishi tabiiy. Masalan; *colour* - *rang* so‘zini endi o‘rgangan bola, o‘zining qalamdoni ustida *color* shaklida yozilgan so‘zni ko‘rib qoldi. O‘qituvchidan *colour* yoki *color* to‘g‘riligi haqida so‘rashi turgan gap. Chunki o‘quvchida bularning bittasi xato degan tushuncha paydo bo‘ladi. Shu kabi muammolar ta‘limda uchraydi va ularni oldini olish uchun bolalarga ingliz tili ham ikki xil asosiy variantdan Amerikanacha va Britanacha ingliz tilidan iboratligi tushuntirish zarur. Ammo unga qo‘shimcha bo‘lgan variantlarni ham aytib o‘tish kerak. Ba’zida o‘quvchilar har xil qo‘shiqlardan, nostandart ingliz tiliga xos bo‘lgan so‘zlarni tarjimasini so‘rab murojat qilishadi. Ularni qaysi ma’noda ishlatilayotganligini o‘qituvchi tushuntirib berishi lozim. Demak, o‘quvchilarga tilni rasmiy va norasmiy, ko‘rinishlari borligini, jargon, lahcha va dialektlardan tarkib topganini ham sekin astalik bilan tushuntirish lozim.

Hozirgi zamon o‘quvchisi juda talabchan, e’tiborli va ta‘lim jarayonida o‘ta faol. Bu esa o‘qituvchilarni o‘z ustida yanada ishlab, dars berish jarayonida turli yangiliklar va tushuntirishlar berishini talab etadi. Ingliz tili o‘rganuvchilarining asosiy qismini 12 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan o‘rganuvchilari tashkil etgani uchun, har bir o‘quvchining yoshi, aqliy faoliyati, qiziqishi va talablariga ko‘ra dars berish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda bir qiziq savol tug‘iladi. Avvallari ingliz tilini uzoqroq muddatlarda o‘rganishar edi. Masalan, yoshi kattaroq aka opalarimizdan 5 -6 yilda ingliz tili yoki nemis tilini o‘rganganligi eshitib ba’zida taajublanamiz. Chunki, bugungi kunda til o‘rganish jarayoni tezlashganday tuyuladi. Masalan o‘quvchi yaxshilab harakat qilsa, bir yil ichida intermeadite -ya’ni ingliz tilida bemalol gaplashadigan, tushunadigan, insholar yozadigan darajaga yetishi mumkin va bu ko‘p bora isbotini topmoqda. Buning sababi, nimada degan savolga javob - til o‘rganishdagi yangicha metodlarning shakllanganligi, til o‘rganish texnikasi

avvalgisidan tubdan farq qilishi va albatta zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishidadir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi zamonda eskicha an'anaviy uslub ya'ni grammatika va tarjima bilan dars o'tish eskirgan va siyqasi chiqqan usul hisoblanadi. O'quvchilar o'zlari qiziqib turli manbalardan turlicha savollar olib kelib o'qituvchini o'z ustida yanad ko'proq ishlashiga majbur qilyapti. Til qoidolari, lug'at, nutq faoliyatini oshirish bilan birgalikda tildagi alohida xususiyatlar ko'cha so'zlari, rasmiy, norasmiy uslub shakllari, jargonlarning o'rganish ahamiyati haqida tushunchalar berish ham zamon talabi. Chunki, tadbirkorlik, turizm, ta'lim tufayli butun dunyo bo'ylab sayohat qilish mobaynida kishida ushbu til haqida tushuncha bo'lmasa turli muammolar kelib chiqishi va tildagi noqulayliklar tufayli salbiy vaziyatlarga tushib qolish hech gap emas. Hozirda yoshlarimiz xorijiy davlatlar universitetlarida bakalavr va magistratura kabi bosqichlarni o'qishni juda hohlashadi va bunga esa yetarli darajada tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Ammo, dunyo ilm maskanlarining deyarli barchasi ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi IELTS va TOEFL test tizimi ballarini talab qiladi. Bu ballarni olish uchun talabada ingliz tilining eng yuqori upper intermediate va advanced darajasi bo'lishi kerak. Bu test tizimi mukammal bo'lib, oddiy test shakli emas, unda alohida alohida 4 mahorat - reading, writing, speaking, listening mahoratlari tekshiriladi. Bu imtihondan muvaffaqiyatli o'tish uchun grammatikani bilishning o'zi yetarli emas, o'quvchi erkin so'zlasha olishi, mahalliy nutq na'munalarini tinglab shu asosida savollarga javob topishi, istalgan uslubda beriladigan matnlar asosidagi testlarni bajarishi va rasmiy ingliz tilida murakkab insholarni yozishi talab qilinadi. Zero, buyuk bobokalonlarimiz ta'kidlaganlaridek mukammalik hamisha o'rganish va izlanishdan iboratdir.

Tildagi mavjud bo'lgan shevaga xos so'zlar, lahchalar uning xilma xilligiga, nutqning ta'sirchanligini oshirishiga guvoh bo'lamiz. Shevaga xos so'zlar aynan ma'lum bir hudud yoki mintaqaga kishilarigagina tushunarli va tanish bo'lgan so'zlar bo'lib, ular til rivoji va lug'at boyligining oshishida bevosita xizmat qiladi. Shuningdek, shevaga xos so'zlar adabiy til qoidalaridan

yiroq faqatgina so‘zlashuv uslubida ishlatilib, tilning adabiy normalariga bo‘ysunmaydi. Ular standart ingliz tilidan grammatik, talaffuz, va lug‘at tarkibi bilan farqlanadi.

Til o‘rganishdagi imkoniyatlar va sharoitlardan imkoni boricha foydalanish, xalqaro til darajasiga aylangan ingliz tilini standart ko‘rinishlarini, nostandart ko‘rinishlarini, tildagi jamiki o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘rganish kerak. Ayniqsa, bu shu til bo‘yicha o‘zini mutaxassisman deb hisoblovchi har qanday tilshunos bo‘lsin yoki oddiy pedagog til normalarini va qonun qoidalarini to‘liq bilishi kerak.

III - BOB. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA POLIETNIK TILLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

3. 1. Zamonaviy polietnik tillar va ularning o‘ziga xos jihatlari

Til global til maqomiga barcha davlatda tan olinadigan ahamiyatga ega bo‘lgandagina erishadi va bu asosan dunyoning turli mamlakatlarida ko‘p sonli aholi ona tili sifatida so‘zlashadigan tillar misolida yaqqol ko‘rinadi. Ingliz tili miqyosida olinganida, bunday holat AQSH, Kanada, Britaniya, Irlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika, qator Karib davlatlari, Osiyo mamlakatlari va boshqa bir qancha davlatlarda ko‘rish mumkin. Ispan tilining Ispaniyadan tashqari asosan Lotin Amerikasida joylashgan 20ga yaqin davlatda qo‘llanilishi ham yuqoridagi fikrga misol bo‘la oladi. Shuningdek, tildan faqatgina ona tili sifatida foydalanishning o‘zi unga global til maqomini bera olmaydi. Bunday maqomga ega bo‘lish uchun til dunyoning bir qator davlatlarida birinchi, ikkinchi rasmiy til yoki asosiy xorijiy til sifatida qo‘llanilishi lozim. Bunda tildan ona tili sifatida foydalanuvchilarning soni muhim emas.

Biron bir tilning global til maqomiga ega bo‘lishi uchun asosan 2 ta muhim omil ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, ushbu tildan dunyoning bir necha mamlakatlarida davlatning hukumat, sud, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tizimi singari muhim sohalarida asosiy muloqot vositasi sifatida rasman foydalaniladi. Hozirgi kunda bunday rasmiy til maqomi Hindiston, Nigeriya, Singapur, Gana, Vanuati kabi 70 dan ortiq davlatlarda muhim mavqega ega bo‘lgan ingliz tili miqyosida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilining bunday rasmiy ahamiyati qator davlatlarda muhim rasmiy ahamiyatga ega bo‘lgan fransuz, nemis, ispan, rus va arab tili erishgan maqomdan ancha farqli.

Ikkinchidan, til dunyoning bir necha davlatlarining chet tillar o‘qitish doirasida yetakchi hisoblanishi mumkin, garchi bu til ushbu mamlakatlarda rasmiy ahamiyatga ega bo‘lmasa-da. Bunda til mamlakatning ta’lim

muassasalarida bolalarning kichik maktab yoshidan boshlab o'rganadigan asosiy xorijiy tili hisoblanadi. Bundan tashqari, tilning katta yoshli kishilar o'rganishi uchun ham mamlakatda yetarli imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Masalan, janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari orasida mandarin xitoy tili alohida ahamiyat kasb etadi va shu mamlakatlarda bu tilning o'qitilishiga kuchli e'tibor qaratiladi. Hozirgi davrda ingliz tili Xitoy, Rossiya, Germaniya, Ispaniya, Misr, Braziliya kabi 100dan ortiq davlatlarda xorijiy til sifatida keng ko'lamda o'qitilmoqda.

Yuqoridagi kuzatuvlardan xulosa qilib aytish mumkinki, tilning biror mamlakatning rasmiy tili bo'lishi uchun bir qancha omillar mavjud. Biror mamlakatning rasmiy tili maqomiga bitta til ega bo'lishi mumkin, yoki bu maqom bir vaqtning o'zida bir necha tillarga taallukli bo'lishi mumkin. Ba'zan til "yarim rasmiy" maqomga ega bo'lib, davlatning faqat ayrim sohalaridagina qo'llanilishi mumkin, yoki ma'lum rasmiy ahamiyatga ega bolib, boshqa tilga nisbatan ikkinchi o'rinda bo'lishi mumkin. Ko'p davlatlar o'z konstitusiyasida davlat tilini rasman qayd etadilar (masalan, O'zbekiston, Hindiston), ba'zi davlatlarda esa bu haqida alohida ta'kidlab o'tilmagan (masalan, Britaniya).

Shu bilan birga biror tilning ma'lum bir mamlakatda o'qitiladigan asosiy xorijiy til sifatida tanlanishi uchun bir necha sabablar mavjud: tarixiy an'analar, siyosiy muvofiqlik, tijoriy, madaniy va texnologik munosabatlar va h. k. ,

Yaxshi ta'minlangan jamiyatda, ommaviy axborot vositalari, kutubxona, ta'lim muassasalari orqali xorijiy til o'qitilishiga e'tibor qaratiladi. Tilni o'qituvchi kadrlar soni va malakasini oshirishga davlat ta'lim sohasidagi ustuvor masalalardan biri sifatida qaraladi. Kitoblar, ko'rgazmali qurollar, telekommunikasiya vositalari kabi o'quv materiallarining mavjudligi ta'minlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan imkoniyatlarning barchasi hozirda mamlakatimizda mavjud bo'lib, bularning bari davlatimizning yurtimizda xorijiy tillarning o'qitilishiga bugungi davrning dolzarb masalasi sifatida qarayotganligidan dalolatdir. Ba'zi davlatlarda hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi va boshqa sabablarga ko'ra til o'qitishga qo'yilgan maqsadga erishish ortda qoladi.

Bizga ma'lumki hech bir jamiyat tilsiz bo'lmaydi va shuningdek, til ham jamiyatsiz shakllanmaydi, taraqqiy etmaydi. Til kichik bir qabila, kamroq sonli millat bo'ladimi yoki katta bir xalq bo'ladimi, barchasi uchun zarur bo'lgan muhim muloqot vositasidir. Ba'zi tillarda juda kam sonli kishilar so'zlashsa, boshqa ba'zilarida esa millionlab insonlar so'zlashadi. Polietnik til sifatida xalqaro miqyosda so'zlashiladigan va o'rganiladigan hamda ko'p sonli kishilar tomonidan ikkinchi til tarzida qo'llaniladigan til tan olinadi. Polietnik til maqomiga erishish uchun nafaqat ushbu tilda so'zlashuvchilar (ona tili va ikkinchi til sifatida) soni, balki uning xalqaro tashkilotlar va diplomatik munosabatlardagi ahamiyati, shuningdek geografik taqsimoti ham muhim o'rin tutadi. Buni biz dunyoning turli mintaqalarida ko'p sonli kishilar tomonidan qo'llaniladigan ingliz, fransuz, rus, xitoy, nemis, ispan tillari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Fransuz tili XX asr boshlariga qadar Yevropaning qator mamlakatlari, Rossiya, Gresiya, Ruminiya, Bolgariya, Turkiya, shuningdek, Misr, Livan, Eron, va Janubiy Amerika davlatlarida, ayniqsa, ziyoli toifa vakillari orasida ahamiyatli bo'lib, kommunikasiya va diplomatik munosabatlar uchun munosib til hisoblangan, II Jahon urushidan so'ng avvalgi nufuzini yo'qotsa-da, hanuz ko'plab xalqaro tashkilotlar uchun ishchi til hisoblanadi. Hozirda fransuz tili Fransiyadan tashqari Kongo Demokratik respublikasi, Kanada, Madagaskar, Kamerun singari ko'p sonli aholiga ega bo'lgan mamlakatlarda rasmiy til hisoblanadi. 2015 - yil ma'lumotlariga ko'ra fransuz tili hozirda dunyoning 13 ta mamlakatida yagona rasmiy til sifatida, 16 ta davlatida esa yarim rasmiy til sifatida tan olinadi.

Arab tili o'zining xalqaro ahamiyatiga islom dunyosida, xususan, O'rta Sharq va shimoliy Afrika davlatlarida, shu bilan birga Arab dunyosidan tashqarida musulmon jamiyatlarda (liturgik) muqaddas til sifatida erishdi. Hozirda arab tili Aljeriya, Sudan, Iroq, Morokko, Chad singari qator davlatlarda yarim rasmiy til sifatida, Misr, Saudiya Arabistoni, Yaman, Birlashgan Arab

Amirliklari, Iordaniya, Liviya, Oman, Qatar, Quvayt kabi davlatlarda rasmiy til sifatida qo'llaniladi.

Standart xitoy tili XX asr boshlariga qadar Uzoq Sharq Osiyosida tarixiy lingva franka vazifasini o'tagan mumtoz xitoy tilining o'rnini egalladi va bugungi kunda nafaqat Xitoy davlatining o'zida balki, okeanorti davlatlarida ham xitoy tilining turli shevalarida so'zlashuvchi aholi vakillari o'rtasida umumtil hisoblanadi va xalqaro miqyosda ikkinchi til sifatida o'rgatiladi.

Rus tili sobiq Sovet Ittifoqi davrida ittifoqqa a'zo davlatlarda rasmiy til maqomida bo'lgan va ta'lim muassasalarida bu tilni o'qitish majburiy hisoblangan. Biroq sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi tildan foydalanish va uni o'rganishga bo'lgan talabga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Hozirda rus tili RSFSRning davlat tili bo'lib, bu tilda 150 million kishi so'zlashadi. Rossiya ta'lim vazirligi 2013 - yil dekabrda bergan ma'lumotlarida so'nggi bir necha dekada davomida rus tilida so'zlashuvchilar sonining 100 million atrofida kamayganini ta'kidladi.

Ispan tili Ispan imperiyasi davrida qo'llanilgan asosiy til bo'lib hozirda undan Ispaniya va Lotin Amerikasining ko'plab davlatlarida (Braziliya, Fransuz Gvineyasi, Gaiti va Karib orollari bundan mustasno) foydalaniladi, shuningdek Amerika Qo'shma Shtatlarining janubiy hududlarida keng miqyosda so'zlashiladi.

Nemis tili Yevropaning katta qismini qamrab olgan hududda. bir necha asr mobaynida, xususan muqaddas Rim imperiyasi davrida, keyinroq esa Avstriya-Vengriya hukmronligida lingva fransa vazifasini o'tadi. U hanuz xalqaro ilmiy jamiyatda o'z nufuzini yo'qotmay, markaziy va sharqiy Yevropa davlatlarida ikkinchi til sifatida muhim ahamiyatga ega. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasining, Avstriya Respublikasining davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilarning soni 100 milliondan oshadi.

Hozirgi Hindiston Respublikasining davlat tili hisoblangan hind tilida 450 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Hindiston subkontinentining hind, bengal va nisbatan kichikroq doirada tamil tili mintaqaviy va xalqaro miqyosda e'tirof

etilgan tillar qatoriga kirgan asosiy tillari ko'p sonli so'zlashuvchilarga ega bo'lsa-da, bu asosan hududiy ko'rsatkichdir. Masalan, boy adabiy tarixga ega bo'lgan bengal tilida so'zlashuvchilar soni (230 million so'zlashuvchisi bilan eng ko'p so'zlashiladigan tillar ro'yhatida beshinchi yoki oltinchi o'rinda) fransuz tilida ona tili sifatida so'zlashuvchilar sonidan ko'proq. Biroq fransuz tilidan qit'alararo so'zlashiladigan til sifatida xalqaro savdo va boshqa diplomatik munosabatlarda foydalaniladi, shuningdek, dunyo bo'ylab bu tildan ikkinchi til sifatida foydalanuvchilar soni salmoqli. Bengal tilida so'zlashuvchilarning aksariyati mahalliy bengal xalqi ekanligini inobatga olgan holda shuni ta'kidlash joizki, ushbu tilning qo'llanilish maydoni o'z hududi bilan chegaralangan.

Manbaalarga ko'ra, tilning global til maqomiga erishishi uchun quyidagi xususiyatlarni o'zida jamlashi kerak:

Ko'p sonli so'zlashuvchilarga ega bo'lish;

- Salmoqli darajada tildan ikkinchi til sifatida foydalanuvchilarga ega bo'lishi (lingva fransa vazifadida);

- Bir necha davlatlarda rasmiy maqomga ega bo'lish;

- Dunyoning bir necha hududlarida foydalanilishi;

- Ko'p millatli jamiyatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lishi;

- Xorijiy til sifatida o'qitiladigan bir yoki undan ortiq standartlariga ega bo'lishi;

- Lingvistik ahamiyatga ega bo'lishi;

- Xalqaro savdo munosabatlarida foydalanilishi;

- Xalqaro tashkilotlarda foydalanilishi;

- Ilmiy manbaalarda qo'llanilishi;

Bugungi kunda keng ko'lamda so'zlashilayotgan va shiddat bilan tarqalayotgan til, bu shubhasiz ingliz tilidir. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra dunyo miqyosida 840 milliondan ortiq kishi bu tildan ona tili yoki ikkinchi til sifatida foydalanadi. Shuningdek, 700 milliondan ortiq kishilar uni chet tili sifatida o'rganishmoqda, shundan 200 milliondan ortiqroq o'rganuvchilar Xitoy davlati

hissasiga to'g'ri keladi. Yana shuni qayd etish lozimki, o'rganuvchilarning tilni egallaganlik darajasini va aniq miqdorini aniqlash o'ta murakkab. Hozirda ingliz tilidan dunyoning barcha qit'alarida turli xalqlar undan biznes tili yoki xalqaro til sifatida foydalanadilar. Ingliz tili Yevropa Ittifoqining asosiy tili, BMTning rasmiy ish yuritish tillaridan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqot ishlari uchun ingliz tili yetakchi til vazifasini o'tamoqda.

3. 2. Ingliz tilining polietnik til sifatida shakllanishi va taraqqiy etish omillari

Hind-yevropa tillar oilasining g'arbiy german tillari guruhiga mansub bo'lgan ingliz tili miloddan avvalgi V-VI asrlarda qadimiy german qabilalari bo'lmish ingliz, saks va yut tillaridan kelib chiqqan. Ingliz tili Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi janubiy-sharqiy Shotlandiya yerlari, avvalgi Norzumbriya qirolligida vujudga keladi. Ingliz tilining tarixan rivojlanishini 3 bosqichga bo'lish mumkin: qadimgi ingliz tili, o'rta asrlar ingliz tili, zamonaviy ingliz tili. Tilning ushbu uch bosqichli taraqqiyot faoliyati bevosita Britaniya o'tmishidagi ma'lum tarixiy hodisa va voqealar bilan bog'liq, jumladan, ingliz tilining jadal "fransuzlashuvi"ga olib kelgan norman bosqini va Britaniyaning siyosiy, diniy, va iqtisodiy rivojlanishi va boshqalar bunga misol bo'ladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, qadimiy ingliz tili VII-XI asrlarda anglosaks deb atalgan va 4 shevaga bo'lingan: nortumbriy, mersiy, uyessek va kent. IX-XI asrlarda uyessek shevasi asosida adabiy ingliz tili shakllangan. Bu shevalar turkumi Buyuk Britaniyaning sharqiy qirg'og'iga nemis qabilalari bo'lmish anglo- saksonlar tomonidan keltirilgan. "English" (ingliz) so'zi "Angles" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu xalqning ajdodlari yurti Angeln, hozirgi Shelsvig- Xolsteyn bo'lganligi aniqlangan. Xristian cherkovi hamda Yevropa tafakkur doirasining asosiy tili hisoblangan lotin tilidan qadimiy ingliz tiliga juda ko'p so'zlar o'zlashtirilgan. Vikinglarning VIII hamda IX asrlardagi istilosidan keyin ingliz tili eski norz tilining bir qismini o'zlashtirdi. Angliyaning XI asrda Normandlar tomonidan egallanilishi norman frantsuz

tilining ingliz tili bilan qorishishiga olib keldi. Aynan shu sababli ingliz tili lugʻaviy va imloviy jihatdan roman tillar guruhiga aloqador hisoblanadi. XII-XV asrlarda Oʻrta asrlar ingliz tilisi urgʻusiz unlilarning reduktsiyaga uchrashi natijasida feʼllik soʻz birikmalari koʻp oʻzgarishlarga uchragan. XVI-XVII asrlarga kelib yangi ingliz tili yuzaga kelgan.

Endilikda ingliz tili tarixining toʻrtinchi bosqichi, yaʼni zamonaviy ingliz tili davridan soʻng global ingliz tili davri boshlandi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Til rivojlanishining toʻrtinchi bosqichi ritorik nomutanosibliklarga ega boʻlsa-da, u ingliz tilining global lingva franka maqomini egallashini va zamonaviy dunyoda ingliz tilini madaniy, lingvistik, siyosiy, iqtisodiy sohalarning yangi vositasi sifatida tan olinishini taʼminlaydi.

Ingliz tili lugʻat boyligi jihatidan dunyo tillari ichida yetakchi oʻrinlarda turishi uning globallasuvi uchun yetarli taʼsir etgan. 1989 yilda chop etilgan 20 tomndan iborat dunyodagi eng katta ingliz tili lugʻati "English Oxford Dictionary" lugʻatiga 615000 soʻz kiritilgan. Agar ushbu roʻyhatga ingliz tildagi texnika, ilm-fan sohasiga tegishli boʻlgan soʻzlar va atamalar ham kiritilsa, raqam 1000000ga yaqinlashishi mumkin. Ingliz tili lugʻat boyligiga yildan yilga yangi soʻz va atamalarning kirib borayotgani uni yanada kengaytirmoqda. Manbaalarda keltirilishicha, ingliz tilining faol qoʻllanishda boʻlgan lugʻat tarkibi 200000 ta soʻzni oʻz ichiga oladi, boshqa tillarga taqqoslaydigan boʻlsak bu koʻrsatkich nemis tilida 184000, fransuz tilida 100000 tani tashkil etadi. Tilda sinonimlarning koʻpligi uning lugʻat boyligini yanada rang-barangligini taʼminlaydi.

Ingliz tilini juda ham moslashuvchan til ekanligi uni oʻrganishda oʻziga xos qulayliklar yaratadi. Masalan, gapda soʻz tartibi yoki aniq nisbat va majhul nisbatning erkin moslashuvi (*I invited John, John was invited by me*).

Ingliz tilining dunyo miqyosida keng tarqalishini tilning qanday maqsadda va darajada oʻrganilishi va qoʻllanilishiga asoslanib, 3ta muhim doira ichida tartiblash mumkin⁴⁷:

47 B. Kachru. The Alchemy of English: the spread, functions, and modes of non-native Englishes,

1. Ichki doira o'z ichiga ingliz tili aholisining asosiy qismi uchun ona tili bo'lgan davlatlar: AQSH (aholisi - 323 730 000), Buyuk Britaniya (aholisi - 64 928 787), Kanada (aholisi - 36 000 000), Avstraliya (aholisi - 24 000 000) va Yangi Zelandiyani (aholisi - 4 600 000) oladi. (jami million). Amerika Qo'shma Shtatlari Buyuk Britaniyaga nisbatan 4 marta ko'p ingliz tilida ona tili sifatida so'zlashuvchi aholiga ega va bu ikki davlat birgalikda dunyodagi jami ingliz tilidan ona tili sifatida foydalanuvchilarning 70 foizini tashkil etadi.

2. Tashqi (keng) doira o'z ichiga ingliz tili tarqalishining ilk bosqichlarida tilning turli sabablar bilan mamlakatga kirib borib, uning hukumat tashkilotlari va bilim dargohlarida qo'llaniladigan asosiy tilga aylangan hamda mamlakatning ko'ptilli jamiyatlarida muhim "ikkinchi" til sifatida qo'llaniladigan davlatlarni oladi. Hindiston, Singapur, Malavi kabi dunyoning 60 dan ziyod katta va kichik davlatlari ushbu doira tarkibiga kiradi (foydalanuvchilar soni - 300million atrofida).

3. O'sib borayotgan doira tarkibiga kiruvchi mamlakatlar tarixan ichki doira mamlakatlarining mustamlakachilik faoliyati bilan bog'liqligi bo'lmagan, lekin ayni damda ingliz tilining xalqaro ahamiyatini tan olgan holda mamlakatda tilning keng tarqalishi uchun imkoniyat yaratib berayotgan davlatlar kiradi. Ushbu ro'yhat boshida Xitoy, Yaponiya, Isroil, Gresiya, Polsha, Rossiya, Ukraina kabi qator mamlakatlar turadi. Ushbu doiraga kiruvchi mamlakatlarda ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitilmoqda va bunday mamlaktlar soni jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Yana shuni qayd etish lozimki, mustaqil O'zbekiston ham ushbu doira tarkibiga kiruvchi davlat hisoblanib, mamlakatda chet tillarning, xususan, ingliz tilining o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilib, uning aholining turli qatlamlari orasida chuqur o'rganilishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Buyuk Britaniyaning XVII va XX asr o'rtasidagi kuchli rivojlanishi hamda AQSHning XX asrdagi dunyoviy tasiri ostida ingliz tilining xalqaro nufuzi oshdi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida ingliz tilidan davlat tili yoki

ikkinchi rasmiy til sifatida foydalanayotgan davlatlar soni jami 83 taga yetadi⁴⁸ Shundan 49 ta davlatda ingliz tili yagona davlat tili, 34 tasida esa ingliz tili bilan birga yana bir yoki bir necha mahalliy tillar ham rasmiy til sifatida qo'llaniladi. Ushbu ro'yhatga Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya kabi aholisining asosiy qismi uchun ingliz tili ona tili hisoblangan yirik davlatlar, Hindiston, Bangladesh kabi aholisi ko'p mamlakatlar bilan bir qatorda Folklend orollari, Tuvalu singari kichik davlatlar ham kiritilgan. Chunki bu davlatlar hudud jihatidan juda kichik ekanligi va kam sonli aholiga ega bo'lishiga qaramay, ularning tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti bevosita ingliz tilida gapiruvchi davlatlar bilan bog'liqligi tilning ushbu hududlarga tarqalishi va mo'tadillashishiga sabab bo'lgan va hozirda ingliz tili mamlakatning rasmiy tili yoki tillaridan biriga aylanib ulgurgan.

Quyidagi berilgan ro'yxatdagi jami 49 ta mamlakatda davlat tili sifatida faqat ingliz tilidan foydalaniladi va aholining asosiy qismi ingliz tilida so'zlashadi.

№	Mamlakat	Qit'a	Rasmiy til	Aholisi
1	AQSH	Amerika	Ingliz tili	323 730 000
2	Nigeriya	Afrika	Ingliz tili	178 516 000
3	Buyuk Britaniya	Yevropa	Ingliz tili	64 308 000
4	Uganda	Afrika	Ingliz tili	38 844 000
5	Gana	Afrika	Ingliz tili	26 442 000
6	Avstraliya	Avstraliya	Ingliz tili	24 551 000
7	Zimbabve	Afrika	Ingliz tili	14 600 000
8	Zambiya	Afrika	Ingliz tili	15 021 000
9	Janubiy Sudan	Afrika	Ingliz tili	11 892 000
10	Papua – Yangi Gvineya	Avstraliya	Ingliz tili	7 476 100
11	Siyerra Leone	Amerika	Ingliz tili	6 205 380
12	Yangi Zelandiya	Avstraliya	Ingliz tili	4 530 300
13	Liberiya	Afrika	Ingliz tili	3 786 764
14	Yamayka	Amerika	Ingliz tili	2 705 800
15	Namibiya	Afrika	Ingliz tili	2 348 000

16	Gambiya	Afrika	Ingliz tili	1 908 954
17	Trinidad va Tobago	Amerika	Ingliz tili	1 317 700
18	Mavrikiy	Afrika	Ingliz tili	1 295 800
19	Fiji	Avstraliya	Ingliz tili	887 027
20	Gayana	Amerika	Ingliz tili	735 554
21	Solomon orollari	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz tili	572 865
22	Bagam orollari	Amerika	Ingliz tili	382 571
23	Beliz	Amerika	Ingliz tili	322 453
24	Barbados	Amerika	Ingliz tili	286 066
25	Sent Lyusiya	Amerika	Ingliz tili	183 600
26	Guam	Yevropa	Ingliz tili	167 550
27	Kiribati	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz tili	103 950
28	Sent Vinsent va Grenadina	Amerika	Ingliz tili	109 370
29	Grenada	Amerika	Ingliz tili	109 000
30	Amerikaning Virginiya orollari	Osiyo	Ingliz tili	106 792
31	Mikroneziya federativ Shtatlari	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz tili	112 100
32	Jersi orollari	Yevrosiyo	Ingliz tili	97 857
33	Antigua va Barbuda	Amerika	Ingliz tili	90 903
34	Men orollari	Yevrosiyo	Ingliz tili	87 780
35	Dominika	Amerika	Ingliz tili	72 340
36	Bermuda orollari	Amerika	Ingliz tili	65 416
37	Kayman orollari	Amerika	Ingliz tili	57 200
38	Sent-Kits va Nevis	Amerika	Ingliz tili	54 790
39	Shimoliy Mariana orollari	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz tili	55 070
40	Marshall orollari	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz tili	52 722
41	Terks va Kaykos		Ingliz tili	39 800
42	Gibraltar	Afrika	Ingliz tili	30 000
43	Britaniyaning Virginiya orollari		Ingliz tili	28 562
44	Montserratt	Okeaniya	Ingliz tili	5135
45	Muqaddas Yelena, Me'roj va Tristanda Kunya orollari	Afrika	Ingliz tili	4120

46	Foklend orollari	Amerika	Ingliz tili	2800
47	Shpitsbergen va Yan Mayen	Yevropa	Ingliz tili	377
48	Rojdestvo oroli	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz tili	2072
49	Kokos orollari	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz tili	596

Yuqoridagi jadvalga asosan ingliz tilidan yagona davlat tili sifatida foydalanuvchi mamlakatlarni qit'alar kesimida quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Amerika (Shimoliy va Janubiy) - 17ta
2. Afrika - 12 ta
3. Avstraliya (Okeaniya bilan birga) - 10 ta
4. Yevropa - 6 ta
5. Osiyo - 1 ta

Quyida berilgan jadvaldagi davlatlarda ingliz tili bilan birga boshqa bir yoki bir necha mahalliy tillar ham rasmiy til deb tan olingan bo'lib, aholining tillardan foydalanish ko'rsatkichi juda xilma-xildir. Masalan, Hindistonda davlat va hukumat ishlarini yuritishda ingliz tilidan keng foydalaniladi, aholining esa 30 % ga yaqini ingliz tilida so'zlasha oladi. Mamlakat umumiy aholisi 1 283 651 000 kishini tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, birgina Hindistonda ingliz tilidan foydalanuvchilar soni 385 000 000 dan ortadi.

№	Mamlakat	Qit'a	Rasmiy tillar	Aholi soni
1	Hindiston	Osiyo	Hind, ingliz tili	1283651000
2	Pokiston	Osiyo	Urdu, ingliz tili	191952027
3	Bangladesh	Osiyo	Bengal, ingliz tillari	159903698
4	Filippin	Osiyo	Tagal, ingliz tillari	101108300
5	JAR	Afrika	Ingliz, Afrikaans tillari	54956900
6	Tanzaniya	Afrika	Suaxili, ingliz tillari	53470420
7	Keniya	Afrika	Suaxili, ingliz tillari	46050302
8	Kanada	Amerika	Ingliz, fransuz tillari	34798000
9	Kamerun	Afrika	Fransuz, ingliz tillari	23344179
1	Shri-Lanka	Osiyo	Singal, tamil, ingliz tillari	20715010
1	Malavi	Afrika	Ingliz, chicheva tillari	16310431
1	Ruanda	Afrika	Kinyaruanda, ingliz, fransuz tillari	11262564
1	Singapur	Osiyo	Malaya, ingliz, xitoy, tamil	5469724

			tillari	
1	Irlandiya	Yevropa	Irland, ingliz tillari	4609600
1	Puyerto-Rika	Amerika	Ispan, ingliz tillari	3548397
1	Botsvana	Afrika	Ingliz, setsvana tillari	2262485
1	Lesoto	Afrika	Ingliz sesoto tillari	2135022
1	Svazilend	Afrika	Ingliz, svazi tillari	1286970
1	Malta	Yevropa	Malta, ingliz tillari	429344
2	Bruney	Osiyo	Malaya, ingliz tillari	423188
2	Vanuatu	Avstraliya va Okeaniya	Bislama, ingliz, fransuz tillari	264652
2	Samoa	Avstraliya va Okeaniya	Samoa, ingliz tillari	193228
2	Tonga	Avstraliya va Okeaniya	Tonga, ingliz tillari	106291
2	Seyshel orollari	Afrika	Ingliz, fransuz, kreol tillari	93306
2	Gernsi	Yevroosiyo	Ingliz, fransuz tillari	63085
2	Samoa orollari	Amerika	Samoa, ingliz tillari	55538
2	Karib Niderlandiyasi	Amerika	Niderland, ingliz tillari	24279
2	Palau	Okeaniya	Belau, ingliz tillari	21291
2	Kuk orollari	Okeaniya	Kuk, ingliz tillari	20833
3	Angilya	Amerika	Ingliz, kreol tillari	14614
3	Tuvalu	Okeaniya	Tuvalu, ingliz tillari	9916
3	Norfolk oroli	Avstraliya va Okeaniya	Ingliz, norfolk tillari	2302
3	Niuye	Avstraliya va Okeaniya	Niuye, ingliz tillari	1610
3	Tokelau	Avstraliya va Okeaniya	Tokelau, ingliz tillari	1383
3	Pitkern orollari	Tinch okeani	Ingliz, pitkern orollari	56

Bir necha millat uchun ona tili vazifasida qo'llaniladigan til polietnik til hisoblanadi. Yuqoridagi ro'yhat bizga ingliz tilining polietnik til sifatida qanchalik keng hududga tarqalganini turli millat vakillari tomonidan qo'llanilishini ko'rsatadi.

Polietnik tillardan biri hisoblangan ispan tili dunyoning 20dan ortiq mamlakatida 300 milliondan ortiq kishilar tomonidan so'zlashiladi. Ispan tili tilning vatani bo'lmish Ispaniyadan tashqari Meksika, Markaziy Amerika, Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili, Argentina, Urugvay, Paragvay kabi qator davlatlarda rasmiy til sifatida qo'llanilib, ushbu davlatlar ispan tilining lingvistik nufuzi yuqori bo'lgan hududlar sanaladi. AQSH hududida 30 milliondan ziyod ispan tilida so'zlashuvchilar istiqomat qiladilar, ularning ko'pchiligini meksikaliklar, shuningdek, kubaliklar va puyerto-

rikoliklar tashkil etadi. Ispan tilining dunyo bo'ylab eng ko'p tarqalgan variantlari bu Kastiliya va Lotin Amerika variantlari bo'lib, ular o'rtasida sezilarli darajada fonetik farq mavjud. Variantlar orasidagi grammatik farq yuqori darajada emasligi tilning turli variant egalari suhbatida sezilarli tushunmovchilikka sabab bo'lmaydi.

Kastiliya variantida [s] va [θ] tovushlari farqlanadi, Lotin Amerika variantida esa faqat [s] tovushining o'zi talaffuz qilinadi⁴⁹:

Kastiliya varianti Lotin Amerika varianti

Casa - (uy) - [Kasa] [Kasa]

Caza - (ov) - [Kaθa] [Kasa]

Lotin Amerika variantida [s] tovushi bo'g'in oxirida talaffuz qilinmaydi yoki, kuchsiz talaffuz qilinadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, polietnik tillarga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri tilda turli xil talaffuz variantlarining mavjud bo'lishidir. Chunki birdan ortiq millatlar tomonidan qo'llaniladigan tillar bir necha milliy standart talaffuz variantlariga ega bo'ladi. Polietnik tilning ma'lum bir millatga tegishli bo'lgan talaffuz turi milliy variant deb yuritiladi.

Milliy variant — umumiy hudud, iqtisod va ma'naviy boylik bilan birga millatni tashkil etuvchi ijtimoiy tarixiy kategoriya hisoblanadi. Millatning o'zaro aloqa vositasi hisoblangan milliy til 2 shaklga ega: og'zaki va yozma. Milliy variant qabila, elat tillaridan farqlanadi. U, odatda, millatni birlashtirib turuvchi yagona til vazifasini bajaradi. "Milliy variant" tushunchasi tilning yashash shakllariga aloqadordir, u til mavjudligining alohida turi bo'lib, mavjudlikning boshqa tur(lar)iga (urug', qabila yoki elat tiliga), shuningdek, boshqa milliy variantlarga qarama-qarshi qo'yilishi (masalan, ingliz tilining Kanada va Avstraliya variantining farqlanishi) mumkin. Har bir millat o'z tiliga ega. Ba'zan bir millat bir necha tilga ega bo'lishi mumkin: belgiyaliklar — bir millat, lekin ular fransuz va vallon tillarida so'zlashadilar. Shveysariyaliklar — yagona millat, lekin ular nemis, fransuz, italyan va retoroman milliy tillarida

49 E. Hall., M. Charles. Pluricentric Languages. Cambridge University Press, 1999.

so‘zlashadilar. Aksincha, bir necha millatlar bir tildan foydalanadilar, xususan, AQSH, Angliya, Avstraliya va boshqa ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda ingliz tilining milliy variantlari, ya’ni Britaniya ingliz tili varianti, Amerika ingliz tili varianti, Avstraliya ingliz tili varianti kabi bir necha variantlar qo‘llaniladi. Milliy variantning hosil bo‘lishi uzoq va murakkab jarayondir. Milliy variantning shakllanishidagi eng oliy bosqich milliy adabiy til hisoblanadi. Biroq milliy variant adabiy tildan farqlanib, og‘zaki nutq va xalq shevalarini ham o‘z ichiga oladi.

Milliy variantlar tuzib chiqilmaydi, u qator ichki va tashqi omillar tufayli turli o‘zgarishlar natijasida shakllanadi. Milliy variantlarning shakllanishida so‘zlovchilarga xos bo‘lgan etnik xususiyatlar ham muhim o‘rin tutadi. S. I. Bernshteyning fikricha, biz to‘g‘ri talaffuz qila oladigan tovushlarnigina to‘g‘ri eshitamiz. Yetarli darajada shakllanmagan artikulyasion ko‘nikma noto‘g‘ri eshitishga olib keladi. Natijada so‘zlovchi o‘z talaffuzidagi xatolarni sezmaydi va talaffuzning turli shakllari vujudga keladi.

Milliy til bir necha hududiy va mintaqaviy standartlarga ega bo‘ladi. Tilning ma’lum hududda, og‘zaki qo‘llanishdagi xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan shakli sheva yoki dialekt deb ataladi. Katta sheva va dialektlar lahja deb yuritiladi. Til va sheva o‘rtasidagi tavofut shartli bo‘lib, go‘yo milliy til va adabiy til o‘rtasidagi farqqa o‘xshashidir. Bu farqlanish turli hudulardagi bir tilning turli ko‘rinishidek tuyuladi. Til va dialektlarning tavofuti unda so‘zlashuvchilarning madaniyati, psixologiyasi, urf-odati va milliy xususiyatlarning o‘zgachaligi bilan izohlanadi. Britaniyada ingliz tilining quyidagi hududiy aksentlarlari mavjud: janubiy, shimoliy, uyels, shotland va shimoliy irland aksentlari. AQSHda 3 ta asosiy aksent guruhlari mavjud: janubiy, g‘arbiy, sharqiy. Ma’lum bir iqtisodiy, siyosiy va madaniy sabablar tufayli dialektlardan biri millatning standart tiliga aylanadi. Buni London dialektining qabul qilingan standart talaffuz(received pronunciation[^] aylanishida ko‘rish mumkin.

Bir-biriga hududiy yaqin bo'lgan shevalar o'sha tilga o'xshash alomatlari bilan ajralib turadi. Bir-biridan juda uzoq hududda tarqalgan shevalar esa boshqa tilga o'xshash alomatlarga ega bo'ladi. Masalan, ingliz tilining qator Janubiy Osiyo davlatlarida, xususan, Singapur, Malayziyada tarqalgan variantlari Britaniya ingliz tili variantidan ancha farq qilib, mahalliy til xususiyatlarini o'zlashtirgan.

Buyuk Britaniyaning XVII-XIX asrlarda olib borgan mustamlakachilik siyosati tufayli ingliz tili yer kurrasining turli tomonlariga tarqadi va bir necha davlatning rasmiy tiliga aylandi. Ingliz tili bir necha millatlar uchun ona tili, shunga ko'ra uning quyidagi milliy variantlari farqlanadi: Britaniya ingliz tili varianti, Amerika ingliz tili varianti, Kanada ingliz tili varianti, Avstraliya ingliz tili varianti, Yangi Zelandiya ingliz tili varianti. Ushbu milliy variantlarning barchasi ingliz adabiy tilining me'yorlariga asoslangan holda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni ham sezilarli darajada namoyon etadi.

IV - BOB. INGLIZ TILIDA SO‘ZLASHUVCHI MAMLAKATLAR VA ULARDAGI INGLIZ TILI MILLIY VARIANTLARI

4. 1. Britaniya ingliz tili variantining tarqalish hududlari

Dastlab ingliz tili Angliya va janubiy-sharqiy Shotlandiyada so‘zlashilgan. Keyinroq Shotlandiyaning anchagina katta qismiga va janubiy Irlandiyaga tarqalgan. XVII-XVIII asrlarda ingliz tili asosan Angliyaning g‘arbidan Shimoliy Amerikaga olib kelingan. Keyinroq, ya’ni XVIII va XIX asrlarda mustamlakachilikning kengayishi natijasida ingliz tili Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrikaga yoyildi. Bu hududlarga egalik qilish, tadqiq etish va doimiy yashash uchun kelgan muhojirlarning aksariyati Angliyaning janubiy-sharqiy hududlaridan edi.

Aynan shu davrda ingliz tili Uelsda keng tarqaldi. Uels ingliz tili varianti tuzilishida Uelsh tilining ta’siri katta bo‘lishiga qaramay, uning janubiy ingliz tili bilan o‘xshash jihatlari talaygina. XX asr boshlaridan ingliz tili Kanada, Lotin Amerikasi va Bermud orollariga hamda dunyoning boshqa qismlariga tarqala boshladi. shunga ko‘ra hozirda ingliz tili

Britaniyalik dialektologlar (P. Trudgill, J. Hanna, A. Xyuuges va boshqalar [Xyuges, Trudgill 1980; Trudgill, Hanna 1982] ingliz tilining Britaniya variantiga asoslangan ingliz tilining Uels, Avstraliya, Yangi Zelandiya variantlarini hamda Amerika variantiga asoslangan ingliz tilining Amerika varianti va Kanada variantini ajratadilar. Shotlandiya va Irlandiya variantlari yuqoridagi har ikkala guruhga qaysidir xususiyatlar tufayli mos kelishi aniqlangan.

Ingliz tili dialektologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XII asrdayoq London va uning atrofida turli dialektlarning mavjudligi haqida manbalar qayd etilgan. XIX asrdan boshlab qator dialekt lug‘atlari chop etila boshlagan.

Tilshunoslar so‘zlarning ilk shakllarini saqlagan holda dialektlarni ham o‘rgana boshlashdi. XIX asr davomida butun dunyo bo‘ylab olib borilgan o‘rganishlar natijasida 1905 - yilda Jozef Rayt tomonidan olti jildidan iborat

boʻlgan “English Dialect Dictionary” kitobi nashr etildi. Ushbu asar hali-hanuz ingliz dialektologiyasi sohasida asosiy va tayanch material hisoblanadi

Biror shaxsning maʼlum vaziyatlarda, masalan, ishda yoki oʻqishda, qabul qilingan talaffuzda gapirishi va boshqa norasmiy holatlarda mahalliy aksentda soʻzlashi mumkin. Bunday fenomen **digloziya** deb ataladi. Lekin bu bilingvizm xususiyatlaridan mutlaqo farqli hodisadir. Demak, har bir ijtimoiy jamiyat oʻz ijtimoiy dialekti va aksentiga ega.

Birgina Britaniya orollarida standart ingliz talaffuzi quyidagi hududiy birliklariga boʻlinadi:

1. Janubiy ingliz talaffuzi;
2. Shimoliy ingliz talaffuzi
3. Standart shotland talaffuzi
4. Uels ingliz talaffuzi
5. Shimoliy irlandiya ingliz talaffuzi

Britaniya orollaridagi barcha talaffuz turlari ichida Janubiy ingliz talaffuzi milliy talaffuz standartlariga mos keladi. Angliyadagi shevalar quyidagi tarzda guruhlanishi mumkin:

1. Janubiy aksentlar
 - 1) Janubiy aksentlar (yuqori London, Kokniy, Kent, Serrey, Esseks, Hertfordshir, Bokingemshir);
 - 2) Sharqiy Angliya aksentlari (Linshlnshir, Norfolk, Seffolk, Kambriyshir, Berdfordshir, Northamptonshir, Leysestershir);
 - 3) Janubiy-gʻarbiy aksentlar (Glousestershir, Evon, Somerset, Viltshir);
2. Shimoliy va markaziy aksentlar
 - 1) Shimoliy aksentlar (Nortumberlend, Durhem, Klevlend);
 - 2) Yorkshir aksentlari;
 - 3) Shimoliy-Gʻarbiy aksentlar (Lankashir, Cheshir);
 - 4) Gʻarbiy markaziy yerlar (Birmingem, Volverhempton).

Angliyadagi mahalliy nostandart dialektlar soni ham talaygina. Ular

quyidagi asosiy kategoriyalar asosida bo‘linadi va har biri o‘z ichiga bir necha guruhlarini oladi:

- a) Shotlandiya dialektlari (9 ta guruh)
- b) Irlandiya dialektlari (3 ta guruh)
- c) Angliya va Uels dialektlari 5 ta bo‘linmani o‘z ichiga oladi:
 - 1. Shimoliy (9 ta guruh)
 - 2. Markaziy graflik (3 ta guruh)
 - 3. Sharqiy (5 ta guruh)
 - 4. G‘arbiy (2 ta guruh)
 - 5. Janubiy (10 ta guruh)

Shuningdek, kam sonli kishilar tomonidan qo‘llaniladigan mahalliy ijtimoiy dialektlar ham mavjud.

Shuningdek London shahrining o‘zida ham Kokney aksenti, hamda ko‘pmillatli London aksenti ham keng qo‘llaniladi.

4. 1. 1. Uels ingliz tili varianti

Bizga ma’lumki, Uels bilingial hudud hisoblanadi. Tilshunoslikda nutqdagi bunday holat eksoglossiya deb

ataladi. Uelsda ingliz tili asosan shaharlar aholisi tomonidan so‘zlashiladi. Mamlakatning g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy qismlarida asosiy qo‘llaniladigan til uelsh tili bo‘lib, bu hududlarda ingliz tili ikkinchi til sifatida maktablarda o‘qitiladi. Hozirgi kunda mamlakat aholisi tomonidan milliy iftihar belgisi sifatida uelsh tilidan tobora ko‘proq foydalanilayotganligi haqiqatdir.

Ingliz tilining Uelsda qo‘llaniladigan turi qabul qilingan standart talaffuzdan keskin farqlovchi alohida o‘ziga xoslikka ega emas. Bunday asosiy fonologik farqni quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

- 1. [j] va [a:] tovushlari; last, dance, chance kabi so‘zlarda [a:] tovushi o‘rniga [j] qilinishi;
- 2. urg‘usiz ortografik "a" [a] tovushi o‘rniga [j] talaffuz qilinishi; sofa [’se: fj]

3. [A] va [a] tovushlari talaffuzida farq sezilmaydi: rubber rubber [ˈraba];
4. [i] soʻz oxirida uzun unli sifatida talaffuz qilinadi: city [ˈsiti:];
5. tune, few, used kabi soʻzlarda [iu] talaffuzi seziladi: tune [tiun];
6. [ei], [3u] diftonglari monoftonglarga aylanishi: bake [bs: k], boat [ba: t];
7. [ia], [ua] unlilari odatda ingliz tilining Uels variantida uchramaydi: fear [ˈfi: ja], poor - [ˈpu: wa]

Ingliz tilining Uels varianti intonasiyasiga uelsh tili oʻzining kuchli taʼsirini oʻtkazgan.

Uelsdagi qadimiy ingliz tiliga mamlakat aholisining 20 foizidan koʻprogʻi ona tili sifatida gapiradigan uels tili fonologiyasining taʼsiri kuchli boʻlgan. Shimoliy Uels aksenti janubiy Uels aksentidan farqli boʻlib, shimoliy-sharqiy Uelsda skouz va Shelshir aksenti ahamiyatga ega. Janubiy Uels chegaralarida mavjud boʻlgan aksentlarga Gʻarbiy okrug aksentlari oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Janubiy Uels vodiylarida keng qoʻllaniladiagn **Uinglish** ingliz va uels tillari qorishigʻidan tarkib topib shakllangan.

Janubiy Uels vodiylari dialektlaridan farqli hisoblangan Kardif dialekti oʻziga xos elementlarga ega:

- [is] tovushining oʻrniga [j0:] tovushini talaffuz qilinishi: **here** [hio] - [hj0:] yoki [j0ˈ] tarzida talaffuz qilinadi
- **Love** va **other** soʻzlaridagi [l] tovushining oʻxshash talaffuzi
- [a:] tovushi oʻrniga [j;] tovushini talaffuz etilishi, masalan, **Cardiff** [ˈka: d1f] soʻzi **Kahdiff** [ˈK^: dif] tarzida talaffuz qilinadi.

4. 1. 2. Shimoliy Irlandiya ingliz tili varianti

Irlandiyada soʻzlashiladigan ingliz tilini tadqiq etishga kirishilganida eng avvalo shuni qayd etish lozimki, tarixiy omillarga koʻra Shimoliy Irlandiyada ingliz tilining talaffuz standartlari bir-biridan farqlanadi.

O'rta asrlarda Irlandiya aholisining deyarli bari irland tilida so'zlashgan. Ammo hozirgi kunda irland tili mamlakatning rasmiy tili bo'lishiga qaramay irland tilida so'zlovchilar soni nisbatan kamaygan va ular asosan chekka hududlarda istiqomat qiladilar. Janubiy Irlandiyaga ingliz tili Angliyaning G'arbiy Midlends hududlaridan kirib kelgan va hanuz o'zida unga xos bo'lgan jihatlarni namoyon etadi.

Orolning shimoliy qismlari va Belfast shahriga xos bo'lgan ingliz tili bu hududlarga XVII asrda Shotlandiyaning janubiy-g'arbiy qismlaridan kirib kelgan. Shimoliy Irlandiyada ingliz tilining homogenous (bir turli) emasligini ko'rish mumkin. Shimoliy hududlarda shotland tilining kuchli ta'siri seziladi.

- 1. **l'e:** va M tovushlari faqatgina **[p, t, k]** undoshlarida oldin kelganda farqlanadi;
- 2. unlilar orasida **[6]** talaffuzi tushiriladi: **mother** ['she: eg];
- 3. **[t]** undoshi **[d]** tarzida talaffuz qilinadi: **city** ['sidi:]

Shimoliy Irlandiya kontinenti turli variantlarni o'z ichiga olgan xilma xillikka ega: Norzumberlend, Kaunti Durim, Tissayd, Nyukasl apon Tayn, Sanderlend, Kumbriya, Lankashir; hududiy variantlar: Berrou-in-Fyurns, Bolton, Burnli, Blekburn, Manchester, Preston, Fayld, Liverpool va Uigan. Yorkshir aksenti yuqoridagilardan farqli bo'lib, u Yorkshirning 3 ta tarixiy grafliklari (Yorkshir shimoliy grafligi, Yorkshir g'arbiy grafligi, Yorkshir sharqiy grafligi) shevalari bilan bog'liq.

Irlandiyada turli aksentlarni o'z ichiga olgan quyidagi guruhlar farqlanadi: 1) Dublin va uning sharqiy hududlari (bu yerlarda Britaniya mustamlakasining ilk davrlaridan buyon ingliz tilida gapirilgan); 2) Alster aksentlari, Geylik tilining kuchli ta'siriga ega; 3) garb, janub, o'rta yerlarning turli aksentlari;

Alster aksenti ikki asosiy katta guruhga ega: O'rta Alster ingliz tili va Alster shotland tili. Alsterning 9 ta okrugida va Lout va Leytrim kabi shimoliy okruglarda ingliz tilida gapiriladi. Shotland tilining ba'zi xususiyatlari Alster aksentlarida ham seziladi.

- Shotlandiyadagi kabi, **[i]** va **[u]** unlilari qorishib ketgan, masalan, *look* va *Luke* soʻzlari omofon soʻzlar hisoblanadi;
- **[ai]** diftongi **[en]** tarzida talaffuz qilinadi, lekin Belfastdagi turli ijtimoiy guruhlar oʻrtasida farq seziladi;
- Belfastda **[ei]** ochiq boʻgʻinda monoftong, (masalan, *day* **[de:]**), ammo yopiq boʻgʻinda diftong hisoblanadi;
- **[r, eg]** tovushlaridan oldin alveolar **/t, d /** tovushlar dental undosh tovushlarga aylanadi, masalan, *tree* va *spider*;
- **[t]** urgʻusiz boʻgʻindan oldin flapping **[f]** tovushiga aylanadi, masalan, *eighty* **[ˈyeega]**.

Irlandiya respublikasi: Konnakt, Leynste, Munster uch provinsiyaning aksenti Laos, Kildea, Offayl okruglari aksentining bir maromdagi ohangi va Mayo va Gelvey okruglarining yumshoq aksentlaridan ancha farq qiladi.

Ingliz tilida gapiruvchilarning turli aksentlari oʻziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Manchesterdan 16 km uzoqlikda joylashgan Bolton, Oldham va Salford shaharchalarining har biri Lankashayr shevasiga asoslangan oʻz aksentiga ega boʻlib, ularning bari oʻzaro nomuvofiqlikka ega.

4. 1. 3. Shotlandiya ingliz tili varianti

Baʼzi tilshunoslar ingliz tilining Shotlandiyada soʻzlashiladigan turini alohida milliy variant deb hisoblaydilar. Bir guruh tilshunoslar tomonidan esa bu dialekt sifatida tan olinadi. Ingliz tili Angliyaga kirib kelganidan buyon Shotlandiyada qoʻllanilib kelinadi. Shimoliy va gʻarbiy Shotlandiyaning baʼzi hududlarida minglab sonli aholi uchun Gaylik tili ona tili vazifasini oʻtaydi. Ushbu tilning standart shakli mamlakatdagi reformasiyalarga qadar adabiyot va sud ishlarida asosiy rasmiy til vazifasini oʻtagan. Keyinchalik uning oʻrnini ingliz tili egalladi. Lekin, Robert Berns kabi mamlakatning mashhur yozuvchi va shoirlari oʻz ona tillarini saqlagan holda ijod qilganlar.

Shotland ingliz tili aksentlari Modern Skots dialektlari namunalariga oʻxshash jihatlariga ega. Shotland talaffuziga xos baʼzi jihatlar uning boshqa

ingliz dialektlaridan farqlaydi. Shotlandlar tomonidan **come** [klm] soʻzining talaffuzi. Bunday talaffuz shakli shimoliy Kumbriyaga qarashli shimoliy Eskning janubiy hududlari, Bamburgning sharqiy sohillarigacha tarqalgan.

Hozirda Shotlandiyada ziyoli kishilar tomonidan qoʻllaniladigan ingliz tilining standart shotland varianti standart ingliz tilidan grammatik va leksik sathda farq qilmasa-da, bunda aniq shotland aksenti seziladi. Shuningdek, Shotlandiyada mavjud boʻlgan qator nostandart dialektlar oʻzida shotland tilining xususiyatlarini aks ettiradi va ingliz tilining boshqa variantlaridan keskin farq qiladi:

1. shotland tili unlilarida choʻziqlik farqlanmaydi, shuning uchun pool-pull, caught - cot soʻzlarida unlilar talaffuzi mutlaqo bir xildir. Lekin, urgʻuli ochiq boʻgʻinda unlilar choʻzilishi roʻy berisi kuzatiladi.
2. standart talaffuzdan farqli tarzda [j] - [a: (a)] tovushlarida farq sezilmaydi: hat [hat], dance [da: ns].
3. standart talaffuzdagi [au] tovushi [u:] tarzida talaffuz qilinadi: house [haus - hu: s]
4. ^[n] va [3u] tovushlari oʻzaro farqlanmaydi: : socks, soaks - [soks], not, note - [not]
5. do feʻli, to predlogi [do], [to] tarzida talaffuz qilinadi;
6. arm, after, grass kabi soʻzlarda [a:] tovushi oʻrniga [s] talaffuz qilinadi: after [ʻsflo].
7. -ing qoʻshimchasi [in] tarzida talaffuz qilinadi;
8. [9r] ning oʻrniga U r] talaffuz qilinadi: through [Jru:].

4. 2. Ingliz tilining qitʼalararo hududiy variantlari va ularning oʻziga xos xususiyatlari

4. 2. 1. Ingliz tilining Amerika qitʼasida tarqalgan variantlari

XVII asr boshlarida yangi qitʼaga olib kelingan ingliz tili oʻtgan davrlar mobaynida standart ingliz tilidan oʻziga xos jihatlari bilan farqlana boshladi. Ushbu jihatlarni asosan fonetik va leksik sathda, shuningdek, baʼzi qoidalarga

asoslangan grammatik sathda ham ko‘rish mumkin. Lekin, bular ingliz tilining ikki ko‘rinishi alohida ikki til deya tan olinishi uchun yetarli sabab bo‘la olmaydi. Shuning uchun Shimoliy Amerikada qo‘llaniladigan ingliz tili ingliz tilining Amerika milliy varianti deb nomlanadi.

Ingliz tilining Amerika varianti Britaniya varianti bilan taqqoslanganda nisbatan kam sonli hududiy sheva va dialektlarni namoyon etadi. Buni taqozo etuvchi quyidagi tarixiy va ijtimoiy omillarni hisobga olish darkor deb o‘ylaymiz: Amerikaga olib kelingan ilk standart ingliz tilining hali ham amalda ekanligi; ko‘p sonli aholi, ichki migrasiya va h. k. Tilning fonetik sathi ko‘rib chiqilar ekan, uning bir turli emasligini aniqlash mumkin.

Hozirda Amerika Qo‘shma shtatlarida 3 ta madaniylashgan nutq turlari farqlanadi: Sharqiy, Janubiy, G‘arbiy yoki Umumiy Amerika dialekti.

1. Umumiy Amerika ingliz tili (Shimoliy Amerika turi yoki G‘arbiy Amerika turi deb ham yuritiladi) aksenti - G‘arbiy Ohayodan boshlab o‘rta g‘arbiy va Tinch okeani sohillaridagi shtatlargacha o‘z ichiga oladi. Bu aksentlarda janubiy va sharqiy aksent xususiyatlari sezilmaydi ⁵⁰ Ingliz tilining Umumiy Amerika turi AQSHda standart talaffuz sifatida qabul qilingan. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘lgan. Umumiy Amerika turi radio va televideniye miqyosida qo‘llaniladigan tur hisoblanadi, shuningdek, ilmiy, madaniy va tijoriy sohalarda olib boriladigan ishlarning asosiy qismida undan foydalaniladi.

2. Sharqiy tur dialekti Yangi Angliya shtatlari va Nyu York shahrida so‘zlashiladi. Unda janubiy dialektga xos ayrim xususiyatlar namoyon bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari ham ahamiyatga molikdir.

3. Janubiy Amerika aksentlari AQSHning janubi va janubiy- sharqiy shtatlarida foydalaniladi va o‘z ichiga Virjiniya, Shimoliy Karolina, Janubiy Karolina, Tennesi, Florida, Alabama, Jorjiya, Missisipi, Arkanzaz, Luiziana, Texas shtatlari va Merilend, G‘arbiy Virjiniya va Oklaxomaning ba’zi qismlarini oladi. Ushbu tur dialektlari o‘zining muhim jihati - talaffuzda

50 Shaxbagova, J. Varieties and dialects of English. Moscow State Foreign Languages Press, 1982, 115

unlilarning cho‘zilishi, ya’ni unlilar talaffuzining maxsus shakliga ega. Bunda ba’zan sof unlilarning diftong yoki hattoki triftongga aylanishishi kuzatiladi.

AQSHdagi standart talaffuz borasidagi fikrlar juda xilmaxildir. Ba’zi olimlar Umumiy Amerika aksentini mamlakatning milliy standart talaffuzi degan fikrni tasdiqlaydilar, ba’zi tilshunoslarlar esa aksincha, mamlakatda hech qanday milliy talaffuz standarti mavjud emas degan fikrni beradilar. Ammo, bir necha tasdiqlangan faktlarga ko‘ra Umumiy Amerika aksenti mamlakat ommaviy axborot vositalari tomonidan qo‘llaniladi.

Umumiy Amerika aksenti talaffuz me’yorlarini tahlil qilib unlilarning quyidagi xususiyatlarini aniqlash mumkin:

1. Umumiy Amerika shevasida unlilarning cho‘ziq yoki qisqaligini ta’minlovchi qat’iy tafotutlar mavjud emas. Lekin ba’zi amerikalik fonetiklar Umumiy Amerika shevasida ma’lum unlilarning cho‘ziq ekanligini ta’kidlaydilar: [i:] seat so‘zida, [u:] pool so‘zida.

2. Unlilar artikulyasiyasining doimiylik klassifikatsiyasi Umumiy Amerika shevasida munozarali mavzu hisoblanadi. Ushbu shevada ba’zi diftonglar bifonemik birikma hisoblanadi. Umumiy Amerika shevasida fonemalar sonida ham nomutanosibliklar mavjud, ya’ni ular 3 tadan 12 tagacha degan turli fikrlar mavjud. D. A. Shaxbagova Umumiy Amerika shevasida 5 ta diftonglarni sanab o‘tadi: **[ei], [ai], [ai], [au], [ei]**⁵¹.

3. Umumiy Amerika shevasidagi diftonglar va unlilarning turlicha talqin etilishining muhim sababi unli va undosh o‘rtasida yoki unli va silense o‘rtasida **[r]** tovushining talaffuzi bilan bog‘liq: **rurn [t3: rn], bird [b3: rd], star [sta: r]**.

3. Ch. Tomas **[r]** unlidan keyin kelsa va so‘zni yakunlasa bu tovushning undoshlashganligini va bo‘g‘insiz ekanligini ta’kidlaydi. **far** so‘zidagi **[r]** tovushi britaniyaning qabul qilingan talaffuz standartidagi **[fa:]** so‘zidagiga nisbatan bo‘g‘inni aniqroq yopadi. Bundan tashqari, **bird, murmur** kabi so‘zlarda unlidan keyin va undoshdan oldin kelganda **[r]** vokal va uning

51 Shaxbagova, J. Varieties and dialects of English. Moscow State Foreign Languages Press, 1982

unliga o'xshash talaffuzi kuzatiladi. Ch. Tomas bunday hollarda **bird**, **murmur** kabi so'zlarning transkripsiyasini **[brd]**, **[mrmr]** shaklida yozishni taklif etadi. Bunda **[r]** bo'g'in ichida unli tovush talaffuzini, shuningdek, bo'g'in xususiyatini ham ta'minlaydi. V. A. Vasilev buni bo'g'inli **[r]** emas, aksincha, so'zning unli tovushi deb ta'riflaydi: **bird** - **[z:]**, **corn** - **[E:]**.

4. Umumiy Amerika variantida unlilar talaffuzining yana bir o'ziga xos jihati ularning nazal undoshlardan keyin kelganda nasalizasiyalashuvidir. Bu holat odatda amerikacha twang deb nomlanadi va ko'p hollarda tasodifiy bo'lgani uchun fonemik transkripsiyada ko'rsatilishi shart emas.

5. Umumiy Amerika variantida old unlilar talaffuzi Britaniyaning Qabul qilingan talaffuz standartlaridan farqi shundaki, **[i]** so'z oxiri holatida (**very**, **p^{ty}** so'zlarida) hattoki diftongga aylanishi mumkin. **[ye]** unlisi esa Umumiy Amerika variantida ko'proq ochiq sanaladi va **[p]**, **[t]**, **[k]** undoshlaridan oldin diftonglashuvi mumkin: : **let** [lsot].

6. Umumiy Amerika variantida mavjud 4 ta aralash va markaziy unlilar **[z]**, **[e]**, **[^]**, **[a]** qabul qilingan standart talaffuz unlilarida artikulyasiyada farqlanadi.

7. Britaniyaning Qabul qilingan talaffuz standartidagi **[e]**, **[sh]**, **[:]** unli Umumiy Amerika variantida **[a]** and **[j]** unlilari bilan ifodalanadi. Bu esa har ikkala variant o'rtasidagi artikulyatsion farqni keltirib chiqaradi ko'plab so'zlarda namoyon bo'ladi. Masalan:

Qabul qilingan standart talaffuz Umumiy Amerika varianti

Dad

Dog	M	[a]
-----	---	-----

Path	[a:]	M
------	-------	---

Danse	[a:]	M
-------	-------	---

Half	[a:]	
------	-------	--

Tadqiqotlar natijasida amerikaliklarning 2/3 qismi **[r]** tovushini talaffuz etadilar va 1/3 qismi esa uni talaffuz qilmaydilar. Shunga ko'ra Umumiy

Amerika shevasi rotik hisoblanadi. Masalan, far, core soʻzlarida bunday holat yaqqol seziladi.

Ingliz tilining Amerika variantini Buyuk Britaniya variantidan farqini shu bilan izohlash mumkinki, Shimoliy Amerikaga dastlab koʻchib kelganlar (1607) London va uning atrofidan, keyingilari esa Shimoliy Britaniya va Irlandiyadan kelishgan. AQSH ingliz tili variantida Britaniyadagi singari yorqin ifodalangan shevalar yoʻq. Professor X. Kurat tahriri ostida chiqqan "AQSH va Kanadaning tilshunoslik atlasida" (1939) yetti sheva, shu jumladan, tarqalishi hududi jihatidan eng salmoqli boʻlgan AQSHning markaziy va shimoliy viloyatlari shevalari ajratib koʻrsatilgan; u AQSHda asosiy adabiy meʼyor hisoblanadi.

Ingliz tilining Amerika va Buyuk

Britaniya variantlari oʻrtasidagi farq leksikada va maʼlum darajada fonetikada namoyon boʻladi; grammatikadagi farq sezilarli emas.

Britaniya va Amerika ingliz tili variantlari oʻrtasida keng tarqalgan orfografik xilma-xillikni ham tartibli tizim asosida ham maxsus oʻziga xoslikda koʻrish mumkin. Masalan, Britaniya ingliz tili variantida mavjud boʻlgan **favour, colour** soʻzlari Amerika variantida **favor, color** shaklida yoziladi. Idiosinkrazik orfografik qoidalarni **tyres - tires, kerb - curb** soʻzlarida uchratish mumkin. Ahamiyatli jihati shundaki, Britaniya bilan oʻzaro tarixiy bogʻliklik tufayli Kanadada qoʻllaniladigan ingliz tili Britaniya ingliz tili variantining orfografik qoidalariga asoslanadi. Ammo koʻp hollarda bu tafovut ogʻzaki nutqda namoyon boʻlmaydi.

Britaniya va Amerika ingliz tili variantlari oʻrtasidasi asosiy farq quyidagi prinsiplarga asosida koʻrish mumkin.

Unli va undosh tovush talaffuzi, shuningdek, soʻzning urgʻu va ohangidagi farq Britaniya va Amerika shevasining vujudga kelishiga sabab boʻlgan asosiy omillardan biridir.

- Rotik (tovushlar talaffuzining buzilishi) aksentning mavjudligi
- Unli tovushlar talaffuzidagi xilmaxillik. Bu ayniqsa, [ei] diftongi, [yu], [j], [ju:] tovushlarining talaffuzida seziladi.

- Undosh tovushlar talaffuzidagi noo‘xshashlik. t harfining turlicha talaffuzi bunga misol bo‘ladi.

- Urg‘udagi farq. Asosan fransuz tilidan kirib kelgan so‘zlar, -ate va -atory kabi ma’lum suffikslardagi urg‘u orqali namoyon bo‘ladi.

- Artikulyasiyadagi farq - Amerika ingliz tili variantida urg‘usiz bo‘g‘inlarni aniq talaffuz etishga moyillik bo‘lsa, Britaniya variantida bu holat sezilmaydi.

- Ingliz tilining Amerika variantida so‘z boshida yoki unlilar oldida (initial or prevocalic position) jami 39 ta yondosh undosh keladi: [pr, tr, fr, gr, dr, kr, r, br, r, st, sp, sm, sk, sn, sf, sl, pl, kl, bl, fl, gl, dw, kw, tw, sw, hw, w, kj^ˈ, mj^ˈ, bj^ˈ, p^ˈ, vj^ˈ, hj^ˈ, str, skr, spr, spl, skw]⁶.. Ingliz adabiy tili talaffuz normasi (received pronunciation)da esa yuqoridagi yondosh undoshlardan [hw] uchramaydi.

Har ikkala variant o‘rtasidagi leksik farqni quyidagi hollarda ko‘rish mumkin. Ba‘zan har ikki variantda mavjud bo‘lgan so‘zlar boshqa ma’nolarni anglatadi:

Britaniya varianti	Amerika varianti
Autumn	Fall
Cellar	Basement
Underground	Subway
Ground floor	1st Floor
1st floor	2nd floor
Flat	Apartment
Elevator	lift
TV	telly
Hood	bonnet
Cookies	biscuits
Gas/gasoline	petrol
Can	tin
Line	queue

Washcloth/facecloth	flannel
Second floor	first floor
Flashlight	torch
Trunk	boot
Dessert	pudding
Exit way out	

Quyida kiyim va aksessuarlar nomini ifodalovchi soʻzlarning Britaniya va Amerika variantiga xos boʻlgan shakllari berilgan:

<i>anorak</i>	Kurtka	<i>Windbreaker</i>
<i>mackintosh</i>	Yomgʻimpoʻsh	<i>raincoat</i>
<i>Tights</i>	Kolgotki	<i>panty hose</i>
<i>trousers</i>	Shim	<i>Pants</i>
<i>pants</i>	Kalta shim	<i>shorts</i>
<i>dungarees</i>	Kombinezon	<i>overalls</i>
<i>knickers</i>	Shimsimon kalta tor kiyim	<i>panties</i>
<i>trainers, plimsolls</i>	Sport oyoq kiyimi	<i>sneakers, tennis/gym shoes</i>
<i>dressing gown</i>	Xalat	<i>bathrobe robe</i>
<i>nightdress</i>	Tungi koʻylak	<i>nightgown</i>
<i>Checked</i>	Katak-katak	<i>Plaid</i>
<i>dinner jacket</i>	Smoking	<i>Tuxedo</i>
<i>boiler suit</i>	Maxsus ish kiyim	<i>coveralls</i>
<i>Vest</i>	Ich kiyim	<i>undershirt\waistcoat</i>
<i>polo neck</i>	Toʻqilgan yoqa	<i>turtle neck</i>
<i>jumper, jersey, pullover</i>	Jemper	<i>Sweater</i>
<i>Swimming costume, swimsuit</i>	Choʻmilish kiyimi	<i>bathing suit</i>
<i>wellies, wellingtons</i>	Rezina etik	<i>rubber boots</i>

<i>Y-fronts</i>	Kalta ishton	<i>underpants</i>
<i>Brooch</i>	To‘g‘nog‘ich	<i>Pin</i>
<i>hair pin</i>	Shpilka	<i>bobby pin</i>
<i>Handbag</i>	Ayollar sumkasi	<i>Purse</i>
<i>Purse</i>	Hamyon	<i>Purse</i>
<i>suspenders, suspender belt</i>	Podtyajka	<i>garters, garter belt</i>
<i>nail varnish</i>	Tirnoq bo‘yog‘i	<i>nail polish</i>
<i>Wallet</i>	Katmon	<i>Billfold</i>

Quyidagi so‘zlar Britaniya va Amerika ingliz tili variantlariga mansub orfografik farqni ko‘rsatadi:

Amerika varianti

Britaniya varianti

Color, favor

colour, favor

License, defense

licence, defence

Burned, spilled

burnt, spilt

Analyze, organize

analyse, organyse

Center, theater

centre, theatre

Judgment, abridgment

judgement, abridgement

Dialed, canceled

dialed, cancelled

Installment, skillful

instalment, skilful

Tire

tyre

Curb

kerb

Program

programme

Pajamas

pyjamas

Check

cheque

Ton

tonne

<i>Catalog</i>	<i>catalogue</i>
<i>Czar</i>	<i>tsar</i>
<i>Cozy</i>	<i>cosy</i>
<i>Offense</i>	<i>Offence</i>
<i>Jewelry</i>	<i>jewellery</i>
<i>Traveling</i>	<i>travelling</i>

Ingliz tilining Amerika variantini Britaniya variantidan farqi oz bo'lsa-da, grammatik sathda ham seziladi. Tugallangan hozirgi zamon yaqin o'tgan zamonda sodir bo'lgan va natijasi hozirgi vaqtga taaluqli bo'lgan ish- harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: *I've lost my key. Can you help me look for it?* Amerika ingliz tili variantida esa quyidagi holat ham o'rinli hisoblanadi: *I lost my key. Can you help me look for it?*

Britaniya ingliz tili variantida yuqoridagi holat noto'g'ri sanalsa, Amerika variantida har ikki holat ham qo'llanishi mumkin. Shuningdek, *already, just, yet* payt ravishlari bilan bog'liq bo'lgan bir necha tavofutli holatlar ham mavjud.

Britaniya ingliz tili varianti:

I've just had lunch.

I've already seen that film.

Have you finished your homework yet?

Amerika varianti:

I just had lunch yoki I've just had lunch.

I've already seen that film yoki I already saw that film.

Have you finished your homework yet? yoki Did you finish your homework yet? Have/have got fe'lining ishlatilishi bilan bog'liq quyidagi holatlar ham o'zaro grammatik farqni ko'rsatadi:

Do you have a car?

Have you got a car?

He hasn't got any friends.

He doesn't have any frineds. She has a beutiful new home.

Yuqoridagi holatlar ingliz tilining ikkala variantida to'g'ri hisoblansa-da, *have got* Britaniya ingliz tili variantida afzal ko'riladi. Amerika variantida *have* fe'lining qo'llanilishi ko'proq uchraydi.

Gapda predloglarning qo'llanilishi bo'yicha ham o'ziga xoslik uchrayab turadi:

Britaniya ingliz tili varianti	Amerika ingliz tili varianti
<i>at the weekend</i>	<i>on the weekend</i>
<i>in a team</i>	<i>on a team</i>
<i>Please, write to me soon</i>	<i>Please, write me soon</i>

Britaniya variantidan farqli ravishda ba'zi otli jumlar payt yoki o'rin-joyini ko'rsatish jarayonida Amerika variantida artikl bilan qo'llaniladi. Masalan:

Amerika varianti

In the hospital To the university The next day

Britaniya varianti

in hospital to university next day

Kishilar, tashkilotlar jamoasini yoki guruhini bildiruvchi ba'zi umumiy otlar Britaniya variantida ko'plik shaklda, Amerika variantida esa birlik shaklda ishlatiladi:

Cornell is ahead by two.

Manchester are ahead by two.

Biroq har ikki variantda ham gapda *police* so'zi bilan birga fe'lining ko'plik shakli qo'llaniladi. *The police are attempting to assist the neighbors.*

do yordamchi fe'lining qo'llanilishi har ikkala variant o'rtasidagi Grammatik farqni yanada kengroq ko'rsatadi.

1889 - yilda tashkil etilgan Amerika Dialekt Jamiyati tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan izlanishlar va hududlardan jamlangan mahalliy shevalarda uchraydigan so'z va atamalar Amerika Dialekt Jamiyatining *Dialect Notes* jurnalida (1890-1939) va boshqa nashrlarida (1944-) chop etib borildi.

Lekin jamiyatning bunday katta hajmli loyiha ishini tizimli olib borishi uchun yetarli rejaning mavjud emasligi, shu bilan birga ketma-ket sodir bo'lgan Birinchi va Ikkinchi Jahon Urushi, AQSH tarixidagi depressiv yillar unga kattagina ta'sir ko'rsatdi. 1962 yilda kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan lug'atning bosh muharriri etib tayinlangan Viskonsin universiteti professori Fred Kassidi 1965-1970 yillar davomida Qo'shma Shtatlar bo'ylab 1002 ta jamoalarda 80 dan ortiq tadqiqot ishlarini olib bordi. Turli ish-harakat va predmetlar nomini aniqlash uchun tuzilgan 1600 dan ortiq savollar bilan 3000 dan ziyod kishilar o'rtasida izlanish ishlari olib borildi. Tadqiqot jarayonida asosan eski so'zlarni ko'proq yig'ishga harakat qilindi. Chunki, bu so'zlarni qo'llaydigan kishilar avtomobil, samolyot, telefon, radio, televizor, umumiy elektr ta'minoti, qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash kabi jamiyat hayotining keskin o'zgarishlariga guvoh bo'lganlar va ular hanuz o'tgan asrga taaluqli bo'lgan ba'zi buyum va hodisalar uchun maxsus atamalardan foydalanadilar.

XX asrning 40-yillaridan boshlab sharqiy qo'shma shtatlarga mansub bo'lgan lug'at namunalarini o'rganish uning shimoliy o'rta yerlar va janubiy hududiy shevalarga bo'linishi mumkinligini ko'rsatdi. O'z navbatida o'rta yerlar shevasining shimoliy va janubiy turlari mavjud bo'lib, Boston, Nyu York metropoliteni shevasi shimoliy sheva turiga mansub hisoblanadi. Illinoys, Indiana, Ohayo kabi o'rta g'arbiy shtatlar shevasi shimoliy o'rta yerlar shevasiga xos deb hisoblanib, ularning shimoliy hududlari shimoliy nutq shevasini, aksincha janubiy hududlari janubiy o'rta yerlarga xos bo'lgan nutq shevasini aks ettiradi.

Amerika qo'shma shtatlarida sheva xaritasini yaratish uchun dialektologlar amalda foydalanilayotgan lug'at, talaffuz va grammatika namunalarini ko'rib chiqishdi. Bunda, tadqiqotchilar ma'lum so'rovnomalar orqali shahar va mamlakat bo'ylab o'tkazilgan so'rovnomalar orqali hududlardagi mahalliy aholining ma'lum predmetlarni qanday nomlashini ko'rsatib berdilar.

Ushbu izlanish natijasida Qo'shma Shtatlarning ikki asosiy dialekt guruhi aniqlandi.

Amerika Hududiy Ingliz tili Lug'ati (DARE - Dictionary of American Regional English) mualliflari tashabbusi bilan Qo'shma Shtatlar va Kanada lingvistik atlasini tuzish uchun olib borilgan loyiha natijasida bir qator hududiy xilma-hilliklar aniqlandi. Misol tariqasida standart ingliz tilida **dragonfly** so'zi orqali ifodalanadigan NINACHI so'zi Yangi Angliya shtatlari, Nyu York, Nyu Jersi, Long Aylend va Shimoliy Pensilvaniya shtatlarida **darning needle**, Shimoliy Karolina va Virjiniyaning sharqiy sohillarida **mosquito hawk**, Virjiniyaning markaziy hududlarida **snake doctor**, Vest Virjiniya, Ohayo, Pensilvaniyaning g'arbiy tomonlari va Ohayo vodiysining yuqori qismlarida **snakefeeder** nomi bilan ifodalanishini olishimiz mumkin. **Dictionary of American Regional English** lug'ati 1985 yildan boshlab Harvard universiteti tomonidan nashr qilib kelinmoqda

Ingliz tilining Kanada variantiga Amerika va Britaniya shevasining ta'siri bo'lishi bilan birga, Kanadada ingliz tilining faqat shu davlatning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari ham mavjud. Aynan Kanada variantidagina mavjud bo'lgan so'zlar **kanadianism** deb yuritiladi. Bunday so'zlar odatda Kanadadan tashqarida qo'llanilmaydi. **shack** - "**a hut**", **fathom out** - "**to explain**" so'zlari bundan mustasno.

Kanada ingliz tili varianti Kanadada qo'llaniladigan ingliz tili turlarini o'z ichiga oladi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Kanada aholisining 57 foizi (19 million) uchun ingliz tili ona tili hisoblanadi. Mamlakat aholisining 22 foizi uchun fransuz tili ona tili, 21 foizi uchun boshqa mahalliy tillar ona tili vazifasini o'taydi. Mamlakat bo'ylab ingliz tilidan foydalanuvchilar soni 28 milliondan oshadi. Tildan foydalanish darajasi shaharlar bo'yicha turlicha taqsimlangan. Masalan, yirik shaharlardan biri Kvebekda ingliz tilida so'zlashuvchilar shahar aholisining 7.7 foizini tashkil qiladi.

Kanada ingliz tili varianti Britaniya va Amerika ingliz tili variantlarining ko'plab elementlari bilan birga faqat ushbu variantgagina xos bo'lgan jihatlarga

(kanadianizmlar)ga ega. Bu jihatlar tilning fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaksis sohalarida, ayniqsa, til leksikasida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, Kanadada qo‘llaniladigan ingliz tili varianti dunyo bo‘ylab “Umumiy Amerika varianti” sifatida tanilgan Amerika ingliz tili variantiga juda yaqin hisoblanadi. (Yevis, 1954) Shu sababli, ingliz tilining turli variantlari fonologik klassifikasiyasida Kanada ingliz tili varianti va Amerika ingliz tili varianti Shimoliy Amerika ingliz tili varianti sifatida bir guruhda jamlanadi. Ushbu ikki variant o‘rtasidagi farq juda kam bo‘lib, ushbu nomutanosibliklarni turli shevalarda sezish mumkin.

Kanada ingliz tili varianti atamasi birinchi bo‘lib Reverend Konstabl Geyki tomonidan 1857 yilda qo‘llanilgan. Kanada ingliz tili varianti ikki asrdan ziyodroq vaqt mobaynida mamlakatga kirib kelgan immigrantlar to‘lqini ta’siri ostida shakllangan. Amerika Revolyusiyasi davrida hozirda Kanadaning ingliz tilida so‘zlashuvchi aholisi eng ko‘p joylashgan hududlariga kelib o‘rnashgan qochoqlar o‘zlari bilan birga Amerikaning Atlantika sohillari shtatlarining shevalarini olib kelib mamlakatga tarqatganlar. Shu asos tufayli ko‘p tilshunoslar Kanada varianti Amerika variantining bir bo‘lagi sifatida shakllangan degan fikrni ilgari suradilar. Kanada ingliz tili variantining tarixiy rivojlanishi chuqur tadqiq etilmagan, lekin, so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilining ushbu varianti XIX asr boshlaridanoq o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan.

Kanadada qo‘llaniladigan edusated ingliz talaffuzi Umumiy Amerika varianti bilan qator o‘xshashliklarga ega, shu bilan birga Ingliz tilining Kanada varianti mamlakat aholisining asosiy qismi, ya’ni 14 million kishi tomonidan qo‘llaniladi. Fransuz tili aholining 4 million kishisi uchun ona tili hisoblanadi. Tipik Kanada varianti Britaniyaning qabul qilingan standartlariga nisbatan ingliz tilining Amerika varianti bilan o‘zaro mutanosibdir. Ushbu ikki variant o‘rtasidagi o‘xshash jihatlar orasida eng ahamiyatlisi bath so‘zidagi kabi [j] tovushi va [t] tovushining talaffuzi. (Wyells 1982: 491).

Ingliz tilining Kanada va Amerika variantining har ikkalasida ham [t], [d] alveolar tovushlarining ikki unli orasida flapping - intervocal [t], [d] talaffuz qilinishi kuzatiladi. Masalan, waiting - wading, seated - seeded, writer - rider. Kanada variantida bu holat yosh bilan bog'liq bo'lib, katta yoshli so'zlovchilarga nisbatan yoshlar orasida bu holat ko'proq kuzatiladi.

Shuningdek, Kanada variantini Amerika variantidan farqlovchi o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Kanada variantining bunday jihatlari "Canadian raising" deb nomlanadi. Kanada variantidagi [ai] va [au] diftonglari jarangsiz undoshlardan oldin qabul qilingan standartlardagi kabi quyi emas, balki, o'rta markaziy nusxasiga aylanadi. Masalan, price, mouth, pipe, while, like, nice, out, south, couch kabi so'zlarda [ai] = [oi] va [au] = [ʌu] tarzida talaffuz etiladi. Masalan, quyidagi gap talaffuz qilinganda unda tilning Kanada variantining o'ziga xos xususiyatlari yaqqol seziladi:

I saw the White House. [ai'sa de \hweit, hʌus]

merry - marry - Mary so'zlarida [ye]-[j]-[yee] tovushlari o'rtasida farq deyarli sezilmaydi. Bu holatda faqatgina [s] tovushini talaffuz qilinishi kuzatiladi. hurry, courage, current, worry kabi so'zlarda qabul qilingan talaffuz standartlaridan [A] tovushi o'rniga [zr] tovushi talaffuz qilinadi.

4. 3. Ingliz tilining Yevroosiyo hududida tarqalgan variantlari

4. 3. 1. Janubiy Osiyo ingliz tili variantlari

Janubiy Osiyo ingliz tili varianti hududiy jihatdan xilma-xillikka ega bo'lib, uning Hindiston ingliz tili varianti, Shri Lanka ingliz tili varianti, Pokiston ingliz tili varianti kabi ko'rinishlari mavjud. Singapur-Malayziya ingliz tili varianti asosan malay va uning boshqa til bilan qorishgan shakllariga xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon etadi. Janubiy Osiyoda ingliz tilining bir necha dialektlari qo'llaniladi. Bunga sabab Janubiy Osiyoda nepal, hind, panjob, rajastan, sindi, balochi, bengal, gujarat, telegu kabi o'nlab tillarning

mavjudligidir. Ularning har biri ingliz tilining turli shevalari yaralishiga turtki bo'lgan.

Ingliz tilining har qanday ikkinchi til varianti tilning yangi bir jamiyatga kirib borishi va uning shu jamiyatdagi sosio -kultural munosabatlari bilan to'qnashuvi mahsulidir. Jahon tilshunosligida ingliz tilining ikkinchi til variantlari bo'yicha ko'plab tilshunoslar va olimlar ish olib borganlar va ingliz tilining ikkinchi til variantlarining turli aspektlarini ifodalashda turli atamalardan foydalanganlar. Xususan, G. Uilyams (1987) Ingliz tilining institutlashtirilgan ikkinchi til variantlari; B. Kachru (1981. 83) Jahon ingliz tillari, Ikkinchi til ingliz tillari; E. Shneyder (2003) Yangi ingliz tillar; Ch. Kuirk (1981) Ingliz tilining interferent variantlari; T. MkArtur (1998) Ingliz tilining Standart variantlari; S. Sridar (1996) Ingliz tilining mahalliy variantlari va boshqa atamalardan foydalanganlar. Bu atamalar o'zaro sinonim bo'lib, ingliz tilining turli ikkinchi til variantlarini ifodalaydi va ularni o'rganishga qaratilgan. Ingliz tilining turli variantlari va ular orasida Ingliz tilining hind varianti egallagan o'rnini chuqur o'rgangan hind tilshunosi B. Kachru ingliz tilining turli variantlari munosabatini to'g'ri ifodalashda Doira Konsepsiyasiga tayanadi (B. Kachru, 1982; B. Kachru 1985; B. Kachru, 1990; B. Kachru, 2005.). Tildan foydalanuvchi mamlakatlar klassifikasiyasida u asosan, tildan foydalanuvchilarning tilni egallaganlik darajasini hisobga olishni taklif etadi. Mamlakatning turli tabaqalardan iborat bo'lgan jamiyatdan tarkib topganligi va uning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi tufayli B. Kachru Hindistonni Tashqi doira tarkibiga kiritishni taklif etadi. Ch. Quirk (1990) esa Hindistondagi ingliz tilining maqomini Tashqi doiraga kiritishni ma'qullamaydi. Modiano modeliga ko'ra esa ingliz tilining Hindiston variantini aniq bir pozisiyaga qo'yish noo'rin hisoblanadi, chunki ushbu mamlakatda tildan foydalanuvchilar uni turli darajada egallaganliklari ma'lum.

Yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, ingliz tilining Hindiston varianti turli tilshunoslar tomonidan turli pozisiyalar va turli talqinda o'rganilgan.

Janubiy Osiyo mamlakatlari Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Nepal, Shri Lanka va Butan o'zaro o'xshash lingvistik va madaniy xususiyatlarga ega. Ingliz tilining ushbu mamlakatlarda tarqalgan hududiy variantlarini o'rganishda ushbu o'zaro o'xshashliklarni hisobga olish muhim sanaladi. Shunga ko'ra B. Kachru (1986) ingliz tilining Hindiston subkontinentida qo'llaniladigan variantini ifodalashda Janubiy Osiyo Ingliz tilisi atamasini qo'llaydi. U o'zining qator ishlarida Janubiy Osiyo ingliz tilisining ba'zi jihatlarini fonologik, grammatik, leksik sathda va so'z birikmalari bo'yicha ko'rsatib o'tadi. Fonologik o'ziga xoslikni ayniqsa, so'z boshi pozitsiyasida /sk/, /sl/, /sp/ undosh harflar birikmasining talaffuz etilmasligi kabi jihatlar orqali qayd etadi. Grammatikada esa bunday jihatlar so'roq gaplar, tasdiq so'roq gaplarning qo'llanilishi va artiklning takroriy va tartibsiz ishlatilishi kabi hollarda ko'rinadi. Janubiy Osiyo ingliz tilisida standart ingliz tilidan farqli so'z birikmalarning mavjudligi Janubiy Osiyo tillaridan ingliz tiliga tarjima qilingan so'z va iboralarning tarjima qilinishi (twice-bom, co-brother-in-law) natijasida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilining "Global til" maqomi Osiyo va Afrika mamlakatlarida ingliz tilida so'zlovchilarning madaniy va pragmatik ehtiyojlarini amalga oshiruvchi vosita hisoblanadi. Ushbu davlatlarda ingliz tilining sosio - kulturologik va pragmatik sohalarda ekstensiv qo'llanilishi natijasida ingliz tilining shu variantlariga xos individualliklari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Ingliz tilining Hindiston variantiga xos individuallik uning leksik-semantik, sintaktik, fonologik va stilistik xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, leksika til strukturasining asosiy kategoriyasi hisoblanadi. Biror tilning o'ziga xos xususiyatlarini uning leksik jihatlarini chuqur o'rganish orqali erishish mumkin. Ingliz tilining hind variantining bu jihatlarini tilshunos olimlar Hosali, Shastri, Parasher, Nihlani va Kachru tomonidan o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida leksik-semantikaning quyidagi sub-kategoriyalari tadqiq etilgan:

1. Ingliz tilining Hindiston variantiga xos so'z birikmalar ushbu variantning ingliz tilining boshqa variantlaridan farqini yaqqol namoyon etadi.

Masalan, **America-returned, England-returned, three-eyed, eating- leaves** va h. k. boshqa tillardan tarjima qilingan ba'zi so'zlar faqat hind variantidagina biror bir ma'noga ega: **twice-born, dining-leaf, waist-thread**; (Kachru, 1983).

2. O'zlashtirma so'zlar: Hindi, Urdu va boshqa hind tillaridan olib kirilgan ba'zi so'zlar ingliz tilining hind varianti lug'at tarkibiga kiritilishi mumkin: **bondh, lakh, crore, bandicoot**;

3. So'z birikmalarining noto'g'ri shakllanishi: **to have ears bored (pierced), affable (polite), shoe-biting (hurting/pinching)**;

4. So'z ma'nosining kengayishi: **cot** - standart ingliz tilida bolalar krovati yoki kasalxonadagi krovatni ifodalaydi, hind variantida esa uning ma'nosi kengroq va har qanday yotoq krovatini ifodaydi;

5. Neologizmlar: standart ingliz tilida mavjud bo'lmagan so'zlarning yaratilishi: affiks qo'shish orqali - **freeship - free studentship**, model asosida yangi so'z yaratilishi - **car-lifter (car thief), cycle-lifter (cycle thief)**, qo'shma so'zlar - **chilli-green, chutney-green (sea-green, bottle-green)**

Ingliz tilining hind variantidagi o'ziga xosliklarni yana quyidagi holatlarda ham ko'rish mumkin:

Standart ingliz tilida davomli zamon shaklida qo'llanilmaydigan **hear, see, know** kabi fe'llar hind variantida "**be+V+ing**" strukturasi bo'yicha ishlatilishi mumkin. Kachru (1969) ushbu holatning asosiy sababi sifatida mahalliy tillarda bunday keskin ta'qiqning mavjud emasligini ko'rsatadi.

Gapda so'zlarning (ayniqsa, sifatning) takroriy qo'llanilishini semantikada va sintaksisda ham uchratish mumkin: **He sells different, different things. I like hot hot coffee.**

So'roq gap strukturasi ba'zan grammatik nostandart shakl qo'llanilishi kuzatiladi. Masalan, so'roq gapda yordamchi fe'lning egadan keyin kelishi: **What you would like to eat? Where you are going?**

Tilshunoslikda S. K. Vermaning olib borgan izlanishlari natijasida ingliz tilining hind variantida mavjud bo'lgan sintaktik nomutanosibliklar aniqlandi. Uning lingvistik tahlillari (1972) Hindiston ta'lim muassasalari ingliz tili

o'qituvchilari va milliy bank ma'muriy xodimlari tomonidan qo'llaniladigan ingliz tili bo'yicha olib borildi. Ushbu tahlillar natijasida ingliz tilining hind variantiga xos bo'lgan quyidagi sintaktik strukturalar aniqlandi:

1. Zamonlar moslashuvida:

When I met him yesterday he said he is coming.

When I met him yesterday, he said he was coming.

2. Shart-ergash gaplarda:

If it will rain this evening we will not go out.

If it rains this evening, we will not go out.

3. O'zlashtirma so'roq gapda:

Do you know where does he live?

Do you know where he lives?

4. Tasdiq so'roq gaplar:

You are coming, no?

You are coming, aren't you?

5. Zamon va signal so'zlar moslashuvida:

I have visited that place only last year.

I visited that place only last year.

6. Maxsus so'roq gaplarda:

What you say, Mr. Prasad?

What do you say, Mr. Prasad?

I consider that he is a fool.

I consider him (to be) a fool.

7. Hozirgi davomli zamonda ba'zi fe'llarning qo'llanilishida:

We are not having these items today.

We do not have these items today.

8. Gapda so'z tartibida:

Your both hands are dirty.

Both your hands are dirty.

The three young men who visited you yesterday, they have come again to see you.

The three young men who visited you yesterday have come again to see you.

Yuqoridagi kabi holatlar ko'rsatadiki, ingliz tilining hind varianti boshqa ikkinchi til variantlar kabi o'ziga xos sintaktik xususiyatlardan iborat noadabiiy uslubga ega.

Filippin. Filippinda qo'llaniladigan ingliz tili shevasi Amerika mustamlakachiligi boshlangan davrda kirib kelgan ingliz tilining rotik aksentiga asoslangan. Tagalog tilida [f va [v] tovushlarining yo'qligi tufayli [f] tovushi o'rniga [p], [v] tovushi o'rniga [b] talaffuz qilinadi. Masalan, ingliz tilida gapiruvchi filippinlik *fifty five* so'zini *pipit pay* tarzida talaffuz qiladi. Ushbu tovushlar talaffuzidagi imkoniyatsizlikdan tashqari filippinda ingliz tilining yagona aksenti mavjud emas. Orollardagi ko'plab mahalliy tillarning ingliz tiliga ta'siri kuchli va bu so'zlovchilar nutqida yaqqol seziladi. Masalan, ona tilisi visayan tili bo'lgan visaya xalqi talaffuzida /ye/ va /i/, /o/ va /u/ tovushlarini almashtirib talaffuz etilishi kuzatiladi.

Mamlakatning shimoliy hududlari aholisi /r/ tovushi talaffuzida qattiq tebranish mavjud. Chunki bu holat mahalliy lokan tiliga xos jihatdir. Shuningdek, lokan tilida /e/ tovushiga o'xshash tovushning mavjudligi ushbu tovushni aniq va to'g'ri talaffuzini ta'minlaydi.

Gong Kong. Gong Kongda so'zlashiladigan ingliz tili aksenti asosan Britaniya ingliz tili varianti talaffuz qoidalariga muvofiq, shuningdek, kantoniz tiliga xos undosh va unli talaffuzining ham ta'siri kuchli.

Malayziya. Britaniyaning sobiq koloniyasi bo'lgan Malayziya davlatida Ingliz tili malay tilidan keyin ikkinchi asosiy til hisoblanadi. Ingliz tilining malayziya aksentiga ingliz, xitoy, tamil, malay tillari kombinasiyasi ta'sir ko'rsatgan. Malayziya aksenti egalari talaffuzida [θ] tovushi o'rniga [t] va [d] tovushi o'rniga [d]; talaffuz qilinishi kuzatiladi, masalan: **thin** - [tin], **then** - [den],

Singapur. Singapur davlati ko'p tili mamlakat hisoblanadi. Davlat hukumati tomonidan 4ta til rasmiy til deb tan olingan: ingliz tili, malay tili, mandarin xitoy tili, tamil tili. Malayziya o'rta maktablarida asosiy til ko'nikmalari sifatida ingliz tili o'qitiladi, shuningdek, ikkinchi til sifatida ona tili, ya'ni mandarin xitoy, malay yoki tamil tillaridan biri o'qitiladi. Shuni qayd etish joizki, dunyoning boshqa ko'plab davlatlarida ona tili birinchi til tushunchasini nazarda tutsa, Singapur ta'lim Vazirligi tomonidan ona tili iborasi ikkinchi til ma'nosida qo'llaniladi.

Singapurda so'zlashiladigan ingliz tili 2 turga asoslanadi - standart singapur ingliz tili va Singlish. Mamlakat bo'ylab ikkinchi tur keng tarqalgan bolib, u malay va xitoy tilining ko'plab variantlari ta'sirida shakllangan alohida so'z ohangiga ega.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra hozirda Singapur aholisining 50 foizga yaqini uyda asosiy til sifatida ingliz tilida so'zlashadi. Shuningdek, Singapurda istiqomat qiluvchilarning 36 foizi xorijliklar bo'lib, ular mamlakatning xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchilarning 50 foizini tashkil etadi. Ishchilarning asosiy qismi mandarin xitoy tilida yoki Singlish (ingliz tilining buzilgan varianti) shevasida gapiradilar.

Avliyo Yelena orollari. Avliyo Yelena orollarida qo'llaniladigan ingliz tili mahalliy aholi tomonidan "Seynt" deb nomlanib, turli xil sheva xususiyatlarini o'zida jam qiladi. Chetdan qaralganda bu sheva Janubiy Afrika, Avstraliya, va Yangi Zelandiya shevalariga bog'liklarni namoyon etishi mumkin. "Seynt" nafaqat ingliz tilining boshqa bir talaffuz varianti emas, balki ushbu variantning o'zidagina uchraydigan so'zlarga ega masalan, **"Bite"** - **"juda achchiq"** **"us"** olmoshi **"we"** olmoshi o'rnida qo'llaniladi **"us have been shopping"**; **"done"** oddiy o'tgan zamonni ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan, *I done gone fishing (I have been fishing).*

4. 4. Ingliz tilining Avstraliya va Okeaniyada tarqalgan variantlari

4. 4. 1. Avstraliya milliy varianti

Avstraliya ingliz tili varianti ingliz tilining Avstraliya davlatida qo'llaniladigan turidir. Davlat konstitusiyasida ingliz tili rasman tasdiqlanmagan bo'lsa-da, aslida ingliz tili mamlakatning rasmiy tili hisoblanadi va mamlakat aholisining asosiy qismi uchun u ona tilidir. Avstraliya ingliz tili varianti 1788 yilda Yangi Janubiy Uels koloniyasi tashkil etilganidan keyin Britaniya ingliz tili standartlaridan uzoqlasha boshladi va 1820 yillarga kelib Britaniya ingliz tili variantidan farqli deya tan olindi.

Avstraliya ingliz tili varianti Britaniya orollarining turli sheva hududlari vakillaridan iborat bo'lgan ilk muhojirlar tillarining qorishishi natijasida vujudga kelib ingliz tilining alohida bir varianti sifatida shakllandi. Avstraliya ingliz tili varianti ingliz tilining boshqa variantlaridan lug'at, aksent, talaffuz, grammatika, orfografiya va yozuvda farqlanadi.

Avstraliya va Yangi Zelandiya dunyoning ingliz tilida so'zlashuvchi 5 ta asosiy davlatlari ichida eng yoshi hisoblanadi. Ingliz tilshunosi Kristal Avstraliya Britaniya bilan yaqin tarixiy siyosiy bog'liqlikka egaligi tufayli unda ingliz tilining Britaniya variantiga asoslangan turi qo'llanilishini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda Avstraliya aholisining asosiy qismini kelib chiqishi Britaniyaliklarga borib taqaladigan kishilar tashkil etadi. Bunda asosan London shahri va unga yondosh hududlardan kelib o'rnatilganlarning avlodlari yetakchilik qiladi. Immigrantlarning ikkinchi katta guruhini Avstraliyadagi ko'p sonli katoliklarni tashkil etuvchi irlandlar tashkil etadi. Avstraliya nomining kelib chiqishi 16 asrlarda yevropalik faylasuflar va xarita tuzuvchilarning Osiyo janubida ulkan quruqlik bor degan farazlari asosida nom olgan terra australis, "janubiy yer" degan nomdan kelib chiqqan. Metyu Flinders Avstraliya qirg'oqlarini bo'ylab suzib chiqqan va qit'a xaritasini tuzgan birinchi inson bo'lgan hamda "Avstraliya" nomini rasman qo'llagan.

Bugungi kunda Avstraliya hududi jihatidan dunyoda oltinchi o'rinda turadi (Buyuk Britaniyadan 30 marta katta). Mamlakat hududi geografik xilma-

xillikka ega bo'lmasa-da, ingliz tilining Avstraliya varianti ijtimoiy turfalikka ega. Bunda asosan tilning shevalarida farq ko'zga tashlanadi (Kristal 1995: 350).

Avstraliya variantining fonetik va fonologik xususiyatlari, talaffuzi o'z tarixiga ega. Avstraliyadagi ingliz talaffuzi lingvistik adabiyotlarda Amerika ingliz talaffuziga nisbatan juda kam o'rganilgan va tadqiq etilgan. A. G. Mitchell, A. Delbrij, S. Beyker, G. Orlov va boshqa tadqiqotchilar Avstraliya ingliz tili variantini 3ta asosiy turga bo'ladilar.

A. Mitchell ma'lumotlariga ko'ra, Avstraliya variantining eng xarakterli turi bu Umumiy Avstraliya hisoblanib, jamiyatning ziyoli va ilg'or toifa a'zolari tomonidan qo'llaniladi (avstraliyaliklarning 55 foizi).

Avstraliyada talaffuzning aniq geografik variantlari ajratilmaydi (The Cambridge Encyclopedy 1995: 350), lekin ijtimoiy faktorlarga tayanib bir necha variantlarni ajratish mumkin. Ular orasida 3 ta asosiy aksent guruhlari ajratiladi:

1. Ingliz tilining madaniy Avstraliya aksenti aholining 10 foizi tomonidan qo'llaniladi va unda Qabul qilingan talaffuzning sezilarli ahamiyati namoyon bo'ladi;

2. Aholining 30 foizi erkin Avstraliya aksentini qo'llaydi, bu aksentda Kskney talaffuzi ta'siri seziladi;

3. Umumiy Avstraliya aksenti mamlakatda eng keng tarqalgan aksent bo'lib, standart Avstraliya talaffuzi sifatida qabul qilinadi

Dastlabki Avstraliya ingliz tili varianti Yangi Janubiy Uelsning ilk mustamlakachilarining yangi qit'ada tug'ilgan farzandlari tomonidan gapirilgan. Mustamlakachilarning birinchi avlodi bo'lgan bu bolalar mamlakatning milliy tiliga aylangan yangi shevani yaratdilar. Yangi koloniya farzandlari Britaniya orollarining turli hududlari, xususan Irlandiya va janubiy-sharqiy Angliya shevalarini o'zlashtirgan edilar. Koloniyaning birinchi avlod vakillari o'zlari eshitgan turli sheva va dialektlar qorishig'idan yaratgan bu sheva hattoki keyinroq kelgan muhojirlar nutqiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, ularning shevasiga xos jihatlarni zaiflashtirdi.

Buyuk Britaniya va Irlandiyadan keltirilgan muhojirlarning asosiy qismi irlandlar edi, va ularning katta qismi ingliz tilida umuman gapira olmaydigan yoki tilni juda yomon o'zlashtirgan kishilar edilar. Bundan tashqari, Britaniyaning ingliz tilida so'zlashmaydigan aholi istiqomat qiladigan Skottish Haylendz va Uels kabi qismlaridan ham ko'p sonli mahbuslar keltirilgan.

1850 yillarda Avstraliyaga muhojirlarning katta to'liqini kirib keldi. Bunda Birlashgan qirollik aholisining 2 foizidanidan ko'prog'i Yangi Janubiy Uels va Viktoriyaga ko'chib keldi. Tilshunos olim Bryus Murning ma'lumotlariga ko'ra, "Avstraliya shevasining yaralishiga sabab bo'lgan asosiy shevalar janubiy-sharqiy Angliyaga tegishli edi".

Aborijen tillardan ham ba'zi elementlar Avstraliya ingliz tili variantiga kirib kelgan bo'lib, bunday so'zlar asosan joy nomlari, hayvon va o'simlik nomlari va mahalliy madaniyatga xos bo'lgan so'zlardir. Bunday so'zlar asosan mahalliy doirada qo'llaniladi. Xalqaro so'zlarga aylangan **Kangaroo**, **boomerang**, **budgerigar**, **wallaby** kabi so'zlar ingliz tiliga aborijen tillardan kirib kelgan. Avstraliyaning ko'plab shahar va qishloqlari joy nomlariga aborijen so'zlari o'z ta'sirini ko'rsatgan yoki aynan ana shu tillardagi so'zlar o'zlashtirilgan. Masalan, poytaxt "**Canberra**" nomi mahalliy tildagi "uchrashuv joyi" degan ma'noni anglatadi.

XIX asrlardan boshlab Amerika ingliz tili variantiga xos ba'zi so'z, atama, orfografik qoidalarining mamlakatga kirib kelish sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. **Bushwhacker**, **squatter** kabi bunday so'zlar dastlab Amerika ingliz tili variantiga xos bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ularni Avstraliya ingliz tilisida ham uchratish mumkin bo'lib qoldi.

Ingliz tilining Avstraliya variantini boshqa variantlardan farqlovchi asosiy omil uning noodatiy talaffuz shaklidir. Bu talaffuz turi asosan janubiy yarim shar, xususan Yangi Zelandiya talaffuz variantida ham uchraydi. Ingliz tilining boshqa dialektlari kabi Avstraliya varianti ham unli tovushlar fonologiyasining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Avstraliya ingliz tili variantida unli tovushlar uzunligiga qarab ikkiga bo‘linishi mumkin. Uzun unlilar, ya’ni monoftonglar va diftonglar markaziy diftonglar kabi talaffuz me’yorlari tahliliga mos keladi. Faqat monoftonglardan iborat qisqa unlilar talaffuz me’yorlarida kuchsiz unlilarga mos hisoblanadi. Uzun va qisqa unlilarning parallel holati Avstraliya ingliz tili fonetikasini boshqa variantlardan farqlanishi uchun alohida xizmat qiladi.

Ingliz tilining turli talaffuz shevalarida undosh tovushlarda farq deyarli sezilmasa-da, ularni ishlatilishiga doir xilma-hillik mavjud. Avstraliya ingliz tilisi ham bundan mustasno emas. **-ary, -ery, -ory, -bury, -berry, -mony** affikslari to‘liq yoki neytral unli tovush sifatida talaffuz etiladi. **necessary** kabi so‘zlar katta yoshi avstraliyaliklar tomonidan bu affikslar neytral unli tovush bilan talaffuz etilsa, aholining yoshroq qatlami vakillari to‘liq unli bilan talaffuz qilishi kuzatiladi. Ingliz tilining boshqa variantlari bilan qiyoslaganda ba’zi tasodifiy so‘zlar talaffuzida farqni kuzatish mumkin. Masalan, Amerika ingliz tili varianti bilan taqqoslaganda, **yoghurt** so‘zida /e/ tovushi o‘rniga /e</> tovushi, **vitamin** so‘zining birinchi bo‘g‘inida /1/ tovushi o‘rniga /aye/ tovushi talaffuz qilinadi. Britaniya ingliz tilisi bilan qiyoslaganda, **advertisement** so‘zi /1/, **tomato** so‘zi /ei/ tovushi o‘rniga /a: / tovushi bilan talaffuz qilinadi.

Avstraliya ingliz tili varianti bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Avstraliya ingliz tili variantining hududiy bo‘linishi asosan sosiokultural ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu asosan fonologiyada aks etib, uning 3ta hududiy shevaga bo‘linishini kuzatish mumkin: erkin, umumiy, madaniylashgan. Ba’zi so‘zlar faqat hududiy ahamiyatga ega bo‘lib, shsxslarning geografik kelib chiqishida. Bundan tashqari, ba’zi avstraliyaliklar Avstraliya ingliz tilisida tashqari kreol tillardan foydalanishadi.

Britaniya varianti	Avstraliya varianti
<i>a good job</i>	<i>a good lurk</i>
<i>Absolutely!</i>	<i>Reckon!</i>
<i>Accident</i>	<i>Prang</i>

<i>Afternoon</i>	<i>Arvo</i>
<i>A good job</i>	<i>A good lurk</i>
<i>Aggressive</i>	<i>Aggro</i>
<i>Alcohol</i>	<i>Crog</i>
<i>Alcohol</i>	<i>Booze</i>
<i>American</i>	<i>Yank</i>
<i>Angry</i>	<i>Berko</i>
<i>Australian</i>	<i>Aussie, Strine</i>
<i>Banana</i>	<i>Nana</i>
<i>Beer</i>	<i>Amber (fluid)</i>
<i>beer glass (285 ml)</i>	<i>Middy, pot</i>
<i>Biscuit</i>	<i>Bickie</i>
<i>Car paint</i>	<i>Duco</i>
<i>Cheap wine</i>	<i>Plonk</i>
<i>Criminal</i>	<i>Bushranger</i>
<i>Chicken</i>	<i>Chook</i>
<i>Chocolate</i>	<i>Chokkie</i>
<i>Christmas</i>	<i>Chrissie</i>
<i>Dockworker</i>	<i>Wharfie</i>
<i>Engine (car or boat)</i>	<i>Donk</i>
<i>English person</i>	<i>Pom</i>
<i>Eucalyptus tree</i>	<i>Gum tree</i>
<i>Evening meal</i>	<i>Tea</i>
<i>Exact information</i>	<i>Good oil</i>
<i>Excellent</i>	<i>Ace</i>
<i>Farm</i>	<i>Station</i>
<i>Fast sheep shearer</i>	<i>Ringer (in the country)</i>
<i>Field</i>	<i>Paddock</i>
<i>Food</i>	<i>Tucker</i>

<i>Horses</i>	<i>Neddies</i>
<i>Information</i>	<i>Oil</i>
<i>It</i>	<i>She</i>
<i>It's fine</i>	<i>She's apple</i>
<i>Kangaroo</i>	<i>Roo</i>
<i>Lavatory</i>	<i>Loo</i>
<i>lavatory (outdoor)</i>	<i>Dunny</i>
<i>Liquor Shop</i>	<i>Bottle shop</i>
<i>Milkman</i>	<i>Milko</i>
<i>Money</i>	<i>Lolly (in the country)</i>
<i>Mosquito</i>	<i>Mozzie</i>
<i>Postman</i>	<i>Postie</i>
<i>Pub meal</i>	<i>Counter meal</i>
<i>Sandwiches</i>	<i>Cut lunch</i>
<i>Sausage</i>	<i>Snag</i>
<i>Shark meat</i>	<i>Flake</i>
<i>Sheep</i>	<i>Jumbuck (mainly in</i>
<i>A sheep which has lost all its</i>	<i>Gummy</i>
<i>Sheepdog</i>	<i>Kelpie</i>
<i>Sheepfarmer</i>	<i>Woolgrower</i>
<i>Shut up.</i>	<i>Belt up.</i>
<i>Soldier</i>	<i>Digger</i>
<i>Stony desert</i>	<i>Gibber (used in the west)</i>
<i>Stupid person</i>	<i>Alf</i>
<i>Swimming costume</i>	<i>Bathers</i>
<i>Tea kettle</i>	<i>Billie</i>
<i>Teacher</i>	<i>Chalkie</i>
<i>To complain</i>	<i>To grizzle</i>
<i>To give up</i>	<i>To give it away</i>

<i>To have a look</i>	<i>To gander</i>
<i>Toilet</i>	<i>Comfort station</i>
<i>Tomato sauce</i>	<i>Dead horse (old)</i>
<i>a good job</i>	<i>a good lurk</i>
<i>Absolutely!</i>	<i>Reckon!</i>
<i>Accident</i>	<i>Prang</i>
<i>Afternoon</i>	<i>Arvo</i>
<i>A good job</i>	<i>A good lurk</i>
<i>Aggressive</i>	<i>Aggro</i>
<i>Alcohol</i>	<i>Crog</i>
<i>Alcohol</i>	<i>Booze</i>
<i>American</i>	<i>Yank</i>
<i>Angry</i>	<i>Berko</i>
<i>Australian</i>	<i>Aussie, Strine</i>
<i>Banana</i>	<i>Nana</i>
<i>Beer</i>	<i>Amber (fluid)</i>
<i>beer glass (285 ml)</i>	<i>Middy, pot</i>
<i>Biscuit</i>	<i>Bickie</i>
<i>Trainee on a cattle farm</i>	<i>Jackaroo</i>
<i>Trousers</i>	<i>Daks, strides</i>
<i>Underpants (men)</i>	<i>Jocks</i>
<i>Undertaker</i>	<i>Mortician</i>
<i>Vegetables</i>	<i>Vegies</i>
<i>Waterhole</i>	<i>Billabong</i>
<i>Well done!</i>	<i>Good on ya!</i>

Avstraliya variantidagi **erkin, umumiy, madaniylashgan** aksentlari gapiruvchi mansub bo'lgan ijtimoiy sinf, shahar yoki qishloqdan ekanligini namoyon etadi. Ammo bu so'zlovchi nutqida har doim ham aks etmasligi mumkin. Tilshunos olimlar fikricha, umumiy Avstraliya varianti 1900 yillarga

qadar shakllanib bo'lgan. XX asr ikkinchi yarmidan buyon radio va televideniye uchun maqbul deb topilgan umumiy Avstraliya aksenti so'zlovchilar soni jihatidan erkin va madaniylashgan aksentda so'zlovchilar sonidan ancha yuqori.

Avstraliya aborigen ingliz tili varianti Avstraliyaning turli hududlarida turli xilda shakllangan bo'lib, hududiy tarqalishda xilma- hillikla ega va standart Avstraliya ingliz tili variantidan ko'ra ko'proq nostandart shakllarga asoslangan. Bunda albatta, aksent, grammatika va lug'at tarkibining o'ziga xos jihatlari mavjud.

Avstraliya ingliz tili variantidagi turli aksentlar etnokultural dialektlar asosida shakllangan bo'lib, bular asosan kelib chiqishi ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlardan bo'lmagan kam sonli guruhlar tomonidan qo'llaniladi. Bunday dialektlardagi turli tumanlikka asosan Osiyo mamlakatlarining ko'p sonli immigratsiyasi turtki bo'ldi. Avstraliya ingliz tili varianti hududiy jihatdan Janubiy Avstraliya, G'arbiy Avstraliya, Yangi Janubiy Uels, Viktoriya, Tasmaniya, Kvinslend va Torz Streyt orollari dialketlari farqlanadi va bu lug'at tarkibi va fonologiyada namoyon bo'ladi.

Tilning hududiy farqlanishi asosan so'zlardan foydalanishda ko'rinadi. Masalan, *cho'milish kiyimi* Yangi Janubiy Uelsda *cossies* yoki *swimmers*, Kvinslendda *togs*, Viktoriya, G'arbiy Avstraliya, Janubiy Avstraliyada *bahters*; *stroller* Avstraliyaning ko'p hududlarida qo'llanilsa, uning o'rniga Viktoriyada *pusher*, G'arbiy Avstraliyada *pram* so'zi qo'llaniladi. Ba'zi shtatlarda *football code* so'zi uchun *footy* so'zi; Yangi Janubiy Uyelsda *rugby league* atamasi, Avstraliyaning boshqa barcha hududlarida *Australian Rules football* so'zi ishlatiladi.

Avstraliya ingliz tili varianti ushbu variantning o'zigagina xos bo'lgan ko'plab so'z va idiomalarga ega. Masalan, *outback* - "kam sonli aholi joylashgan hudud", *the bush* - "mahalliy o'rmon yoki shahardan tashqari hudud", *gday* - salomlashish uchun qo'llaniladi. *Dinkum* atamasi ingliz tilidagi —*true*" so'zini ifodalaydi.

Avstraliya she'riyati, xususan, —*The Man from Snowy River*” she’ri, —*Waltzing Matilda*” kabi folklor qo’shiqlarida Avstraliya Ingliz tili variantining tarixiy so‘z va iboralarini ko‘plab uchratish mumkin. Bunday so‘zlar hozirda keng qo‘llanilmasa-da, avstraliyaliklarning o‘zi uchun tushunarlidir.

Avstraliya ingliz tili varianti Britaniya ingliz tili variantining ma’lum dialektlari kabi (masalan, kokney, skouz, glazgo, ordi) *mate* so‘zini qo‘llaydi. Avstraliyaliklar tomonidan foydalaniladigan ko‘plab so‘zlar qachonlardir Angliya hududida ham qo‘llanilgan, ammo hozirgi kunda iste’moldan chiqarilgan yoki o‘z ma’nosini o‘zgartirgan. Masalan, *creek* so‘zi avstraliyada anhor yoki kichik daryo ma’nosini anglatadi, Buyuk Britaniyada bu so‘z dengizga quyiluvchi suv manbaini anglatadi; *paddock* Avstraliyada dala, Britaniyada chorva uchun mo‘ljallangan maxsus joy tushuniladi.

“*Not bad*”, “*not much*”, “*you are not wrong*” kabi litotalar ko‘proq qisqartirilgan shaklda ishlatiladi. Masalan, *arvo (afternoon)*, *barbie (barbecue)*, *smoko (cigarette break)*, *Aussie (Australian)*, *pressie (present/gift)*. Bunday holat kishilar ismlari uchun ham qo‘llaniladi, masalan, “*Gazza*” - *Gary*, “*Smitty*” - *Smith*”. Janubiy Avstraliya shevasiga xos bo‘lgan *full*”, —*fully*”, —*heaps*” so‘zlari ma’noni kuchaytirish uchun qo‘llaniladi. Masalan, —*The waves at the beach were heaps good*”. —*ly*” suffiksining tushirib qoldirilishi ham tez-tez kuzatiladi. “*really good - real good*”.

Avstraliya ingliz tili variantida Britaniya va Amerika variantidan mutlaqo farqli bo‘lgan so‘zlarni, yoki aksincha, ulardan biri bilan bir xil bo‘lishini ko‘rish mumkin. Masalan:

Avstraliya	Amerika varianti	Britaniya varianti
<i>Footpath</i>	<i>Sidewalk</i>	<i>Pavement</i>
<i>Capsicum</i>	<i>Bell pepper</i>	<i>Green/red pepper</i>
<i>Doona</i>	<i>Comforter</i>	<i>Duvet</i>
Avstraliya	Amerika varianti	Britaniya varianti
<i>Truck</i>	<i>Truck</i>	<i>Lorry</i>

<i>Eggplant</i>	<i>Eggplant</i>	<i>Aubergine</i>
<i>Mobile phone</i>	<i>Cell phone</i>	<i>Mobile phone</i>
<i>Bonnet</i>	<i>Hood</i>	<i>Bonnet</i>

Britaniya variantidan farqli tarzda Amerika variantining ayrim grammatik qoidalari Avstraliya ingliz tili varianti uchun ham xos hisoblanadi. Masalan, sollestive otlar har doim birlik shaklda ishlatiladi, masalan: ***the government was unable to decide, (br. i. t - the government were unable to decide); haven't any (br. i. t - haven't got any).*** ***River*** soʻzi Amerika variantdagi kabi daryo nomidan keyin qoʻllaniladi: ***Darling River***. Britaniya variantida esa ***river*** soʻzi daryo nomida oldin qoʻyiladi: ***River Thames*** Shunga qaramay, Janubiy Avstraliya shevasida ***River Murray, River Torrens*** kabi daryo nomlarini uchratish mumkin. Britaniya variantida ***at the weekend; read medicine*** kabi soʻz birikmalari Amerika variantidagi kabi ***on the weekend; read medicine*** shaklida ifodaladi.

Britaniya varianti bilan oʻxshashlikni ***learn, spell, smell*** kabi notoʻgʻri feʼllarning oʻtgan zamon va sifat-dosh shakllarida uchratish mumkin (***learnt, spelt, smelt***). Ushbu turdagi gaplarda Amerika variantida tushirib qoldiriladigan ***to*** predlogi Avstraliya variantida qoʻllaniladi: ***I'll write to you.***

Ingliz tilida gapiruvchi boshqa davlatlar singari Avstraliya variantida ham yozuvni va grammatikani tartiblovchi hukumatning rasmiy regulyatorlari mavjud emas. Qator universitet va tashkilotlar Avstraliya standart ingliz tili variantining yozuv qoidalari uchun ***Macquire Dictionary*** lugʻatidan foydalanadilar. Ingliz tilining Avstraliya varianti yozuv qoidalari Amerika variantidan koʻra koʻproq Britaniya variantiga yaqinroq.

Yangi Zelandiyada Qabul qilingan talaffuz ziyolilar talaffuz varianti hisoblanadi.

4. 4. 2. Yangi Zelandiya milliy varianti

Yangi Zelandiyada ingliz tili 3, 2 million kishi, yaʼni mamlakat aholisining 90 foizi tomonidan qoʻllaniladi. Mamlakatda, shuningdek, maori

ikkinchi rasmiy til hisoblanadi. Mamlakatga ingliz tilida gaplashuvchi xalqlar tomonidan 1870 yilda asos solingan. Mamlakatga birinchi kelib oʻrnashganlar Avstraliyaning Port Jekson (Sidney) koloniyasidan kelgan tyulen ovlovchilar boʻlgan, keyinroq kelib oʻrnashganlarning koʻpchiligi britanlar edi. Immigrantlarning asosiy qismi avstraliyaliklar boʻlganligi tufayli Yangi Zelandiya Ingliz tili varianti talaffuzida Avstaliya varianti bilan oʻxshash jihatlarni uchratish mumkin. Avstraliya va Yangi Zelandiya variantlari oʻzaro oʻxshashliklarga ega. Ammo old qator unli monoftonglarida farq seziladi.

Dunyoning boshqa qismlarida ingliz tilida ona tili sifatida soʻzlashuvchilar ingliz tilining Yangi Zelandiya va Avstraliya variantlari talaffuzidagi farqni sezmasligi mumkin, ammo, Yangi Zelandiya xalqi Avstraliya talaffuzini keskin farqlay oladilar. Avstraliyaliklar esa Yangi Zelandiya varianti aksentini Avstraliyaning Tasmaniya kabi chekkaroq hududlari aksentlari guruhiga kiritadilar.

Yangi Zelandiya varianti leksik tarkibida Avstraliya variantida aborijen tillarning taʼsiri boʻlgani kabi maori tilining ahamiyati seziladi. Koʻp hollarda Yangi Zelandiyaning kivi lahjasi buni yaqqol namoyon etadi.

Enzed	New Zealand
Pom	Englishman
Pop	put, prepare
Telly	Tv
gig lamps	Glasses
kitchen tidy	Dustbin
Jug	litre of beer
Screw	Salary
Strides	Trousers

Yangi Zelandiya variantiga xos boʻlgan aksent fonologik xususiyatlarga koʻra ingliz tilining Avstraliya varianti bilan oʻzaro oʻxshashlikka ega. Ikkala

variant fonologiyasi ortasidagi farq asosan qisqa old unlilari hamda markaziy diftonglar xususida ko‘rinishi mumkin.

1. Yangi Zelandiya variantida **had** so‘zidagi [j] unlisi Avstraliya ingliz tili variantidagi **head** so‘zida talaffuz qilinadigan [ye] tovushiga juda yaqin, shuning uchun, *“The cat sat on a mat”* iborasi Yangi Zelandiya variantida so‘zlovchilar talaffuzida *“The ket set on a met”* kabi eshitiladi.

2. Yangi Zelandiya variantida **head** so‘zidagi [ye] unlisi Avstraliya variantidagi **hid** so‘zida uchraydigan [i] tovushiuga juda o‘xshash. Lekin ingliz tilining Yangi Zelandiya variantida [i] tovushi ko‘proq markaziy pozitsiyaga ega bo‘lib, neytral unli tovushga o‘xshaydi. Avstraliya variantida esa [i] tovushi **heed** so‘zidagi kabi cho‘ziqroq [i:] talaffuz qilinadi.

3. Yangi Zelandiya variantida **ear** va **air** kabi so‘zlardagi markaziy diftonglar.

4. 5. Ingliz tilining Janubiy Afrika varianti Janubiy Afrika ingliz tili varianti

Janubiy Afrika ingliz tili varianti Janubiy Afrikada qo‘llaniladigan ingliz tilining mahalliy shevalaridir. Janubiy Afrika ingliz tili variantida sezilarli ijtimoiy va hududiy xilma-hillik mavjud. Janubiy Afrika oq tanlilar ingliz tilisi asosan qit‘aning oq tanli aholisi tomonidan qo‘llanilib, u o‘z ichiga 3 ta variantni oladi: “madaniylashgan” - Angliyaning standart talaffuz qoidalariga asoslangan sheva bo‘lib, undan asosan oliy tabaqa vakillari foydalanadilar; “umumiy” - o‘rta tabaqa vakillarining ijtimoiy ko‘rsatkichi; “erkin” - ishchi tabaqa tomonidan so‘zlashiladigan sheva hisoblanadi. Qit‘aning qora tanli aholisi tomonidan qo‘llaniladigan Janubiy Afrika qora tanlilar ingliz tili 2 variant “ayeroleyet” va “mesoleyet” ni o‘z ichiga oladi. Janubiy Afrika ingliz tili variantining boshqa shevalari Keyp Flets ingliz tili - Keyp shahri aholisi shevasi bilan bog‘liq va Janubiy Afrika hindularining Janubiy Afrika hindu ingliz tilisini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, qit‘aning Zimbabve, Zambiya, Svazilend va Namibiya aholisi shevalari bo‘lgan turli variantlar farqlanadi.

Gʻarbiy Afrika ingliz tili variantini 4 turga boʻlish mumkin: Pidjin ingliz (Gambiya sohillaridan Ekvator Gvineyasigacha boʻlgan hududlarda tarqalgan ikkinchi ingliz tili), Standart Gʻarbiy Afrika ingliz tili varianti (Gana va Nigeriya hududlariga xos) “fransuzlashgan” Gʻarbiy Afrika ingliz tili varianti.

Amerika va Britaniya variantlarida mavjud boʻlmagan, Afrikaning mahalliy tillaridan oʻzlashtirilgan baʼzi soʻzlar Janubiy Afrika ingliz tili variantida uchraydi. Janubiy Afrika ingliz tili variantining asosiy ikki fonologik indikatori bu **kit** va **bath** soʻzlaridagi unlilar bilan xarakterlanadi. **Kit** soʻzidagi unli talaffuzida old [i] va markaziy [ɪ] aniq allofonik farq seziladi.

Janubiy Afrika ingliz tili variantida Britaniya ingliz tili variant va Amerika ingliz tili variantida mavjud boʻlmagan soʻzlar Afrikaning Afrikanz va Zulu tillaridan oʻzlashtirilgan. Shuningdek, ushbu variant leksikasiga mahalliy Hindu tillari va shevalari ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Baʼzi holatlar Janubiy Afrika ingliz tili variantining Amerika ingliz tili variantiga uygʻunligini koʻrsatadi. Masalan, **mom** (Britaniya va Avstraliya variantlarida **mum**), **freeway** yoki **hihway** (Britaniya variantida **motorway**), **cellphone** (Britaniya va Avstraliya variantida **mobile**) va **buck** (Britaniya variantida **rand**).

Janubiy Afrika ingliz tili varianti leksikasining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu variantda soʻzlashuvchilarning har qanday vaziyatda ham “**ja**” (“yes”) soʻzini, yoki aksincha, uning boʻlishsiz shakli “**ja-nee**” (“yes-no” - qisman rozilik, qisman qarshilikni ifodalash uchun) jumllalarida keng foydalanishlaridir. Bu standart ingliz tilida notoʻgʻri hisoblanadi va rasmiy holatlarda qoʻllanilishi maqbul boʻlmasa-da aholi nutqida unga tez- tez duch kelish mumkin.

Janubiy Afrika variantida **now** payt olmoshining notoʻgʻri ishlatilishi ham maʼlum. Xususan, **just now** payt ravishini “**in a while**” yoki “**later**” (bir necha soatni nazarda tutiladi) maʼnosi oʻrnida. Amerika variantidagi **sneaker**, Britaniya variantidagi **trainers** soʻzi oʻrnida “**takkies**”, **tackie** yoki **tekkie**; **pick-up** soʻzi oʻrniga **bakkie**; **pleasurable** soʻzi oʻrniga **lekker**; **traffic lights** soʻzi oʻrniga **robot**; **party** soʻzi oʻrniga **jol** soʻzlari qoʻllaniladi. Janubiy Afrika

variantining Ksoza, Zulu, Swazi va Ndebele kabi etnik guruhlar orasida shakllangan Nguni shevasi o'ziga xos talaffuzga ega. Ushbu sheva egalari *the*, *that* kabi so'zlari [d] tovushi bilan (*danger*, *dull* so'zlaridagi kabi) talaffuz qiladilar. Shuningdek, *rice* so'zi *lice* kabi talaffuz qilinadi. Bu ehtimol, ushbu xalqlar mahalliy tillarda [r] tovushining mavjud emasligi natijasidir. Soto shevasi egalari talaffuzida ham Nguni shevasi aksenti seziladi.

Zimbabve. Zimbabvening ingliz tilida gapiruvchi aholisi nutqida Janubiy Afrika ingliz tili variantiga xos jihatlar namoyon bo'ladi. Shuningdek, Zimbabveda ingliz tilining turli aksentlarini uchratish mumkin. Masalan, Hareyr shahri va unga yondosh hududlar uchun Britaniya aksenti xos bo'lsa, qishloqlar va chekka hududlarda turli shevalar qorishig'idan iborat aksentda gapiradilar.

Namibiya Namibiyada gapiriladigan ingliz tiliga Janubiy Afrika Ingliz tili varianti kuchli ta'sir o'tkazgan. Bu ayniqsa, poytaxt shahar Uindhoyk va uning atrofida juda ham seziladi. Shahardan tashqari hududlarda mahalliy tillar, xususan, bantu tilining ta'siri bo'lgan sheva qo'llaniladi.

Foklend orollari. Foklend orollari aholisining asosiy qismi mahalliy tub aholi emas, balki asosan Britaniyaliklar va ularning avlodlari, shuningdek, Avliyo Yelena orollari xalqlaridir. Qishloqlarda Foklend shevasi ta'siri kuchli bo'lib, u asosan Avstraliya, Yangi Zalandiya ingliz tili variantlari va Angliyaning Norfolk shevasiga asoslanadi ispan tilidan kirib kelgan ko'plab so'zlarni o'z ichiga oladi.

V - BOB. INGLIZ ADABIY TILINI O‘QITISH STANDARTI VA O‘QITISH NORMASINI TANLASH MUAMMOLARI

5. 1. Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlardagi ingliz tilining standart variantlari

Zamonaviy tilshunoslikda ingliz tili standart ingliz tili, hududiy variantlar va mahalliy dialektlarga bo‘linadi. Standart ingliz tili ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarda va butun dunyo bo‘ylab ingliz tilida so‘zlashuvchilar uchun tushunarli, adabiy va amaldagi shakli sifatida ta’riflanishi mumkin.

Adabiy til va noadabiy til o‘zaro chambarchas bog‘liqlik, ular o‘rtasiga katta tavofutni qo‘yish ancha mushkul. Adabiy til doimiy ravishda o‘z lug‘at tarkibini noadabiy tilga xos bo‘lgan ba’zi so‘z va nutq birliklari evaziga boyitib boradi. Adabiy til tarixiy kategoriya hisoblanadi. I. R Galperin adabiy til tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “milliy tilning diskursning har qanday turi uchun maqbul deb topilgan va standart deb tan olingan morfologik, fonetik, sintaktik, leksik, frazeologik va stilistik me’yorlarga amal qiladigan variantidir. Bunda qabul qilingan me’yorlar tizimi asosida adabiy tilning noadabiy tilga ta’siri juda yuqori. Ingliz adabiy tili XVII - XVIII asrlarda birmuncha shakllangan. XIX asrda ommaviy ta’limning joriy etilishi va XX asrda radio va televediniyening hayotga kirib kelishi adabiy tilning noadabiy tilga ta’sirini yanada orttirdi.

Standart ingliz tili atamasiga aniq bir izoh berish biroz qiyinroq. Buning asosiy sabablaridan biri standart ingliz tilini nazorat qiluvchi va uni tartibga soluvchi hech qanday rasmiy tashkilot mavjud emas. MkArtur (2003, 442) standart ingliz tilini xarakterlovchi 3ta xususiyatni sanab o‘tadi: 1) uning bosma nashr ko‘rinishini tushunish juda oson, chunki uning yozma nutq holati butun dunyo bo‘ylab tarqalgan variantlarga mos keladi. 2) undan odatda yangiliklar dasturlarida foydalaniladi. 3) undan foydalanish so‘zlovchining ijtimoiy toifasi va ta’limiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu tilshunos shuningdek, ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatda eng keng ma’qullangan, tushunilgan va qadrlangan variantni Standart ingliz tili deb ta’kidlaydi. Bundan biz jamiyat tomonidan eng

maqbul deb tanlangan variant standart degan xulosaga kelishimiz mumkin. Masalan, kanadalik insonning standart ingliz tiliga bergan ta'rif irland millatiga mansub kishining ta'rifidan butunlay farq qilishi mumkin.

Ingliz tilining ko'plab yangi hududiy variantlari o'zaro tushunarsiz bo'lishi mumkin. Masalan, Singapur ingliz tili variantida bir qator noodatiy jihatlar kuzatiladi. Masalan Farrel va Tan quyidagilarni farqlab ko'rsatadi:

- egalik qo'shimchasining tushirib qoldirilishi: My **mummy** friend
- mahalliy tillardan olingan so'zlarning qo'llanilishi: Don't be so **kiasu**
- so'roq gaplarda to be fe'lining tartibsiz qo'llanishi: You don't want to go **is** it?
- so'roq gaplarda san modal fe'lining noodatiy qo'llanilishi: Like that **can** or not?

Dunyo miqyosida olib qaralganda ingliz tilining yagona standart shakli konsepsiyasini qabul qilish unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, tilning standart shakli tushunchasi uning yozma shakliga ko'proq taallukli bo'lib, bunda ham variantlar o'rtasida o'zaro farqni ham tez-tez uchratish mumkin. Dunyo bo'ylab ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlarning har birida bir-biridan fonetik, grammatik, leksik, orfografik sathda farqlanuvchi variantlari shu mamlakatning o'zi uchun standart deb qabul qilingan. Tilning turli variantlaridan foydalanuvchilarning og'zaki nutqi esa mamlakatlararo, hududlararo farqlanishi ma'lum. Demak, standart ingliz tilining plyuralistik xarakterga ega ekanligi ingliz tilidan foydalanuvchi mamlakatlarga xos lingvistik xaqiqatdir.

Tilni yaxlit bir tizimga solish (standartlash) tarixiy bosqichlarga ega bo'lgan jarayondir. Bunday jarayon Britaniyada XVIII asrda ingliz grammatikasini standartlash boshlanganida va Tomas Sheridan va Jon Volker tomonidan talaffuzning me'yoriy qoidalari ishlab chiqilishi bilan asoslana boshladi. Bungacha, ya'ni, 18 asrgacha, London va uning atrofida ziyoli kishilarning nutqi va talaffuzi me'yoriy deb tan olingan edi. Britaniyada XIX-XX asrlarda Oxford English Dictionary lug'atining yaratilishi, Maglston

(2003), Bryuyer (2007) olib borgan ilmiy ishlar ingliz tilini leksik standartlashga asos bo'ldi. Grammatik jihatdan tilni standartlash borasida Robert Lovz (1762) tomonidan olib borilgan ishlar ahamiyatli. Shunga qaramay XVIII asr ingliz grammatikasi uchun maqbul deb hisoblangan ba'zi jihatlar endilikda standart ingliz tili uchun munosib emasligini ko'rish mumkin. Masalan:

- gapda bo'lishsizlikning ikki belgisi: **They *don't* want *no* support.**
- infinitivning **to** yuklamasidan keyin ravishning ishlatilishi: **He advised them to *seriously* consider the matter.**

Tilning standart shakli muntazam o'zgarishlarga uchrashi haqiqatdir. Masalan, Britaniyada, Qabul qilingan talaffuz egalari nutqida /t/ tovushining yumshoq talaffuz qilinishi, grammatikada esa **want** kabi fe'llarning davomli zamonda qo'llanilishi: **She's wanting to join the group.** (Leyech 2009. 124); majhul nisbatda **get** fe'lidan foydalanilishi: **he got stopped by the police.**

Standart ingliz tilining ko'p variantli ekanligini tadqiq qilish borasida Watss va Trudgill, Srystal olib borgan izlanishlar endilikda "ingliz tillar" tushunchasining yuzaga kelganini ko'rsatadi. Bauyerning **“Watching English change”** (1994) kitobida ham bu haqda ko'plab ma'lumotlar berilgan.

5. 2. Ingliz adabiy tili va uni o'qitish me'yorining o'ziga xos xususiyatlari

Ingliz tilini o'qitish bugungi kunimizda juda ahamiyatli. Til o'rgatishni bolaning erta yeshidan boshlangani ma'qul. Ammo, tilni o'rganish uchun avvalo ona tilida til haqida biroz tushunchaga ega bo'lish kerak. 6-7 yeshlardagi bolada esa o'z ona tilisi haqida hali yetarlicha tushuncha mavjud bo'lmaydi va shu davrlarda faqat eng oddiy so'zlarni o'rgatish ya'ni lug'at boyligini o'stirish bilan olib boriladi. Yosh bola biror so'zni ingliz tilidagi talaffuz qoidalarini o'rgatuvchiga taqlid qilgan holatda yedlaydi va qaytarishga harakat qiladi. Chunki til faqat o'rganiladigan jarayen emas, balki u egallanadi. Chunki hech kim ona qornidan biror tilni bilib tug'ilmaydi, balki atrof muhit ta'sirida, eshitgan tili bilan ongi ochilib, tili rivojlanadi. Shuning uchu ham til

o'rganishning eng dastlabki usullari bu eshitib, takrorlash va kichik kichik nutq birliklari dialoglar bilan muloqotga kirishishdir. Til o'rganishda muhit eng asosiy narsa, masalan, ota onasi uyda rus tilida so'zlashuvchi oila bolalari rus tilini o'zlashtiradi, (hech qanday grammatika qoidalarisiz). Shunday ekan ingliz tilini o'rgatishda ham shunday muhitni yaratish (hech bo'lmaganda faqat darslarda) o'rgatuvchidan talab etiladigan eng muhim narsa. Agar jarayen nutqni rivojlantiruvchi omillar suhbatlar, authentic -ya'ni hayetiy misollar bilan berilgan o'qish mashqlari, tinglash mashqlari, interaktiv o'yinlar bilan olib borilsa, birinchidan til o'rganish jarayeni tezroq, ikkinchidan samaraliroq bo'ladi. Ayniqsa, o'rgatuvchining bir darslik bilan ishlamasdan, turli manbalardan olingan xilma xil materiallar bilan ta'lim jarayenini olib borsa, ingliz tilining standart ko'rinishi balki hududiy variantlari bo'yicha ham o'quvchida yetarli ko'nikmalar paydo bo'ladi.

Til o'rgatish jarayonida turli muammolar kelib chiqishi mumkin. Bular o'rganuvchining yeshi, aqliy qobiliyati, qiziqishi, til o'rganishga bo'lgan salohiyati, va albatta ona tilining ta'sirida ko'rinishi mumkin. O'zbek tili va ingliz tili kelib chiqish nuqtai nazaridan turli til oilalariga borib taqalganligi uchun, o'zbek tili ona tilisi bo'lgan o'rganuvchi til o'rganishning dastlabki paytlarida ikki til o'rtasidagi leksik, grammatik, fonetik farqlardan chalg'ishi mumkin. Chunki, o'zbek tilida gap qurilishi, so'z birikmalarining gaplardagi o'rni, gap bo'laklari, jamiki tilimiz qonun qoidalari butunlay boshqacha. Shuning uchun ham til o'rgatuvchining pedagogik va metodik mahorati o'rganuvchini til o'rganishga bo'lgan maqsadiga eltishida eng asosiy narsadir. Ayrimlar o'rgana olamanmi, deya cho'chishadi. Buni esa til o'rganish jarayenini qiziq qilib, bu kabi muammolarni oldini olish mumkin.

Til o'rganish jarayenida tilning adabiy variantlari haqida ham tushuntirishlar berib o'tish kerakligi aytib o'tildi. Taxlillar shuni ko'rsatadiki, til variantlari ayniqsa Amerikancha va Britancha ingliz tili o'rtasidagi ikki xillik farqlari, ko'p o'rganuvchilar uchun ikkita so'zdan biri xato degan noto'g'ri tushunchani berishi mumkin. Shuning uchun ham eng ko'p qo'llaniluvchi

amerikancha va britancha ingliz tili soʻzlari roʻyhati, lugʻat boyliklari rivojlantirish jarayenida berib borilishi kerak. Zero, oʻquvchi bu kabi har xilliklar xatolar emas balki tilning turli variantlari ekanligini tushunsin. Ammo, adabiy til variantlaridan koʻproq xabardor boʻlish uchun koʻproq mustaqil oʻqish mashqlarini amalga oshirgani maʼqul. Turli filmlarni tomosha qilish, ingliz tilidagi jurnal va gazetalar ham tildagi variantlardan koʻproq xabardor boʻlishga yordam beradi. Shunday holatlar ham borki, ikki til variantidagi farqlarni oʻsha kontekstsiz tushunish qiyin. Quyida bir necha tahliliy muhokamani koʻrib chiqsak;

Masalan: *It isn't too bad - bu gapni ingliz boʻlmagan kishi She likes it - Yomonmas ma'nosida tushunishi mumkin, lekin britaniyaliklar yesa it is awful ni nazarda tutgan bo'ladi.*

Mana shu kabi nutqiy birliklarda muammolar juda koʻp uchraydi. Chunki koʻpincha Britaniyaliklar nutqda qoʻpollik boʻlmasligi uchun fikrlarini togʻridan togʻri ifoda etishmaydi. Va natijada boshqa millat vakili uchun tushunish qiyin boʻlishi mumkin. Ushbu yoʻriqnoma orqali bir gapni qaysi maʼnoda ishlatilishini bilish mumkin. Quyidagi roʻyxat shu guidebook- yoʻriqnomadan misollar bilan berilgan.

Britaniyalik aytadi	Horijlik nima deb tushunadi	Britaniyalik aslida nimani nazarda tutadi
That was very brave of you!	She thinks I am very courageous	You are insane!
Very interesting!	She seems to like the idea!	How boring!
Not bad for a first attempt!	She thinks it is quite good!	I hate it!
Ok! I will bear it in mind	She will probably do it!	I have forgotten it already!
I am sure it is all my fault!	She is accepting the responsibility!	It is definitely your fault!
You must come over the dinner sometime!	I have been invated for dinner!	This is not an invitation.
I was abit disappointed with the result!	It doesn't really matter.	I am very angry.
I hear what you are saying	She accepts my point of view.	I disagree and don't want to discuss it further
Ah huh(boshni ha alomati kabi qimirlatish)	She agrees with me!	I am listening but don't agree.

Oh, by the way, did you finish the work?	This is not important.	This is very important.
--	------------------------	-------------------------

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida so‘zlashaytganda suhbatdoshning nima demoqchi ekanligini bilish hamma vaqt ham oson emas. Britaniyaliklar, juda muloyim, doimo mulozamat bilan gapiradi. Lekin kinoya ma’nolaridagi misollar esa, so‘zlashuvchidan suhbatga kirishishda ehtiyet bo‘lish kerakligini eslatib o‘tadi.⁵²

Ingliz tilining Britaniya variantida (English English) qabul qilingan talaffuz (Received Pronunciation), Amerika ingliz tili varianti uchun Umumiy Amerika talaffuzi (General American English), Avstraliya varianti uchun Rivojlangan Avstraliya varianti (Educated Australian) atamasi qo‘llaniladi. Mamlakatdagi bir yoki bir necha shevalar milliy jamiyatning ziyoli qatlam vakillari tomonidan eng maqbul va to‘g‘ri hisoblanadi. **Badiiy talaffuz** atamasi odatda rus va ukrain tilshunoslari tomonidan, **me’yoriy talaffuz** atamasi esa Britaniya va Amerika tilshunoslari tomonidan qo‘llaniladi.

Me’yoriy talaffuz atamasini tilshunos V. Yu. Parashchuk quyidagicha sharhlaydi: tildan foydalanuvchilar standart atamasini quyidagicha izohlashimiz mumkin: mutloq to‘g‘ri bo‘lgan va jamiyatning rasmiy munosabatlarida qo‘llash uchun munosib deb topilgan lahja.

Hozirda ingliz tili o‘z hududiy shevalariga ega. Buyuk Britaniyada shotland shevasi, shimoliy, janubiy, markaziy shevalar guruhi, AQSHda Sharqiy, O‘rta Atlantika (markaziy), janubiy-sharqiy, o‘rta, g‘arbiy shevalar guruhi mavjud. Bir xil sheva egalari ijtimoiy va geografik umumiylik orqali bog‘liq bo‘ladilar; ba’zan fonetik va leksik o‘ziga xosliklar bilan birga umumiy fonologik xarakterga ega bo‘ladilar (V. Yu. Parashchuk 2000).

Ingliz tili misolida olib qaraydigan bo‘lsak, tilning og‘zaki shakli turli-tumanlikka va talaffuzlarining xilma-hilligiga ega ekanligini qayd etish lozim. Tilning bunday variantlari kichik guruhlardan tortib butun bir millat darajasidagi jamiyatlar tomonidan shakllantiriladi. Shunday qilib tilning milliy variantlari

52 Hot English magazine. 132 version. Guidebook for the special words.

yaratiladi. Milliy variantlar tushunchasini sharhlashda biz A. D Shveser konsepsiyalariga tayanamiz. Uning fikricha, milliy tillar millat shakllanishini xarakterlovchi, iqtisodiy va siyosiy omillarni rivojlantiruvchi tarixiy kategoriya hisoblanadi. (Shveser 1983). Boshqacha aytganda, milliy til - bu millat tili, uning standart shakli, millat adabiyotining tili.

Milliy variantlar qator ichki va tashqi omillar tufayli o'zgarib boradi. har qanday innovatsiyalar ortida albatta, talaffuz turadi. Shunday qilib ingliz tilining milliy variantlari bir-biridan asosan tovush, urg'u va intonasiyaga ko'ra farqlanadi. Ma'lumki, ba'zi davlatlar hududida birdan ortiq, ko'p hollarda ikki til qo'llanishda bo'ladi. Bunga Kanada davlatini misol qilib olishimiz mumkin - ingliz va fransuz tili jamiyatning asosiy tili hisoblanadi. Bunday holat tilshunoslar tomonidan **bilingualizm** (ikki tillilik) deb ataladi. (Yagona milliy tilga ega bo'lgan davlat **monolingualizm** (bir tilli) deb ataladi.) Bunday holatda ikki til (yoki dialekt)ning ma'lum vaziyatlardagi o'zaro munosabati natijasida lingvistik qorishish yuzaga keladi⁵³

Har bir milliy variant territorial va regional dialektlarga bo'linadi. Dialektlar bir-biridan talaffuz, grammatika va lug'at tarkibi bilan farqlanadi. "Aksent" faqatgina talaffuzdagi farqni anglatadi. shuning uchun mahalliy aksentlar talaffuzdagi ba'zi umumiy jihatlarni o'zida mujassamlaydi va shu bilan birga territorial va areal aksent guruhlariga mansub bo'ladi. Masalan, Buyuk Britaniyadagi **Yorkshir**, **Lankashir** va **Cheshir** aksentlari "Shimoliy aksent" guruhini tashkil etadi.

Ma'lum bir geografik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sabablarga ko'ra mamlakat dialektlaridan biri millatning standart tiliga, uning talaffuzi yoki aksenti esa qabul qilingan standart talaffuz hisoblanadi. Xususan, London dialekti Britaniya uchun **qabul qilingan standart talaffuz (RP - received pronunciation)** ga aylandi (Gimson 1981).

Shunga qaramay, mamlakat umumiy standart talaffuz shakliga ega emas. U boshqa tillar bilan o'zaro munosabatlar, shu bilan birga qator geografik,

53 D. Crystal. Global English. Cambridge University Press, 2003. 254

psixologik, ijtimoiy va siyosiy ta'sirlar natijasida o'zgarib turadi. Masalan, Angliyaning o'zida **"qabul qilingan talaffuzning konservativ, umumiy, ilgor shakllari"** farqlanadi (Gimson 1981).

Har bir jamiyat, kichik guruhlardan tortib butun bir millatgacha, o'z ijtimoiy dialektiga, shu bilan birga o'z ijtimoiy aksentiga ega. Britaniya tilshunoslari jamiyatni quyidagi guruhlariga bo'lishni taklif etadilar: yuqori guruh, yuqori o'rta guruh, o'rta o'rta guruh, quyi o'rta guruh, yuqori ishchi guruh, o'rta ishchi guruh, quyi ishchi guruh.

Shuningdek, guruhlar turli katta va kichik ijtimoiy sinflarga (kasbiy, ta'limiy, madaniy, yosh jins, va h. k) bo'linadi. Natijada, har bir ijtimoiy sinf o'z dialekt va aksentiga ega bo'ladi. Bunday ijtimoiy dialektlarni D. A. Shaxbagova "ijtimoiy cheklangan miqdordagi kishilar tomonidan so'zlashiladigan variantlar" deb sharhlaydi.

Til vositalarining so'zlovchining vaziyatni anglashidan kelib chiqib, ongli yoki ongsiz tarzda tanlanishi isbotlangan. Shuningdek, tildan foydalanuvchilarning individual xususiyatlari, madaniy qadriyatlari, jins, yosh farqlari ham ahamiyatga ega. Jamiyatdagi bir tildan foydalanuvchilarining individual nutqi idiolekt deb ataladi.

Shveyser tilning ijtimoiy sharoitlarga asoslangan ikki xususiyatlarini - stratifikasional, ya'ni tilning ijtimoiy strukturaga bog'liqlik holati va situasional, ya'ni, tildan foydalanishning ijtimoiy tarkib bilan bog'liq bo'lgan holatini farqlaydi (Shveyser 1983: 6).

Ingliz tili milliy variantlarining har biri hududiy xilma -xillik va dialektga ega. Shuningdek, dialekt o'z ichiga aksentni ham oladi. Aksent bu ma'lum bir til jamoasining o'zaro muloqot jarayonida qo'llaydigan talaffuz namunalari. Bir xil aksent egalari odatda 1) umumiy ijtimoiy, geografik xususiyatlar orqali bog'liq bo'ladilar, 2) bir turdagi fonologik xususiyatlarni (ba'zan chegaralangan miqdorda o'zaro fonetik va leksik farq bilan) namoyon etadilar.

Shunday qilib, mamlakatga xos bo'lgan talaffuz variant o'z ichiga milliy talaffuz standarti va hududiy aksentlarni oladi. Aksent hamisha til egasining geografik jihatdan qaysi hududdan ekanligini ko'rsatadi.

Ingliz tilida so'zlashuvchi millatlarning barchasi aynan o'ziga tegishli bo'lgan standart ingliz talaffuziga ega. Bu variantlar o'rtasida juda ko'p umumiylik bilan birga bir qator tavofutlar mavjud. Bunga asosiy sabab tilning tarqalish ko'lamining kengligi va mahalliy va etnik shart- sharoitning turli-tumanligidir.

Dunyo miqyosida tarqalgan ingliz tili shevasining xilma -xilligi asosan Britan va Amerika variantlariga asoslanandi. Britaniya ingliz tili varianti Angliya, Irlandiya, Uyels, Shotlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, Pokiston, Malayziya, Singapur va Janubiy Afrikada qo'llaniladigan ingliz tiliga asos bo'lsa, Amerika (yoki Shimoliy Amerika) varianti, xususan Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada davlatlariga xos bo'lgan ingliz tilini o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, Kanadada foydalaniladigan ingliz tilining ma'lum jihatlari Britaniya ingliz tili variantiga juda yaqin hisoblansa, aksincha, Irlandiya foydalaniladigan ingliz tiliining ba'zi o'ziga xos tomonlarini Shimoliy Amerika ingliz tili variantida ham uchratish mumkin. Shuningdek, standart Britaniya ingliz tili varianti va standart hind ingliz tili varianti orasida ham sezilarli farqni ko'rish mumkin. Ammo, ta'kidlash joizki, hech bir guruh tarkibi o'zaro to'laqonli mutanosib bo'lmasa-da, qator umumiyliklarning Britaniya va Amerika variantlariga asoslangan ekanini ko'rish mumkin.

Yangi Zelandiya va Avstraliya talaffuz turlari Britaniya ingliz tili varianti standartlariga asoslanadi. Kanada talaffuz standartlarida esa Amerika ingliz tili variantining ba'zi belgilari seziladi. Kanadaliklar huddi amerikaliklar singari ko'p hollarda retrofleks [r] va qattiq [d]dan foydalanadilar va [a:] tovushining o'rniga [j] tovushini talaffuz qiladilar. Ba'zi tilshunoslar Kanada talaffuz varianti Amerika talaffuz standartlariga asoslangan deb hisoblaydilar.

5. 3. Ingliz tili me'yoriy talaffuz standartlarini o'qitish mezonlari

Bugungi kunda butun jahon bo'ylab kechayotgan globallashuv va integrallashuv jarayonlari dunyo xalqlarida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Xalqaro aloqalar va ilmiy-texnik axborot almashinuvini kengaytirish sharoitida tarjima jarayoniga nafaqat til, balki madaniy to'siqlarni ham oshib o'tishi ko'zda tutilgan ko'p aspektli faoliyat sifatida qaralmoqda. Bir tomondan tarjima - tarjimon ikkita turli til va turli jamiyat o'rtasidagi muhim ijtimoiy funksiyani bajaruvchi kommunikativ faoliyat turi hisoblanadi. Boshqa tomondan, tarjima - ayrim aspektlari turli fanlarni tadqiq qilish predmeti bo'lgan murakkab ko'p qirrali hodisadir. Xususan, u madaniyatlararo muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilining internatsionallashuvi, ayniqsa, rivojlanayotgan va boshqa davlatlardagi ichki va tashqi aloqalarni rivojlantirishga ilmiy - texnik yutuqlarni tarqatishga katta yordam beradi. Lekin, shunga qaramay, Londonda nashr etiladigan Economist jurnali va Financial News gazetasi rasmiy muzokarlarda sodir bo'layotgan yaxshi tushunmaslik yoki umuman tushunmaslik xaqidagi materiallarni tez-tez chop etmoqda. "Rasmiy muloqot chegaralar orqali" kitobi muallifi Stiven Hagen britaniyalik eksportchilarning har beshtasidan biri xalqaro munosabatlarda til xarakteridagi qiyinchiliklarga duch kelishini ta'kidlagan. U ona tili bo'lgan ingliz tilini "ikki tomonlama keskir qilich" deb ataydi va u nafaqat dunyodagi rasmiy muloqotda eng ko'p tarqalgan til, balki hayotdagi barcha holatlarda ham keng qo'llaniladigan til ekanini ta'kidlaydi. 1996 yilda Britaniya hukumati tomonidan o'tkazilgan taqqidqot natijalariga ko'ra Britaniya ingliz tili variantidan Xalqaro ingliz tiliga taqqoslanganda foydalanish jarayonida bir qator lingvistik muammolarga duch kelish yuqori ekanligi qayd etilgan. Chunki bir til ona tilisi bo'lgan ikki madaniyat o'rtasida ham o'zaro tilni tushunmaslik holatlari kelib chiqishi tabiiy.

Bundan tashqari tadqiqotlar AQSH va Kanada singari bir-biri bilan chegaradosh bo'lgan va ingliz tilining o'zaro yaqin variantini qo'llaydigan mamlakatlar aholisi o'rtasida ham kelib chiqishi mumkin.

Demak bir tilga xos bo'lgan bunday nomutanosibliklar xalqaro ta'limda qator noqulayliklarni keltirib chiqarishi tabiiy holdir.

Standart ingliz tilini o'qitishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir qator salbiy holatlarni sanaydi. Masalan, bunday holat etnik kamsitishlarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Ingliz tilining juda ko'p variantlarga ega ekanligi tufayli uni ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o'qitishda aynan qaysi varianti eng maqbul deb tanlanishi borasida savollar mavjud. Ingliz tilining ko'plab yangi hududiy variantlari o'zaro tushunarsiz bo'lishi mumkin. Masalan, Singapur ingliz tili variantida bir qator noodatiy jihatlar kuzatiladi. Masalan Farrel va Tan quyidagilarni farqlab ko'rsatadi:

- egalik qo'shimchasining tushirib qoldirilishi: My **mummy** friend
- mahalliy tillardan olingan so'zlarning qo'llanilishi: Don't be so **kiasu**
- so'roq gaplarda to be fe'lining tartibsiz qo'llanilishi: You don't want to go **is** it?
- so'roq gaplarda san modal fe'lining noodatiy qo'llanilishi: Like that **can** or not?

Ingliz tilini bu tartibda o'rganish singapurliklar uchun o'z mamlakatida ingliz tilidan erkin foydalanish imkonini bersa-da, Singapurdan tashqari hududlarda ingliz tilida so'zlovchilar bilan muloqot jarayonini cheklashi mumkin.

o'qitishda standart ingliz tilidan chalg'ish hollarini yuzaga keltirishi mumkin.

Ingliz tilining Amerika va Britaniya variantlariga asosida yuzaga kelgan milliy variantlar va ularda standart shakllarning turli-tumanligi ushbu standartlarning qaysi biri ingliz tilini o'qitishda eng muvofiq, degan savolni qo'yadi. Qaysi talaffuz me'yorlari tilni o'rganuvchilarni erkin muloqotga kira olishini ta'minlaydi. bunda albatta, til o'rganuvchilar tushunishning universalligiga erishish uchun yaxshi modelga ega bo'lishi kerak. Ma'lumki, standart Amerika ingliz varianti va standart Avstraliya varianti biridan ancha

farqlanadi, o'z navbatida ushbu har ikkala variant Qabul qilingan talaffuz me'yorlaridan farqlanadi. Turli variant egalarining (hatto, tildan ona tili sifatida foydalanuvchilar) o'zaro muloqotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklar ingliz tilidan ikkinchi til yoki chet tili sifatida foydalanuvchilar muloqot jarayonida yanada yuqori bo'ladi. Jenkins ingliz tilining ikkinchi til variantlari talaffuzini uyg'unlashtirish xalqaro tushunishni ta'minlash ehtiyoji tufayli yuzaga kelishini ta'kidlaydi.

O'qitish jarayonining boshlang'ich bosqichida asosiy vazifa chet tilining fonetik xususiyatlari, morfologik va leksik hamda sintaktik qurilishlari xaqida elementar tushunchalar berishdan iborat bo'lsa, keyingi bosqichda o'sha tushunchalarni kengaytirib va chuqurlashtirib borishni takozo etadi. Bunda har qanday fonetik yoki grammatik hodisa o'sha tildagi leksik birlikni tahlil qilish va uni ona tilimizdagi hodisalar bilan qiyoslash natijasida tushuntirilmog'i kerak. Leksik birliklarning talaffuzini qiyoslash qiziqarli natijalarni berish bilan birga tilning fonologik sistemasi uchun begona bo'lgan elementlarni aniqlashda ham katta ahamiyatga egadir.

O'qitish jarayonining boshlang'ich bosqichidayoq ingliz tilidagi leksik birliklarning, asosan, so'zlarning fonetik xususiyatlari haqida, ularning orfografik va orfoepik sistemalari munosabatlari hamda bu sistemalarning bir-biriga to'la mos kelmasligi haqida so'z yuritiladi.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi, ingliz tilida ham uning tovush sistemasi, eng avvalo, ikki katta guruhga - unli va undoshlarga bo'linadi[1. 81-132]. Ingliz tilidagi yigirmata unli fonema orfografiyada faqatgina oltita grafema bilan ifodalansa, yigirma to'rtta undosh fonema nisbatan ozroq - yigirmata grafema bilan ifodalanadi. O'zbek tilining tovush sistemasida esa bunday nomutanosiblik uchramaydi, unda muayyan grafema ma'lum bir fonemani ifodalab keladi (NG - N bundan mustasno). Ingliz tilidagi bunday farq o'z navbatida so'zlarning yozilishi bilan talaffuziga o'rgatishni birgalikda olib borishni talab qiladi. Bunday birlikka erishishning asosiy shartlaridan biri ingliz tilidagi so'z

strukturalarining ilk xususiyatlarini bilish va uning konstruktiv elementi bo‘lmish bo‘g‘inga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri tushuntira bilishdir.

Leksik birliklarni o‘rganishda ularning konstruktiv elementi bo‘lmish bo‘g‘in ahamiyatining kattaligi uning bir necha xil tiplarga bo‘linishi bilan ham isbotlanishi mumkin. Umuman, bo‘g‘in - bu bo‘g‘in yasovchi va unga nisbatan kuchsizroq tovushlardan tashkil topgan nutq bo‘lagi bo‘lib, uning ochiq, yopiq, yarim ochiq va yarim yopiq kabi turlari mavjuddir. Bo‘g‘inning turi unli tovushga qo‘shni bo‘lgan undoshlar bilan yoki unli tovush atrofidagi bo‘g‘in elementlari bilan munosabatdan kelib chiqadi. Ammo, quyidagi ingliz so‘zida “daughter” uch unli va beshta undosh harf ishtirok etsa, uning talaffuzida [do: t9l] faqat ikki unli va ikkita undosh tovushlar ishtirok etadi. Yozuvdagi va o‘qilishdagi bunday nomutanosiblik hollarini bartaraf qilish maqsadida so‘zlardagi ikki xil bo‘g‘in turlarini ifodalash uchun bo‘g‘inning orfografik va orfoepik turlarini farqlash lozim. Masalan, yuqoridagi so‘z fonetik jihatdan [do: -t9l kabi bo‘linib, ikki ochiq bo‘g‘indan tashkil topsa, uning orfografik bo‘linishi “daugh-ter” tarzida bo‘lib, ikki to‘la yopiq bo‘g‘indan tashkil topadi. Bu so‘zlardagi harflarning tovush ifodasini tushuntirish uchun an’anaviy fonetikada “a” harfining [o: l tovushini va “-er” harf birikmasining neytral [e] unlisini berishidan foydalanamiz.

Ingliz va o‘zbek tilidagi so‘zlarda bo‘g‘inning yuqorida aytib o‘tilgan to‘rtta fonetik tipi uchraydi, masalan:

1. To‘la ochiq bo‘g‘in tipi (yolg‘iz unlining o‘zidan tashkil topadi) V; [a’gein] - again, [a:] - are u
2. To‘la yopiq bo‘g‘in tipi - CVC: [bed] - bed, [buk] - book, [tram] - tram, bor, biz;
3. Yarim ochiq bo‘g‘in tipi - CV: [tu] - |to, [ti: t/a] - teacher, to
4. Yarim yopiq bo‘g‘in tipi - VC: [at] - at, [^z] - as, ot, uch, on; (bunda “V” belgisi bo‘g‘inda unli tovushning shartli belgisi sifatida, “C” esa har qanday undosh tovushning fonetik belgisi sifatida qaraladi).

Ko'p bo'g'inli ingliz so'zlarida so'z urg'usining orfografik bo'g'indagi unliga ta'siri ancha kattadir. Urg'uli bo'g'indagi unlilar, odatda, alifbodagi o'qilishiga ega bo'ladilar (birinchi tip bo'g'in o'qilishi). Masalan, take -[teik] - **olmoq**, pupil-[pju: pl] - **o'quvchi**, robe-[roub] - **chopon**, (good)-bye-[bai] - **hayr**, thirteen-[0a: ti: n] - **o'n uch**, fine-[fain] - **ajoyib** va hokazo. Orfografik bo'g'indagi unlining talaffuzini belgilab beruvchi faktorlardan yana biri uning atrofidagi undoshlarning xususiyatlaridir.

Yuqorida keltirilgan bo'g'in turlari ikki tilda bir xil bo'lsada, ularning fonetik ko'rinishlari bir-biridan farq qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi to'la ochiq bo'g'in tipi bir xil ko'rinishga ega - V; to'la yopiq bo'g'in esa, undoshlarning ishtirok etish darajasiga ko'ra juda xilma -xildir: CVC, CVCC, CVCCC, CVCCCC; CCVC, CCVCC, CCVCCC, CCVCCCC; CCCVC, CCCVCC, CCCVCCC. Bu bo'g'in tiplaridan ba'zilar murakkab bo'lishi bilan birga, maktab leksikasining anchagina qismini tashkil etadi. Masalan, text-[tekst] - CVCCC - **tekst**, spring-[sprig] - CCCVC - **bahor**, sixths-[siks0s] - CVCCCC - oltinchi(si) va hokazo. Bunday bo'g'in strukturasiga ega bo'lgan so'zlarning sof o'zbek so'zlarida yo'qligini nazarga olsak, fonetik hodisaning o'qitish prosessidagi mohiyati yana ham yaqqolroq ko'rinadi. Proteza hodisasi, ya'ni, undosh birikmalar o'rtasiga har xil tor unlilarni qo'shib talaffuz qilish ana shunday asosga ega bo'lib, ingliz tilida bu hodisa so'zlarning ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, sends-[sendz] (V) - (u) **jo'natadi** so'zidagi bo'g'in va so'z ohiridagi undosh birikma orasiga tor [e] unlisining qo'shilishi va [sendsz] sifatida talaffuz qilinishi ma'no o'zgarishiga olib keladi: (sendsz>senders) - **jo'nativchilar**. Asked so'zining [a: skid] - so'zi sifatidagi talaffuzi esa nofenematik xato bo'lsada, u so'zning aksent-ritmik birligining buzilishiga olib keladi.

Chet tillar maktab programmasiga ko'ra o'quv jarayoni davomida o'quvchilar ma'lum miqdordagi (1200dan ortiq) leksik birlikni bilishlari shart. Bu birliklarning qariyb to'rtdan birini murakkab bo'g'in tiplaridan tashkil topgan so'zlar tashkil etadi: close, camp, dance, strong, press, please, quite,

school va hokazolar. Ingliz tilining fonetik strukturasi soʻz va boʻgʻinlarda bir necha undoshlarning ishtirok etishi bilan xarakterlansa, oʻzbek tilida, yuqorida aytib oʻtganimizdek, bunday hodisa uchramaydi. Bu hol oʻzbek oʻquvchilariga ingliz tilini oʻrganishda har xil qiyinchiliklarga olib keladi. Bunday hollarda ingliz tilidagi orfografik boʻgʻin tiplarining xususiyatlarini boʻgʻinlardagi unli harflarning oʻqilish turlari bilan tushuntirish mumkin. Qoidadan mustasno holatlar, albatta, alohida tushuntirilmogʻi kerak.

Fonetik boʻgʻin tiplarini va ularning har xil koʻrinishlarini oʻrganishdan asosiy maqsad oʻquvchilar oʻrganishi kerak boʻlgan leksik birliklarni toʻgʻri, adabiy normaga yaqin talaffuz qila olishda nutq koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

UMUMIY XULOSALAR

Ingliz tilining adabiy va hududiy variantlarining qiyosiy tahlili ustidagi izlanishlar olib borilayotganiga ko'p bo'lmadi. Shuning uchun ham bu masalani o'rganish jarayonida bir qancha muammalarga duch kelish mumkin.

Ular qatoriga quyidagilar kiradi.

1. Adabiy va mintaqaviy variant turlari;
2. Adabiy variantlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar;
3. Adabiy ingliz tilida sheva va jargonlarning ishlatilish o'rinlari;
4. Adabiy ingliz tilini o'qitishda talaffuz normalari;

Tadqiqotimizda adabiy ingliz tilining hududiy variantlariga turli yondashuvlar tahlili bilan tanishish, variantlar o'rtasidagi farqlar va o'xshash jihatlarni tahlil qilishimiz ingliz tilining adabiy varianti haqida ma'lum xulosalar chiqarishimizga imkon yaratdi.

Ingliz tilining adabiy varianti haqidagi dastlabki hulosamiz uning kelib chiqish tarixi, mintaqalararo o'zgarishi va turlanishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda jami besh qit'ada so'zlashiluvchi ingliz tilining hayotiylik davomiyligi IV asrdan oshadi. Tadqiqotimizda adabiy ingliz tili, variantlar va dialektlarni o'rganib chiqqan holda quyidagi hulosalarga keldik:

- 1) standart ingliz tili shu tilning adabiy ko'rinishi bo'lib ingliz tilida gaplashadigan barcha davlatlar va dunyo miqyosida tan olingan va qabul qilingan ko'rinishi;
- 2) ingliz tilining hududiy variantlari til normalarini hududlararo tanlab olingan va keng ishlatiladigan ko'rinishi hisoblanib, ular joyning aholi qatlami, madaniyati, tarqalishiga qarab turlanadi;
- 3) mahalliy dialektlar og'zaki nutq uchun xos bo'lib, ular adabiy til me'yorlariga aloqador emas va faqatgina ma'lum hudud va kishilar muloqotini boyituvchi til ko'rinishi hisoblanadi;

Keyingi xulosamiz ingliz tili variantlarining grammatik, leksik, semantik va morfologik jixatlari bilan bog'liqdir. Ingliz tilining hududiy variantlarini tahlil qilar ekanmiz, ular yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

- 1) standart ingliz tili qonun qoidalariga Britanacha ingliz tili asos qilib olingan;
- 2) ingliz tilining Britanacha va Amerikanacha variantlariga bo'linishida tildagi ishlatilish yoki ishlatilmaslik xatolari asosida emas, balki tildagi foydalanuvchilarga bo'lgan qulayliklar sabab ikki asosiy variantga ajragan;
- 3) ingliz tilining standart holatdagi ko'rinishi asosan ikki variantda: amerikanacha va britanacha ingliz tilida;
- 4) turli hududlarda so'zlarning ishlatilishida semantik jihatidan bir-biriga mos kelmay qolishi va variantlarda leksik birliklarning ekvivalenti kamligi leksik farqlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;
- 5) dialektga xos so'zlar asosiy uch qismga:
 - a) hududiy dialektlar
 - b) klassik dialektlar
 - v) adabiyotda ishlatiladigan dialektlarda bo'linadi.
- 6) ingliz tilining hududiy variantlarida faqat o'sha hudud uchun xos bo'lgan so'zlarning ham mavjudligi.

Ingliz tilini standart ko'rinishi davlat tili bo'lgan va bo'lmagan davrlarda o'rgatilishi butun dunyoda rivojlanib borayotgan fan texnika rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. O'zini har sohada bilimdon deb hisoblovchi har bir kaddan biror xorijiy tilni ayniqsa ingliz tilini bilishni talab etilishi bejiz emas. Til o'rganuvchi qaysi millat, qaysi hududdan bo'lishiga qaramay standart ingliz tilini bilishi undagi xususiyatlarni ham hisobga olgan holda foydalanishi davr talabidir. O'tgan davrga qaraganda hozirgi zamon til o'zgarishlari ham fan texnikaning shiddat bilan rivojlanishi tufayli tez o'zgaryapti.

Til o'rganuvchi til o'rganishning dastlabki bosqichidanoq tildagi mahalliy xususiyatlarni o'rganib borishi ayniqsa Britanacha va Amerikanacha ingliz tilining

farqli jihatlarini bilishi kerak. Fikrimizcha, darsliklarda, qo'llanmalarda ham ingliz tilini mahalliy ko'rinishlari haqida ma'lumot beruvchi boblar kiritilishi kerak. Zero, hech qaysi til faqat grammatik til qoidalaridan iborat emas, undagi turli lingvistik bezaklar-jargonlar, lahjalar, dialektlar, shevaga hos so'zlar, iboralar mavjud.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu kabi tildagi xususiyatlar tilning rivojiga, boyishiga va ommalashuviga o'z ta'sirini o'tkazadi va albatta keyinchalik standart til ko'rinishlarini hosil qiladi. Butun dunyo bo'ylab dominantlikni qo'lga olgan va olayotgan 60 dan ortiq davlatlarda rasmiy til sifatida ishlatilayotgan ingliz tilining kelajak uchun ham o'z o'rnini va ahamiyati bor.

Til iste'moliga talab ortib borar ekan, uning mintaqalararo farqlanib rivojlanishi turli hududiy bo'linishlarga olib keladi.

Tadqiqotimiz davomida adabiy va hududiy variant turlari, ular o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar, sheva va jargonlarning ishlatilish o'rinlarini ochib berishga harakat qildik. O'ylaymizki, bizning ingliz tilining adabi varianti ustida olib borgan izlanishlarimiz xorijiy til o'rganuvchilarning til o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi va zaruriy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. T.: Sharq 2010.
2. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. М.: 1973.
3. Антрушина Г. Б., Афанасьева Г.Б., Морозова Н.Н. Лексикология английского языка. М.: 1985.
4. Александрова О. В. Хрестоматия по английской филологии. М.: 1991.
5. Аракин В. Д. История английского языка. М.: 1985.
6. Белаева Т. М. , Ротапова И. А. Английский язык за пределами Англии. М.: 1961.
7. Иванова И. П. , Чахоян Л. П. История английского языка. М.: 1976.
8. Маковский М. М. Английские социальные диалекты. М.: 1982.
9. Расторгуева Т. А. История английского языка. М.: 1983.
10. Смирницкий А. И. Древнеанглийский язык. М.: 1955.
11. Степанавичус А. Ю. Историческая фонология английского языка-М.: 1987.
12. Филипов Е. Н. Соотношение общеанглийской и американской лексики в американском варианте английского языка. М.: 1967.
13. Швейцер А. Д. Литературный английский язык в США и Англии. М.: 1971.
14. Шахназарова В. С. Практический курс английского языка. М.: 1998.
15. Ярцева В. Н. Развитие национального литературного английского языка. М.: 1968.
16. Azar. Fundamental English Grammar book, 3rd edition.
17. Bex, Tony; Richard J. Watts. Standard English: The widening debate. Routledge. 1999.
18. Blake, N. F. A History of the English Language. (Basingstoke: Palgrave). 1996.
19. Burridge, Kate and Bernd Kortmann (eds). Varieties of English: vol 3, The Pacific and Australasia. (Berlin and NY: Mouton de Gruyter). 2008.

20. Binder, David. (14 September 1995). "Upper Peninsula Journal: Yes, They're Yoopers, and Proud of it". New York Times, section A, page 16.
21. Bartlett, Ray; Gregor Clark; Dan Eldridge; Brandon Presser. Lonely Planet New England Trips. Lonely Planet. Retrieved 4 September 2013. 2010.
22. Coulmas, Florian; Richard J. Watts. Sociolinguistics: The study of speaker's choices. Cambridge: Cambridge University Press. 2006.
23. Crowley, Tony. Standard English and the Politics of Language (2nd ed.). Palgrave Macmillan. 2003.
24. Crystal David. The Fight for English: How language pundits ate, shot and left. Oxford: Oxford University Press. 2006.
25. Crystal, David. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 4th ed. (Oxford: Blackwell). 1997.
26. Concise Oxford companion to the English language, pp. 96-102. 2005.
27. Crystal David. The Cambridge encyclopedia of the English language (2nd ed.). Cambridge University Press. 2003.
28. Collins, Jim. "Mud season: New England's fifth season". Yankee. Retrieved 4 September 2013.
29. Durkin, Philip. "Global English", Oxford English Dictionary, 2007. Accessed 2007-11-07.
30. Daniel Schreier, Peter Trudgill. The Lesser-Known Varieties of English: An Introduction. Cambridge University Press, Mar 4, 2010 pg. 10.
31. Freeborn, Dennis. From Old English to Standard English: A Course Book in Language Variations Across Time (3rd ed.). Palgrave Macmillan. 2006.
32. Gorlach, Manfred. "The Linguistic History of English" (Basingstoke: Macmillan). 1997.
33. Gramley, Stephan; Kurt-Michael Patzold. A survey of Modern English. London: Routledge. 2004.
34. Harder, Jayne C. , Thomas Sheridan: A Chapter in the Saga of Standard English, American Speech, Vol. 52, No. 1/2 (Spring - Summer, 1977), pp. 65-75.
35. Hickey Raymond. Legacies of Colonial English. Essen University: Cambridge University Press. 2004.
36. Hudson, Richard A. Sociolinguistics (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. 1996.

37. Hot English magazines. 127, 128, 134, 118 version
38. Hickey Raymond. *Dublin English: Evolution and Change*. John Benjamins Publishing. 2005. pp. 196-198.
39. Hickey Raymond. *A Source Book for Irish English*. Amsterdam: John Benjamins Publishing. 2002. pp. 28-29.
40. Baugh, Albert, and Thomas Cable. *A history of the English language*. Routledge, 1993.
41. Nishino, Hiromichi. "The Origin of the English Language. " *Tokyo Future University bulletin* 15 (2021): 213-222.
42. Kortmann, Bernd and Clive Upton (eds). *Varieties of English: vol 1, The British Isles* (Berlin and NY: Mouton de Gruyter). 2008.
43. Spalding, William. *The History of English Literature; with an Outline of the Origin and Growth of the English Language: Illustrated by extracts*. Oliver and Boyd, 1875.
44. Mesthrie, Rajend (ed). *Varieties of English: vol 4, Africa, South and Southeast Asia* (Berlin and NY: Mouton de Gruyter). 2008.
45. Mugglestone, Lynda. *The Oxford History of English*. Oxford: Oxford University Press. 2006.
46. Moore, B. *Speaking our language: the story of Australian English*, Oxford University Press, Melbourne. 2008. p. 69.
47. 47. Schneider, Edgar W. (ed). *Varieties of English: vol 2, The Americas and the Caribbean*. (Berlin and NY: Mouton de Gruyter). 2008.
48. 48. Smith, Jeremy. *An Historical Study of English: Function, Form and Change*. (London: Routledge) 1996.
49. Thorne, Sarah. *Mastering Advanced English Language*. (Basingstoke: Macmillan) 1997.
50. Wright, Laura. *The Development of Standard English, 1300 - 1800: Theories, descriptions, conflicts*. Cambridge: Cambridge University Press. 2000.
51. Wells, John C. , and John Corson Wells. *Accents of English: Volume 1*. Vol. 1. Cambridge University Press, 1982.
52. Wells, John Christopher. *Accents of English: Volume 3: Beyond the British Isles*. Vol. 3. Cambridge University Press, 1982.

53. Beinhoff, Bettina. *Perceiving identity through accent: Attitudes towards non-native speakers and their accents in English*. Vol. 35. Peter Lang, 2013.
54. Wells. *Accents of English*. 2006. P. 595
55. Wakelin, Martyn Francis. *Discovering English Dialects*. Oxford: Shire Publications. 2008. p. 4.
56. Bolinger, Dwight L. "A theory of pitch accent in English. " *Word* 14. 2-3 (1958): 109-149.
57. Wells. *Accents of English*. Cambridge University Press. 1983. page 351.
58. Wolfram, Walt, and Natalie Schilling-Estes. *American English: dialects and variation* second edition. New York: Wiley-Blackwell. 2006.
59. Таджибаева А, Ташланова Н. "The collaborative approach in content and language learning. " *Теория и практика современной науки*, 2020, с. 31-34.
60. Ergashevna, TA. "Specific features of the language in the development of culture." *Проблемы современной науки и образования*, 2020, с. 82-84.
61. Таджибаева А. Э. «Актуальные проблемы обучения иностранным языкам в вузе.» *Проблемы современной науки и образования*, 2020, с. 42-44.
62. Таджибаева А. Э. "Actual problems of teaching foreign languages at university. " *Проблемы современной науки и образования*, 2020, с. 42-44.
63. Маматович, З., Эргашевна, ТА. "Blended learning in higher education using LMS Moodle. " *Образовательный процесс*, 2019, с. 5-9.
64. Таджибаева, А. "The essence of evidence based teaching techniques in learning a foreign language. «Экономика и социум», 2018, с. 88-91.
65. Таджибаева А.Э. « Актуальные методы обучения английскому языку студентов изучающих информационные технологии. *Проблемы науки*, 2021, с. 47-49.
66. Adila, T. "Information technology as effective means of fostering students to learning a foreign language. " *Modern scientific challenges and trends* 196, 2020
67. Нишонов У., Таджибаева А. «Информационно-компьютерные технологии при изучении языка.» *Форум молодых ученых*, 2017, с. 1548-1551.
68. Утанов У., Таджибаева А. "The importance of using modern educational technologies, including it competency approach as well as interactive methods in teaching the subject and educational work." *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 2016, с. 52-55.


- 69.Таджибаева А. Э. « Развитие профессиональной компетенции у студентов высших учебных заведений» *Central Asian Academic Journal of Scientific Research* 2. 2, 2022, с. 37-42.
- 70.Abdulazizova, N, Zokirova, D, Tadjibaeva, A. "The nature and importance of the education credit transfer system. " *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 2016, с. 61-63.
- 71.Ergashevna, TA. "The Effective ways, Methods and Techniques for Teaching English. " *Central asian journal of literature, philosophy and culture* 3. 2, 2022, pp. 32-37.
- 72.Tadjibayeva, AE. "Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik texnologiyalardan foydalanish. " *Scientific progress* 3. 1, 2022, 313-320.
- 73.Tadjibaeva, A and Xurvaliyev, B. "The essence of media literacy in learning process." *Теория и практика современной науки*, 2020, с. 35-37.
- 74.Hakimov, AR and Tadjibaeva, AE. "The perspectives of using information technologies in distance learning. " *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 2016, pp. 56-60.
- 75.Tadjibaeva, A. "Leraning a forein language in the elderly age." *Форум молодых ученых*, 2017, с. 5-8.
- 76.Tadjibaeva, A and Diyorov, N. "The use of computer technology in learning the language. " *Теория и практика современной науки*, 2020, с. 38-40.
- 77.Tadjibaeva, A and Tokhirov, J. "The issues of moral and behavior in abu nasr farabi's pedagogical views. " *Экономика и социум*, 2019, с. 85-87.
- 78.Tadjibaeva, A. "The issues of human behavior, conduct and ethics in the views of the great eastern scientist philosopher Abu Nasr Farabi. " *Современные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 2017, с. 179-183.
- 79.Tadjibaeva, A and Nizomova, O. "Role of telecommunication technologies in expansion of distance learning. " *Экономика и социум*, 2019, с. 81-84.
- 80.Tadjibayeva, A.E. "Specific features of the language in the development of culture." *Проблемы современной науки и образования*, 2020, с. 82-84.
- 81.Tashlanova, N. D. « Развитие критического мышления студентов в вузах.» *Проблемы современной науки и образования*, 2019, с. 63-64.
- 82.Tashlanova, N. "The essence of collaborative approach in learning a language. " *Scientific progress* 2. 8, 2021, pp. 281-286.
- 83.Tadjibaeva, A., Tashlanova, N. "The collaborative approach in content and language learning." *Теория и практика современной науки*, 2020, с. 31-34.
- 84.Tashlanova, ND. "Development of critical thinking of students in universities. " *Problems of modern science and education*, (11-2) 144, 2019, pp. 22-28.

- 85.Djuraevna, TN. "Language Teaching Methodology: Tradition and Modernity. " *Central Asian journal of literature, philosophy and culture* 3. 2, 2022, pp. 41-51.
- 86.Qurbonov, NB and Tashlanova, ND. "Derivative opportunities of the uzbek and english languages in the system of figurative place names. " *Scientific Bulletin of Namangan State University* 2. 2, 2021, pp. 400-408.
- 87.Ташланова Н. Д. «Использование опорной технологии в обучении русского языка». *Экономика и социум*, 2019, с. 289-292.
- 88.Tashlanova, H. D. «Эффективное использование игровых технологий в процессе обучения». *Форум молодых ученых*, 2018, с. 1419-1421.
- 89.Tashlanova, H. D. «Формирование навыков при выполнении самостоятельных работ студентов в высших учебных заведениях». *Мировая наука*, 2018, с. 238-240.
- 90.Tashlanova, ND. «Эффективное использование современных компьютерных технологий на уроках иностранных языков». *Экономика и социум*, 2018, с. 907-910.
- 91.Djuraevna, TN. "Correlation of Didactics, Linguodidactics and Methods of Teaching Foreign Languages. " *Yeurazian journal of Learning and Akademik Teaching*, 2022, pp. 7-16.
- 92.Таджибаева А.Э. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari”. *Мировая наука*, 2022. 72b
- 93.Tadjibaeva A.E. “The effective ways, Methods and techniques for teaching English” *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2022. pp 32-37
- 94.Tashlanova, ND. «Использование технологии дистанционного обучения в системе высшего образования. » *Research Focus* 1. 2, 2022, pp. 333-339.
- 95.Djuraevna, TN. "Semantic and structural features of the vocabulary of color designation in english, uzbek and russian languages. " *ISBN: 978-1-957653-06-8 Crossref doi: - 10. 37547/gbps* 5, 2022
- 96.Kurbonov, NB and Tashlanova, ND. «Деривационные явления и топонимии в узбекском и английском языках» *horazm ta'mun akademiyasi axborotnomasi*, 2022, с. 302-305.
- 97.Nigora, T. "Teaching special disciplines with innovative technologies." *Modern scientific challenges and trends*, 2020, pp. 201-204.
- 98.Mohiraxon, Parpiyeva. "Linguoculturological research of artistic visual means in english and uzbek languages. " *American Journal Of Philological Sciences* 2. 06 (2022): 26-30.

99. Tursunboeva, MA. "Teaching natural sciences and English language on the basis of integrative approach in higher education. " *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* 10. 1, 2021
100. Qizi, BDF and Qizi, TMA. "Difficulties in learning English as a second/foreign language. " *Dostijeniya nauki i obrazovaniya*, 2019, pp. 47-48.

A. E. Tadjibayeva. Polyethnic features of the modern English language, problems of choosing a teaching standard and a teaching norm (monograph).
Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2023, 130 p.

2
0
2
3



Global Book Publishing Services
1211 Polk St, Orlando, FL 32805, USA
Email info@scientificpublication.org